

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Toshkent Moliya instituti

E.Egamberdiev

G'.Qudratov

KORXONA IQTISODIYOTI

(o'qo'v qo'llanma)

**Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi
Kengash Prezidiumi tomonidan nashr etishga tavsiya qilingan**

Ma'sul muxarrir:

**Tao'rizchilar: TMIning «Menejment va huquq» kafedrası
dotsenti Sobirjonova D.**

**TDTUning «Iqtisodiyotda axborotlar
tizimi» kafedrasining professori Boqiev
A.**

Egamberdiev Erkin, Qudratov G'ayrat

Korxoná iqtisodiyoti

(o'qo'v qo'llanma)

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi. Toshkent
Moliya instituti – T-2004. ... bet).**

Toshkent Moliya instituti

SO'Z BOSHI

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy faoliyatning markazi butun iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini bo'lgan korxonalariga qo'chmoqda. Xuddi shu bo'g'ida jamiyat uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqariladi va turli xildagi zaruriy xizmatlar bajariladi. Odatda korxonalarda eng etuk malakali kadrlar to'plangan bo'ladi.

Resurslar sarfining samaradorligi, unumdor texnika va texnologiyalar qo'llash masalalari shu joyda xal etiladi. Korxonalarda biznes-reja tuzish, marketingni o'ttash, ishlab chiqarishga rahbarlik – menedjment ishlari amalga oshiriladi.

Bularning hammasi chuqur iqtisodiy bilim talab etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor talablarini yaxshi bilgan, korxonalariga yashab qoladi va mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etadi, xodimlarning daromadini oshirishga erishadi. Qo'yilgan vazifalarni faqat korxonalar iqtisodiyoti asoslarini yaxshi bilgan holdagina muvoffaqiyatli xal etish mumkin. «Korxonalar iqtisodiyoti» fanini zaruriyati ham ushbu fan ilmini o'rganishdan iboratdir.

«Iqtisodiyot» iborasi nimani anglatadi? P.Samuelson fikricha iqtisodiyotning klassik talqini shundaki, iqtisodiyot – ma'lum xildagi, cheklangan resurslardan foydali mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni turli guruhdagi kishilar o'rtasida taqsimlash uchun jamiyat ulardan qanday foydalanishi kerakligi haqidagi fandir.

Jamiyat hayotidagi iqtisodiy jarayonlar va xodimalarni o'rganish darajalari har xil bo'ladi. Odatda makrodaraja va mikrodarajalar ajratiladi. Lekin ular o'rtasida aniq, qattiq chegaralar yo'q. Iqtisodiyotning ko'pgina qismlari va mavzulari umumiydir. «Korxonalar iqtisodiyoti» fani «Buxgalteriya hisobi va xqjalik faoliyatining taxlili», «Sanoat menedjmenti», «Marketing», «Sanoat statistikasi», «Korxonalar moliyasini boshqarish» kabi fanlar bilan uzviy aloqadadir.

O'quv qo'llanmani tayyorlashdan maqsad hozircha ushbu fan bo'yicha o'zbek tilida ma'ruza matnlari ham, darslik va qo'llanmalar ham yo'q. Bu qo'llanmaning xususiyati va afzalligi shundaki, bunda respublikamizda turli xildagi korxonalar, firmalar va tadbirkorlik sub'ektlarini shakllanishi va rivojlanishining huquqiy va iqtisodiy asoslariga, bozor qonunlari, marketing ilmining talablariga tayangan holda nazariy masalalar amaliyot bilan bog'langan.

I-BOB. KORXONA IQTISODIYOTI FANINING MOHIYATI VA VAZIFALARI

1.1. Korxonalar iqtisodiyoti fanining mohiyati va uni o'rganishning zaruriyati, ahamiyati

Agar jamiyat xayoti rivojining xal qiluvchi sohasi iqtisodiyot bo'lsa, bunda korxonalar iqtisodiyoti muhim o'rin tutadi. Bunga sabab, xal qiluvchi dastlabki ishlab chiqarish bo'g'inida moddiy ne'matlar yaratiladi va turli xildagi xizmatlar bajariladi. Natijada kishilarning moddiy va ma'naviy talablari qondirilib jamiyatning rivoji yangi sifat darajasiga ko'tariladi.

SHaxsan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimiz obrq-e'tiborini xalqaro miq'yosida ko'tarish, chet el investitsiyasiga keng yo'l berish, xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotni erkinlashtirish, korxonalar o'rtasida raqobat muhitini yaratish, yakka xokimlikni kamaytirish borasida, mulkdorlar sinfini yaratish, mulkka egalik qilish xissini uyg'otish kabi ko'pgina sohalarda katta ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Xukumatimiz tomonidan keyingi yillarda qabul qilingan Qonunlar, Qaror va Farmonlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Respublikamiz iqtisodiyotini xar tomonlama mustaxkamlash, shu sohadagi muammolarni oqilona xal etish – turli xildagi firmalar, korxonalar va xqjaliklarda mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish, resurslarni foydali maqsadlarda oqilona taqsimlash, ulardan umumiy foydalanish, **iqtisodiy jarayonlar, xodisa va voqealarning o'zgarishiga baho berish usullarini puxta o'rganish bo'yicha bilimlar talab qiladi.**

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov fikricha: «Ishlab chiqarishning rivojlanish darajasini baholash»... bozor sharoitiga mos bo'lishi kerak, ya'ni eski uslub va mezonlar bilan bugungi rivojlanish darajasini baholash mutlaqo mumkin emasligiga alohida e'tibor berish lozim»*.

«Korxonalar iqtisodiyoti» fani firma va korxonalar turlari, ularning tuzilishi, tarkibi, tarmoq xususiyatlari, korxonalarining bozor sharoitidagi yashash muhiti, amaliyotga bog'liq xolda, ishlab chiqarish tajribalarini umumlashtirgan xolda kapital va undan foydalanish samaradorligi va uni baholash, ishlab chiqarish strategiyasini aniqlash, yangi mahsulotlarni yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish, mehnat unumdorligi va ish haqi, barcha turdagi resurslardan foydalanishda maksimal darajadagi samaradorlikni ta'minlab eng yuqori foydaga erishish yo'llari haqida bilimlar beradi. **Ushbu fanning mohiyati ham shundadir.**

Ma'lumki ishlab chiqarishning barcha elementlari – xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energetika resurslari, mehnat resurslari (malakali kadrlar), texnika va texnologiyalarga inson mehnati ta'sir etmasa xarakatsiz o'z joyida qoladi. SHuning uchun ulardan foydalanib **ishlab chiqarishni yoki xizmat ishlarini bajarishni tashkil etish lozim bo'ladi.** Mehnat maxsuldorligi (samaradorligi)ni - ma'lum sharoitlarda ishlab chiqarishni boshqarish, rejalashtirish, tashkil etish darajasi xal etadi.

Korxonalar iqtisodiyoti fanini o'rganishda respublikamiz iqtisodiyotini rivojlanishining hozirgi shart-sharoitlari, turli xil tarmoqlarning o'zaro uzviy bog'liqligi, ularning xususiyatlariga, korxonalarini mulk shakllari bo'yicha ajratilishiga, mulkdan foydalanishga bo'lgan munosabatlariga katta ahamiyat beriladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (53-modda): «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi» - deb yozilgan.

* I.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: «O'zbekiston», 1996y. 86 bet.

Ayniqsa hozirgi vao'tda iqtisodiy bilimlarsiz, fikr-mulohazalarsiz xech bir rahbar yoki tadbirkor xqjalik vazifalarini xal etish bo'yicha asosli qarorlar qabul qila olmaydi. **Eng muxim xqjalik vazifalari – bu ishlab chiqarishni tashkil etish va unga rahbarlikni amalga oshirishdir.**

Eng yuqori natijalarga erishish maqsadida qo'llanilayotgan texnika, texnologiya va ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi, turiga asosan. Korxonalar faoliyatining pirovard natijalari ham xuddi shunga va mulkdan foydalanishga bo'lgan munosabatlarga bog'liq bo'ladi. Barcha ishlab chiqarish resurslaridan ma'lum vao't mobaynida foydalanishni yo'lga qo'yishning ilmiy asoslangan tuzimidir. Ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish hamma narsani xal qiladi.

Boshqaruv ishlarining muxim qismi bu rejalashtirishdir.

Rejalashtirish – ma'lum vao't mobaynida mehnat jamoasining mehnat natijalari, ularning qisish sur'ati va nisbatini belgilovchi vazifalarni qabul qilish bo'yicha xarakatlari majmua'sidir. Reja – korxonalarini texnika va texnologiyalarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish hisobiga mahsulot hajmini ko'paytirish, sifatini yaxshilash, mahsulot turlarini yangilab borish, takomillashtirish, foydani oshirish va mehnatkashlar jamoasining ijtimoiy ahvolini, ya'ni turmushini va mehnat sharoitlarini yaxshilash, mehnat haqi to'lovlarini oshirish bo'yicha faoliyatini tartibga soladi.

Fanni o'rganish ob'ekti bo'lib, davlat va nodavlat mulkiga asoslangan firmalar, mikrofirmalar, kichik va o'rta korxonalar, dehqon va fermer xqjaliklari hisoblanadi.

Ularni faoliyat qo'rsatishi va rivoj topishining, huquq va majburiyatlarining asosi bo'lib talab, raqobat, pul xarakatining tezligi va boshqa bozor qonunlari, iqtisodiy qonunlar va mulk shakllari xizmat qiladi.

Ushbu fan sohasidagi bilimlar barcha iqtisodiy fan sohalari uchun ham taa'luqlidir. Undagi bilimlar mikroiqtisodiyot, biznes va tadbirkorlik, bank ishi, buxgalteriya hisobi va audit, statistika nazariyasi, korxonalar xqjalik faoliyatining taxlili, soliq va soliqqa tortish, tadbirkorlikning huquqiy asoslari, tadbirkorlik moliyasi, investitsiya kabi fan sohaslarini mukammal egallash uchun zamin yaratadi va bilimlar mutanosibligini ta'minlaydi.

Korxonalar iqtisodiyoti fanining maqsadi – moddiy ne'matlar qaerda, qanday sharoitlarda, kimlar tomonidan, qanday texnologiya, xom ashyo va materiallar ishtirokida bunyod etilishini va etkazilishi kerakligini, maksimal foyda olish va uni qanday taqsimlash zarurligini o'rgatishdir. Bular hammasi korxonalar va tarmoqlar xususiyatidan kelib chiqadi va fanning mohiyatini qo'rsatadi. Ushbu fanda sanoat yoki iqtisodiyotimizni bir butun yagona xqjalik organizmi sifatida rivojlanishining **umumiy qonuniyatlarini hisobga olish, yuzaga chiqarish zarur bo'ladi.**

Masalan, qiymat qonuni mahsulotni unga qilingan xarajatlarni hisobga olgan **bahoda sotilishini talab etadi. Xayotda kishilar tovar qiymatiga emas bahosiga duch keladilar.** Tovar bahosi tovar qiymatining qo'rinishidir, qiymat qonunini amalda qo'llanilishidir. Bundan bahoni shakllanish mexanizmini yaxshi bilish, bahodan iqtisodiyotni boshqarishda foydalanish zaruriyati kelib chiqadi. Mehnat unumdorligini oshirib borish qonunini buzulishi esa muomalada «ortiqcha pullarni» keltirib chiqaradi, pul muomalasi (xarakati) buziladi, mahsulot kamyobligi paydo bo'lib, talab qondirilmay qoladi. **Demak, iqtisodiyotning har qanday bo'g'inlarida iqtisodiy qonunlar va bozor qonunlari talabiga rioya qilish lozim bo'ladi.**

SHunday qilib iqtisodiy faoliyat moliyani vujudga keltiradi.

Moliya – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, xqjalikning barcha sohaslarida pul munosabatlarini xosil qilish, ularni taqsimlash va ishlatish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Mazkur jarayonda iqtisodiy faoliyat ustivor ahamiyatga ega, ya'ni u pul bo'lishini talab qiladi. Buning uchun tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ishlarini bajarishni yo'lga qo'yish, rivojlantirish zarurdir. Tovrlar va xizmatlar taqsimlangandan sqng iste'mol qilinadi hamda qiymat shaklida turli xil maqsadlarni

mqljallagan pul resurslari xosil bo'ladi, shuningdek bu pul tovarlarga ayirboshlanadi, pirovardida iste'mol qondiriladi. Tovar ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat qurollari qiymatini ifodalovchi yillik amartizatsiya mablag'lari, yig'ilib boradi va moliyaviy resursga aylanadi.

Pul resurslari – moliyaviy munosabatlarning ob'ektidir. SHuning uchun ushbu korxonada iqtisodiyoti fanining boshqa, ijtimoiy-iqtisodiy fan sohalarida tutgan o'rni va, ahamiyati be'qiyosdir. Uni o'rganish esa ob'ektiv zaruriyatdir.

1.2.Fanning vazifalari va uni o'rganish usullari

Korxonada iqtisodiyot fanining vazifalari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishning ob'ektiv sharoitlari va xukumatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy yqnalishlari bilan belgilanadi. Ulardan eng muximlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining mohiyati va maqsadini tushungan holda sanoat tarmoqlari hamda uning korxonalarida ishlab chiqarishning holatini va rivojlanish xususiyatlarini taxlil etish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash;
- Barcha turdagi korxonalarda ishlab chiqarishni boshqarish va rejalashtirishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash, boshqarish usullarini takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va mohiyatini taxlil qilish, texnika va texnologiyani rivojlantirish va ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullarini o'rganish;
- Sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida ishlab chiqarishni oqilona tashkil etishning shakllari darajasini ifoda etuvchi qo'rsatkichlar tizimini aniqlash, ularni taxlil qilish va ishlab chiqarishni xududlar bo'yicha joylashtirish printsiplarini (tamoillarini) o'rganish;
- Resurslardan foydalanish darajasini aniqlash, uni oshirish, yaxshilash yo'llarini, usullarini qo'rsatish;
- Mehnat unumdorligini oshirib borish va mehnat haqi to'lovlarini tashkil etish asoslari haqida ma'lumot berishdan iborat;
- Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish asosida yuqori natijalarga erishish yo'llarini o'rganish. Masalan, mahsulot hajmini, daromad va foyda miqdorini oshirish va x.k.lar.
- Kelajakda iqtisodiyotning turli xil sohalaridagi ishlab chiqarish va xizmat ishlarida faoliyat qo'rsatuvchi xodimlarni, mutaxassislarni korxonada iqtisodiyoti bilimlari bilan qurollantirishdan iborat.

Fanni o'rganish uslubi (metodologiyasi) deganda, uni o'rganish faoliyatining shakllari, usullari va ularning bog'liqligi tushuniladi. Ushbu fan bo'yicha masalani o'rtaga qo'yish, tadqiqot mavzuini va ilmiy nazariyani shakllantirish, shuningdek aniqlangan natijani haqiqiyliigi, ya'ni o'rganilayotgan ob'ektga muvofiqliigi jixatidan tekshirish metodologiyani qo'llashning eng muhim tomoni hisoblanadi. Iqtisodiy xodisa va jarayonlarni o'rganish uslubi – tadqiqot yoki bilim, anglash yo'li, voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari yig'indisidir.

Korxonalar iqtisodiyoti fanining **nazariy va uslubiy asosini** iqtisodiy nazariya, tarixiy materializmning dialektik usullari tashkil etadi.

Ishlab chiqarishning barcha muammolari ana shu usullar yordamida o'rganiladi.

Har qanday fanga qxshash iqtisodiyot ham o'zi o'rganadigan qonun va qonuniyatlarni aniqlash uchun ma'lum xil usullardan foydalanadi.

Haqiqiy xayotimiz katta miqdordagi xilma-xil xodisa va jarayonlardan tashkil topgan. Masalan, har bir kishining bo'yining uzunligi, sochining rangi, og'irligi, ko'z tuzilishi, uning rangi, turli xil narsalarga qiziqishi, tovarlarni iste'mol qilishdagi ta'bi, didi, daromadining darajasi bor. Lekin bu xususiyatlar har kimda har xil.

Agar supermarket magaziniga kirgan kishilarning xatti-xarakatini o'rganadigan bo'lsak, u holda bizga uning xususiyatlarini keragi bo'lmaydi, bizni haqiqatda shu kishilar qaysi tovardan qancha miqdorda xarid qilishlari mumkinligi qiziqtiradi. Masalan, boshqa misol olsak, **firmaning bozordagi xatti-xarakatini o'rganadigan bo'lsak**, u holda bosh menedjerning oila a'zolari yoki uni ishga qanday mashinada borishi bizni qiziqtirmaydi. Biz uchun eng muximi - shu firma (yoki korxonada)

qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqaradi, bunda u qancha xarajat qiladi va natijada qancha daromad oladi degan masaladir.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, biz o'rganmoqchi bo'lgan xodisalarni tasodifiy va vao'tinchalik va hozircha ahamiyati bo'lmagan xususiyatlardan (omillardan) tozaladik, ularni hisobga olmadik. Masalaning mohiyatini ifodalovchi jarayonlarni umumlashtirib, tartibga soldik. Bunday o'rganish usulini **ilmiy abstraktsiya usuli deb ataladi**. SHu usul yordamida yuzaga chiqarilgan qonuniyatlarni amaliyotda qo'llash, chunki ular faqat bir kishini yoki firmaning xatti-xarakatini emas, balki aniq bir sharoitdagi har qanday sub'ektlarning xatti-xarakatini qo'rsatadi. Bunday xatti-xarakatlarni turlicha vao'tlarda (kun, oy, yil) kuzatish va turlicha natijalar olish mumkin. Bunda **statistik usullardan, dinamik qatorlarni taxlil qilish** usullaridan foydalangan bo'lamiz. Bunday usulda olingan axborotlar vao't omilini ifoda etadi.

Iqtisodiyotda analiz va sintez usullari keng ishlatiladi. Analiz (taxlil) usulida o'rganiladigan ob'ektni bo'laklarga bo'lib, alohida-alohida o'rganilsa, sintez usulida ular haqidagi axborotlarni umumlashtirib, umumiy xulosalar qilamiz.

Xodisalarni taxlil qilishda **pozitiv va normativ taxlil usullari ham ishlatiladi**.

Pozitiv yondoshuv voqealarni real xolatini ifoda etadi.

Normativ usulda yoyilganda - u yoki bu jarayonga baho beriladi.

Masalan, metropolitenda yurish bahosi keyingi ikki yilda 50 so'mdan 150 so'mga oshdi desak – bu pozitiv yondoshuv. Agar biz metropolitenda yurish bahosini 50 so'mdan 150 so'mga ko'payishi, kishilar daromadini kamaytirib turmush tarzini pasaytiradi desak, **bu normativ yondoshuv hisoblanadi**.

Turli xil iqtisodiy jarayonlarni bog'liqligini yuzaga chiqarish uchun **funksional taxlil usuli ishlatiladi**. Masalan, korxonada mahsulotining bahosini bozorda tushib ketishini, uning daromadiga, xarajatlarini qoplashiga, ishchi va xizmatchilarning mehnat haqlarini to'plashiga qanday ta'sir etadi. Korxonada o'z xarajatlarini qanday qoplaydi, degan savollarga javob topiladi.

Iqtisodiy modellashtirish usulini ishlatish har qanday fikrlarni, chizmalarni, jadvallarni va shuningdek jarayonlarni matematik tarzda ifodalash imkoniyatini beradi.

Bulardan tashqari induktsiya va deduktsiya, optimallashtirish kabi usullar ham ishlatiladi.

Induktsiya usulida dalillardan, haqiqiy ma'lumotlardan nazariya tomon xarakat qilinadi.

Deduktsiya (gepotetik) usulida avval nazariya yaratilib, ular amaliyotda sinab qo'riladi.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy faoliyat nima?
2. Korxonada iqtisodiyoti fanining maqsadi va vazifalari.
3. Jamiyat a'zolari talabini qondirish yo'llari.
4. Fanni o'rganish usullari va ularning qo'llanilishi.

II-BOB. BOZOR IQTISODIYOTIDA KORXONALAR

2.1. Mehnat taqsimoti va korxonalarining tarmoq xususiyatlari

Mehnat taqsimoti va mehnat unumdorligini oshirish qonunini birinchi marta ingliz klassik iqtisodchisi Adam Smit ochgan. Uning nazariy xulosalari tovar, pul, ish haqi, foyda, kapital va boshqalar haqidagi hozirgi zamon kontseptsiyasining asosida turadi. Adam Smit kishilarning iqtisodiy faolligini rag'batlantiruvchi asosiy narsa «tabiiy tarzda» mehnat taqsimoti jarayonida amalga oshirish mumkin bo'lgan **shaxsiy manfaatdorlik deb hisoblagan**, shuning uchun jamiyatni gullab-yashnashi uchun raqobat erkinligi, kapitalni, pulni va kishilarni erkin harakati zarur, deb qo'rsatgan.

Korxonalar iqtisodiyoti ilmini egallashda eng avval mehnat taqsimoti va uni shakllanishi masalasiga ahamiyat berish lozim bo'ladi. SHuning uchun xalq xo'jaligi yoki butun mamlakatimiz iqtisodiyoti tarkibida yangi tarmoqlar, korxonalar va ularni keyinchalik alohida ishlab chiqarishlarga bo'linib ketishi mehnat taqsimoti ta'sirida riqy beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti miqyosida ja'mi mehnat yoki ijtimoiy mehnat taqsimoti turlicha shakllarda bo'ladi:

1. Umumiy.
2. Xususiy.
3. Birlamchi mehnat taqsimoti.

Umumiy mehnat taqsimoti - O'zbekiston xalq xo'jaligini yirik soxalarga bo'linishida qo'rinadi. Masalan, sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qurilishi, transport, savdo, aloqa, fan va boshqalar.

Xususiy mehnat taqsimoti - xalq xo'jaligining har bir sohasini mustaqil tarmoqlarga bo'linishida ifodalanadi. Masalan, sanoat tarkibida – oziq-ovqat, engil sanoat, mashinasozlik, metallurgiya, qurilish materiallari va boshqa tarmoqlar.

Birlamchi mehnat taqsimoti – korxonalar ichidagi mehnat taqsimotini ifodalaydi, ya'ni korxonani tsex va ishlab chiqarish uchastkalariga bo'linishida qo'rinadi.

Xususiy va birlamchi mehnat taqsimoti ta'sirida, masalan, sanoat tarkibida mutassil ravishda yangi tarmoqlar, ishlab chiqarishlar paydo bo'lib boradi. Bunday o'zgarishlar bozor qonunlariga bo'ysunadi. Sanoat tarkibi bo'yicha 16 yirik tarmoq komplekslariga ajratiladi:

- I-gr. Elektorenergetika.
- II-gr. Yoqilg'i sanoati.
- III-gr. Qora metallurgiya.
- IV-gr. Rangli metallurgiya.
- V-gr. Kimyo va neftkimyo sanoati.
- VI-gr. Mashinasozlik va metalni qayta ishlash.
- VII-gr. O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloz qog'oz sanoati.
- VIII-gr. Qurilish materiallari sanoati.
- IX-gr. Oyna va chinni-sopol buyumlari ishlab chiqarish sanoati.
- X-gr. Engil sanoat.
- XI-gr. Oziq-ovqat sanoati.
- XII-gr. Mikrobiologiya sanoati.
- XIII-gr. Un-krupa va omuxta-em ishlab chiqarish.
- XIV-gr. Meditsina sanoati.
- XV-gr. Poligrafiya sanoati.

XVI-gr. Boshqa sanoat ishlab chiqarishlari (rassomchilik buyumlari, musiqa asboblari ishlab chiqarish, zargarlik sanoati, kimyogarlik va bo'yash, veterinarlar uchun dorivor preparatlarni ishlab chiqarish, qinchoqlar (rezinadan boshqa), to'liq

sistemadagi suv quvurlari va boshqa sanoat ishlab chiqarishlari – protez buyumlari ishlab chiqarish, chizmachilik va kontselyariya uchun buyumlar, qo'rgazmali qo'llanmalar va boshqa ro'zg'or, xo'jalik buyumlari ishlab chiqarish. Barcha tarmoq va korxonalar o'rtasida uzviy ishlab chiqarish aloqadorligi, bog'liqligi mavjuddir. Har bir korxonalar mulk shaklidan qat'iy nazar yuqorida qo'rsatilgan tarmoq komplekslari o'z navbatida alohida ixtisoslashgan tarmoqlarga va ular esa ishlab chiqarishlarga bo'linadi. Masalan, mashinasozlik 45-ta, qurilish materiallari sanoati kompleksi esa 7-ta ixtisoslashgan tarmoqlardan iborat. O'z xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va strategiyasini aniqlashda ana shu bog'liqlikni va har bir tarmoq korxonasining o'ziga xos xususiyatlarini albatta hisobga olishi zarur. Aks xolda ishlab chiqarishni boshqarish, tashkil etishda bir qancha muammolar paydo bo'ladi va pirovard natijalar yaxshi bo'lib chiqmaydi.

Barcha turdagi korxonalar va firmalar, tarmoqlar o'zlarining quyidagi xususiyatlariga egadirlar:

1. Ishlab chiqaradigan mahsulot yoki xizmat ishlarining iqtisodiy yqnalishi. Boshqacha qilib aytsak yaratiladigan mahsulot qayerda va qanday maqsadlarda ishlatiladi.
2. Ishlab chiqarish texnika va texnologiyasi.
3. Ishlatiladigan xom ashyo va materiallari.
4. Mehnat sharoitlari.
5. Kadrlarning tarkibi, kasbi.

Bu belgilar bir xil bo'lsa korxonalar qxshash korxonalar hisoblanadi va aksincha belgilarning xar hilligi bilan korxonalar, firmalar va tarmoqlar bir birlaridan ajratiladi.

Korxonalar va tarmoqlar xususiyatlarini yaxshi bilish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega...

2.2. Korxonalar va firmalar tavsifi va ularni turlarga ajratilishi

Iqtisodiy faoliyatning xillari - bu iste'mol va ishlab chiqarishdir. Odatda ishlab chiqarishning foydali, qimmatga ega bo'lgan natijalari iste'mol qilinadi. Bunday ne'matlar foydali, ratsional xatti - harakatlar mahsulidir. O'z navbatida nimalarni iste'mol qilish zarurligini ishlab chiqarish hal etadi. Nimani iste'mol qilish zarur bo'lsa qshanday ne'matlar ishlab chiqariladi. Bunday iqtisodiy vazifalar uy xo'jaliklari, korxonalar va firmalar darajasida talab va taklif, raqobat kabi bozor qonunlari va resurslarning foydali taqsimlanishi asosida bajariladi.

Bozor iqtisodiyotida korxonalar ishlab chiqarish ob'ektidir, ya'ni tadbirkorlik faoliyati uchun ishlatiladigan mulkchilik majmuasidir. Korxonalar -tadbirkorlik ob'ekti; xalq xo'jaligining eng quyi yoki dastlabki hal qiluvchi ishlab chiqarish bo'g'inidir. **Korxonalar - mehnatkashlar jamoasi mulkidan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqarib, uni iste'molchiga sotadigan yoki sanoat harakteridagi turli xizmat ishlarini bajaradigan yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik sub'ektidir.**

Korxonalar ishlab chiqarishni kengaytirish va takomillashtirish, mehnat jamoasini ijtimoiy rivojlantirish maqsadlarida qimmatli qog'ozlar chiqarish hamda sotish yo'li bilan yuridik va jismoniy shaxslarning qo'shimcha pul mablag'larini jalb etish huquqiga ham egadir.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan (1995 yil 21 dekabr №163-1; 1996 yil 29 avgust №256-1) tasdiqlangan **“O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi”ning 39-moddasiga binoan “Yuridik shaxs tushunchasi”ga quyidagicha ta'rif berilgan:**

«O'z mulkidan, xo'jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi».

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.


Korxonalar to'g'risidagi bunday tushunchalar quyidagilarni ta'minlaydi:

- kreditorlar talabini qondirish kafolatlanadi.
- ta'sisчилarning tadbirkorlikdagi tavakkalchiligini kamaytirishni ta'minlaydi. CHunki xo'jalik oboroti ishtirokchilari oldida ta'sis etganlar emas, balki shu korxonalar javob beradi;
- korxonalar barcha ishlab chiqarish omillari - mehnat, kapital, xom ashyo - materiallar birlashadi;
- tovarlar ishlab chiqariladi va xizmat ishlari bajariladi;
- uni ta'sis etganlarning maqsadga erishishi ta'minlanadi.

Korxonalar iqtisodiy mohiyatini quyidagi 1-chizmadan qo'rish mumkin.

Sanoat tarkibidagi turli xil korxonalar qayidagi belgilarning umumiyliigi, yagonaligi xos bo'ladi. (1-chizma)

Korxonalarining iqtisodiy mohiyati.



1. Korxonaning ishlab chiqarish-texnik jihatdan yagonaligi;
2. Tashkiliy - iqtisodiy jihatdan yagonaligi;
3. O'z mulkiga, xo'jaligiga mustaqil egalik qilish va undan foydalanish huquqi, javobgarligi.

Korxonalar qonun bilan man etilmagan va o'z ustavida qo'rsatilgan turli xildagi xo'jalik faoliyati ishlarini amalga oshiradi. Bu erda qo'rinib turibdiki birinchi o'ringa korxonaning **mustaqilligi** chiqadi. Korxonada mustaqilligi nimalarda qo'rinadi? Korxonaga o'z mulkidan foydalanish huquqi berilgan. U mustaqil ravishda xodimlarni ishga olishi, ularga ish haqi to'lashi, o'z faoliyatini rejalashtirishi, resurslardan foydalanish bo'yicha foydani taqsimlashi, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishi kabi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Korxonaning o'z faoliyatidagi erkinligi, mustaqilligi - bu uning jamiyat, davlat, o'z jamoasi, sheriklari, iste'molchilari va xom ashyo etkazib beruvchilari oldidagi ongli ravishdagi masuliyati, javobgarligidir.

Korxonalar javobgarligi qonuniy va me'yoriy hujjatlarda qo'rsatilgan. Demak, haridorlar ham ishlab chiqaruvchilar ham, xom ashyo sotuvchilar ham o'z faoliyatlarida erkindirlar. SHunday ekan, nima uchun iqtisodiyot betartib rivojlanib ketmaydi degan savol tug'iladi. Bunga sabab bozor qonunlarini amal qilishidir: talab va taklif qonuni, raqobat, pul muomalasi, tovarlarning qiymati, foydaliligi va boshqalar.

Korxonalar ustavi asosida ish olib boradi. Ustavni korxonani ta'asis etuvchi (yoki ta'asis etuvchilar) tasdiqlaydi. **Korxonalar ustavi qoidalar belgilab qo'yiladi:** korxonaning nomi, uning qayerda joylashganligi, faoliyat turi va maqsadlari uning nazorat organlari, ularning vakolati, korxonalar mol-mulkini tashkil etish va foydani (daromadni) taqsimlash tartibi, korxonani qaytadan tashkil etish va uning faoliyatini taqsimlash shartlari.

Korxonalar pasporti - bu korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlari, resurslari va undan foydalanish darajasi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, korxonaning umumiy texnik - iqtisodiy qo'rsatkichlarini ifoda etuvchi hujjatdir. Korxonalar pasporti haqida mahsus qo'llanma ham bo'lishi zarur. Qo'llanma korxonalar pasportini tuzish uchun qo'rsatmalar beradi.

Texnik - iqtisodiy hisoblash ishlarini olib borish uchun faqat pasportdagi axborotlar kifoya qilmaydi, balki ular bilan bog'liq bo'lgan norma va normativlar, yillik hisobot ma'lumotlari, bahoni belgilash, biznes-reja ma'lumotlari ham zarur bo'ladi.

Pasport ma'lumotlari yordamida ishlab chiqarishning muhim xolatlari, yo'qotilgan imkoniyatlar, quvvatning etishmasligi kabilarni hisobga olinadi va yuzaga chiqariladi. Bozor iqtisodiyoti qonunining talablari esa bunday hujjatni korxonada bo'lishini ob'ektiv zaruriyat qilib qo'yadi.

Korxonalar turlari

Mulk shakllarining yangilanishiga yarasha turli xildagi korxonalar tashkil topdi. **I. Mulk shakllariga qo'ra** korxonalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1-jadval

Mulk shakllari bo'yicha korxonalar turlari

Mulk shakllari	Korxonalar turlari
Fuqarolar mulki asosida	Oilaviy va yakka tartibdagi korxonalar
Jamoa mulki asosida	Jamoa korxonalari, ishlab chiqarish koopera-tivlari, aksionerlik jamiyatlari, cheklangan javobgarlikka ega bo'lgan jamiyatlar, o'rtoqlik xo'jaliklari, ijtimoiy tashkilot korxonalari va diniy tashkilot korxonalari.
Davlat mulki asosida	Davlat korxonalari, davlat kommunal xo'jalik korxonalari.
Tashkilot tuzilishining mulkini birlashi asosida	Qo'shma korxonalar.
Mulk shaklidan qat'iy nazar	Kichik korxonalar va ijara korxonalari.

Qo'rsatilgan mulk shakllari asosida O'zbekistonda uch turdagi biznes amal qiladi:

- Yakka tartibdagi xususiy korxonalar;
- O'rtoqchilik uyushmasi;
- Korporatsiyalar, aksionerlik jamiyatlari; (bunda aktsiya egalari o'z xissalarini istagan vaq'tda ochiq bozorda sotishlari yoki sotib olishlari mumkin).

II. Mulkka qo'shgan hissasiga qo'ra: unitar korxonalar va komandit shirkat xo'jaligi ajratiladi.

Unitar korxonalar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida qo'rsatilishicha:

Unitar korxon* - bu o'ziga birlashtirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilotdir.

“Unitar” - lotin tilidan olingan bo'lib, birlik (rus tilida edinstvo) degan ma'noni beradi.

Unitar korxonaning mol-mulki bo'linmasdir va unga qo'shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo'yicha, shu jumladan korxonada xodimlari o'rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas. Unitar shaklda faqat davlat va munitsipial korxonalari tuzilishi mumkin. Masalan, gazni qayta ishlovchi «Muborakneftgaz» unitar korxonasi.

Komandit shirkat

SHirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining butun mol-mulklari bilan **javob beradigan ishtirokchilar** (to'liq shirkatlar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladigan, **hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik** faoliyatini amalga oshirishda qatnashmaydigan bir yoki bir nechta ishtirokchi (hissa qo'shuvchi, komanditchi) mavjud bo'lsa, bunday shirkat komandit shirkat hisoblanadi.

Qonun asosida tadbirkorlikni tashkil etishning ideal shakllari yo'q, har bir qo'rsatilgan shakldagilar o'zlarining avzalliklari va kamchiliklariga ega. SHuning uchun endigina ish boshlovchi tadbirkorlar qaysi shaklini tanlashi turli xil shart sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Korxonalar yirikligi bo'yicha: yirik, o'rtacha, mayda korxonalariga ajratiladi. Ularning yirikligini aniqlashda quyidagi qo'rsatkichlar ishlatiladi:

- A) Asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;
- B) Ishchi va xizmatchilarning soni;
- V) Yillik mahsulotlar hajmi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga asosan kichik va o'rta biznes egalari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- **yakka tadbirkorlik**, mikrofirma, kichik korxon, o'rtacha korxon, dexkon xo'jaligi, fermer xo'jaligi.
- **yakka tartibdagi tadbirkorlik** yuridik shaxs tashkilsiz va ishchi yollash huquqiga ega bo'lmagan, yo'lida xususiy tadbirkor sifatida davlat r-qyxatidan o'tganligi haqida guvohnomasi bor bo'lgan jismoniy shaxsdir.
- **mikrofirma** - mulk shaklidan qat'iy nazar ishlab chiqarish tarmoqlarida o'rtacha 20-kishigacha; va boshqa sohalarida 5 kishidagi 10 kishigacha xodimi bo'lgan korxonalaridir*.
- **kichik korxon** - engil, oziq-ovqat sanoati, metalga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, libel sanoati va qurilish materiallari, sanoatida yiliga o'rtacha 100 kishigacha xodimi bo'lgan; fan, ilmiy sohada, aloqa, xizmat qo'rsatish sohasi, savdo va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida 25 kishigacha xodimi bo'lgan korxonalaridir.
- **Dehqon xo'jaligi** o'z faoliyatini yuridik shaxs sifatida amalga oshiruvchi va oila boshlig'iga umrbod meros qilib berilgan o'z tomorqasida oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida oilaviy mayda tovar ishlab chiqaruvchi xo'jalikdir.

* Qzbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharxlar. “Iqtisodiyot va xuquq dunyosi” nashriyot uyi. Toshkent-1997 y. 70,71,72 moddalar; 199 - 201 betlar.

* Qzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni...2003 yil 30 avgust.

- **Fermer xo'jaligi** fermer xo'jaliklari a'zolarining faoliyatiga asoslangan, unga uzoq muddatga foydalanish uchun ijaraga berilgan er tomorqalarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni amalga oshiradigan, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik sub'ektidir.

III. Ishlab chiqarishning tiplari bo'yicha: ommoviy tipdagi, seriya tipdagi va yakka buyurtma asosida ishlaydigan korxonalar ajratiladi.

IV. Ixtisoslashtirish darajasi bo'yicha: korxonalar ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan, universal va aralash korxonalariga bo'linadi. Ixtisoslashtirish – bu bir xil turdagi yoki texnologik jihatdan o'xshash, yaqin bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishdir.

V. Mahsulot tannarxidagi harajatlarning salmog'iga qarab korxonalar:

- A) xom-ashyo materiallarni ko'p iste'mol qiladigan;
- B) asosiy fondlar bilan ko'proq qurollangan;
- V) elektr energiyani ko'p iste'mol qiladigan;
- G) mehnat sarfini ko'p talab qiladigan turlarga ajratiladi;

VI. Texnika taraqqiyotining darajasi bo'yicha: avtomatlashtirilgan va avtomatlashtirilmagan, kompleks mexanizatsiyalashtirilgan va qisman mexanizatsiyalashtirilgan korxonalar ajratiladi.

VII. Yil davomida ishlash vaotiga qora: uzluksiz (bir yil, oy, sutka) to'liq ishlaydigan, ish rejimi asosida ishlaydigan va mavsumiy ishlaydigan korxonalar ajratiladi.

VIII. Ishlab chiqarish texnologiyasi va jarayonlarining xususiyatlari bo'yicha:

- mexanik jarayonlar ko'proq o'rin egallagan;
- kimyoviy jarayonlar ko'proq o'rin egallagan korxonalar.

IX. Mahsulotning iqtisodiy yqnalishi bo'yicha:

- ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi;
- iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish korxonalari.

X. Mehnat qurollarini mehnat buyumlariga ta'sir etish xususiyati bo'yicha:

- qazib chiqarish sanoati korxonalari;
- qayta ishlash sanoati korxonalariga ajratiladi.

Bozorga o'tish davrida korxonalar va firmalarning asosiy vazifasi - bozor talabini qondiradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish va maksimal foyda olishdir.

Korxonalar ixtiyoriy ravishda o'z mustaqilligini, yuridik shaxs maqomini saqlab qolgan xolda turli xil birlashmalarga kirishlari mumkin. Masalan, kontsern, xolding kompaniyalari, aksionerlik uyushmalari, tarmoq va xududiy birlashmalari tarkibida bo'ladilar. Masalan, «O'zbekengilsanoat», «DAK» kompaniyasi, 22 ta korxonada 235 xildagi xalq iste'mol mahsuloti turlarini ishlab chiqaradi, «O'zbekcharmpoyabzal» uyushmasi 18 ta korxonadan iborat bo'lib, 331 xil mahsulot ishlab chiqaradi, «O'zbekipagi» uyushmasi 4 ta korxonadan iborat bo'lib, 685 xildagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi, bulardan tashqari «Fayzxolding» kompaniyasi, «Yog'moy tamaki sanoati», «O'zbek go'sht-sut sanoati», «O'zbekmevasabzavotsanoat-xolding», «O'zbeksavdo», «O'zbekbirlashuv aksionerlik kompaniyasi», «O'zpxatasanoat», xududiy aksiyadorlik birlashmasi va boshqalar. 2003 yili respublikamizda 4,5 ming aksioner jamiyatlari bor edi*.

O'zbekistonda kontsernlar 1992y o'rtalaridan boshlab tashkil etila boshlandi. Ular masalan, «Uzbekneftgaz», «Uzsuvkurilish», «Uzqurilishmateriallari», «Uzoziq-ovqat sanoati» kontsernlari. 1993 yildan kontsernlar korparatsiyalarga aylana boshlandi. Ulardan biri - Toshkent-Davlat Qurilish Korparatsiyasi («Toshkent qurilish»).

* Rinok tsennix bumag. №5, 2003 g. str. - 6.

Kontsernga misol sifatida AQSHning “Djenerol maters” birlashmasini qo’rsatishimiz mumkin. Bu kontsern AQSHning 126 ta, Kanadada 13-ta avtomobil zavodlarini va shuningdek 36 mamlakatda ishlab chiqarish va sotuv markazlarini tashkil etgan. Uning mahsuloti 15-ta firmalar orqali realizatsiya qilinadi.

Konglomerat - o’z faoliyati yuzasidan bog’liq bo’lmagan ko’pgina kompaniyalarni birlashib ketishi asosida tashkil topadigan kontserndir. Konglomerat o’z foydasini ko’pini ishlab chiqarish sohasidan emas, balki qimmatli qog’ozlar ishlab chiqarish yo’li bilan topadi. Bunday xolat ularni masalan, investitsiya fondlari bilan yaqinlashtiradi. Konglomerat odatdagi kontserndan farq qilgan holda **ishlab chiqarishni ko’proq diversifikatsiya qilish** ko’lami va moliyaviy operatsiyalar bilan shug’ullanadi.

Xolding kompaniyasi - bu korxonalarni birlashtirish emas balki o’z moliya fondlarini, kapitallarini birlashishidir. Uning farq qiluvchi tomoni shundaki, u boshqa “shu’ba” kompaniyalarni aksiyalar paketini sotib oladilar, aksionerlar kapitallariga egalik qilib, ularning har qanday faoliyatiga aralashishlari mumkin. **Xolding - alohida korxonalar kuchi etmagan moliyaviy resurslarni birlashtirish usullariga egadir...**

Aksiyalar paketini yo’lga kiritishi tufayli **xolding-kompaniya, boshqacha qilib aytsak - korporatsiya** ularga bog’liq bo’lib qolgan firmalarga:

- rahbarlik qiladi;
- moliyaviy yordam qo’rsatadi;
- investitsiyalar strategiyasini belgilaydi;
- bosh, etakchi jamiyatning maqsad va vazifalariga qarab ularni rivojlanish yqnalishlarini qo’rsatadi.

Xolding kompaniyaning boshqa firmalarning aksionerlik kapitalida ishtirok etishi ularni o’zlarining qimmatli qog’ozlarini sotib olishiga majbur qiladi. SHunday qilib bog’lanib qolgan firma asosiy bo’lgan xolding kompaniyaning, ya’ni korporatsiyaning aksionerlik kapitalining ishtirokchisiga aylanib qoladi. Undan keyingi boshqa kichik korxonalar, kompaniyalar ham etakchi, boshchi (“ona”) bo’lgan kompaniyaning aksiyalarini sotib olishga majbur bo’ladilar.

Demak, bunday kompaniyalar (“ona”, “bola”, “navara”, “avara”) yig’indisi korporatsiya deb yuritiladi.

O’zbekistonda bir necha 10 yillar davomida butun Markaziy Osiyo regionini uchun qishloq xo’jaligi texnikasini etkazib beruvchi korxonalar yaratilgan edi. Ular hozirgi vao’tda «O’zselxozmashxolding» kompaniyasi tarkibiga kirib qishloq xo’jaligi texnikalarini ishlab chiqarish, uni iste’molchiga etkazish va shuningdek barcha ekspluatatsiya qilish mobaynida unga to’liq xizmat qilish kabi bir qancha masalalarni xal etadigan bo’ldi. Bular yirik aksionerlik jamiyati bo’lgan «Toshkent traktor zavodi», «O’zbekselmash», «CHirchiqselmash», «O’zagromash-servis assotsiatsiyasi» (avvalgi «O’zselxoztexnika»). **«Toshkent traktor zavodi» lizing bo’yicha 8 xil modifikatsiyadagi traktorlarni etkazib beradi. «O’zbekselmash» seyalkalar va em-xashak yig’uvchi texnikani, «CHirchiqselmash» esa pluglar, chizel mashinasi, paxta kqsagini teruvchi mashinasini va boshqa xil mahsulotlarni ishlab chiqaradi, ularning jami 20 xil.**

Ular ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqarib avvalgi darajasiga asta-sekin chiqmoqda.

Hozirgi vao’tda qishloq xo’jalik texnikasini etkazib berish va unga servis xizmatlarini bajarish ishlarining hammasi «O’zselxozmashxolding» ixtiyoriga o’tkazildi. Bunday qarorni qabul qilinishiga xorijiy ishlab chiqaruvchi firmalar va diller xizmat qo’rsatishidagi dunyo amaliyoti tajribalari asos bo’ladi.

1996 yildan boshlab tarmoqda tuzilgan regional texnik markazlar qishloq xo’jaligi mashinalarini ishlab chiqaruvchilar uchun to’liq hajmda texnikaviy servis ishlarini bajaradigan bo’ldilar. Ularning ta’sischilari bo’lib korxonalar va xolding – kompaniyaning o’zi hisoblanadi.

Respublikamizda 2003 yili 13 ta regional markazlar ishlab turgan. Ular tarkibiga 98 ta bo'limlar va firmalarga xizmat qo'rsatish uchun 20 ta mayda ulgurji dqkonlar kiradi.

Agar 1996 y. O'zbekiston agrarchilariga 39 mln. so'mlik mahsulot sotilib, texnikaviy servis xizmati qo'rsatilgan bo'lsa, 2001 yili 5,4 mlrd. so'mlik shunday ishlar bajarildi. Texnikaviy markazlar hozirgi vao'tda o'z iste'molchilari uchun taklif etadigan xizmat turlari nihoyatda ko'payib ketgan...*

Masalan, "Agromashholding" tarkibiga Rossiya, Ukraina va Kozog'istondagi korxonalar kiradi; ularda 22 ming kishi mexnat qiladi.

"Agromashholding" ochiq xissadorlik jamiyati 5 ta mashinasozlik korxonalarini, birlashtiradi. Bular: "Krasnoyarsk kombaynlar zavodining ishlab chiqarish birlashmasi" bo'lgan OXJ, "Nazarov mashinasozlik zavodi" OXJ, "Altaydizel" OXJ, Kustanay dizel zavodi. Xoldingning filiallari shoxobchasi mustaqil davlatlar hamdqtligi sanoati rivojlangan asosiy rayonlarini qamrab olgan. "Agromashholding" OXJ bugun hamdo'stlik mamlakatlarida 35 tadan ko'p servis Markazlarini tashkil etgan.

Servis markazlari qishloq xo'jalik texnikasini ehtiyot qismlar bilan ta'minlaydi. Kafolatli ta'mirlash ishlarini amalga oshiradi, mexanizatorlar va xizmatdagi xodimlarni o'qitadilar, va shuningdek texnikalarni 5 yil muddat bilan lizingga topshiradilar.

Barcha ishlab chiqariladigan kombaynlarning umumiy xajmida xoldingning mustaqil davlatlar xamdo'stligi (MDX) mamlakatlariga sotadigan mahsulot salmog'i 45 foizni tashkil etadi. "Agromashholding" OXJning 2003 yildagi sotgan maxsuloti xajmi 240 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. ("Biznes-vestnik Vostoka" 20 noyabr 2003 y. N47. s. 8)

Yaqin yillarda "Agromashholding" OXJ O'zbekistonda o'zining servis-markazini ochishni rejalashtirgan.

Xolding kompaniyasi don yig'uvchi "Enisey-950", "Enisey 1200-1 NM" (Krasnoyarskda ishlab chiqariladi) sholi yig'uvchi "Enisey 1200 RM" kombaynlarini ishlab chiqarmoqda. O'zbekiston dexkonlari uchun esa "VT-100" va "VT-150" dizelli traktorlarni yangi avlodini taklif etmoqda.

Korparatsiya (aktsionerlik jamiyati) – aktsiya, obligatsiyalar chiqarish yo'li bilan ko'pgina xususiy kapitalarni birlash-tirish natijasida kapital yaratadigan korxonalarini tashkil etish shaklidir. Har bir fuqaro uchun qanday huquqlar berilgan bo'lsa, korparatsiyalar ham shunday huquqlar berilgan yuridik shaxsdir. Ular o'z mulkiga egalik qilish huquqi, ssuda olish, mulkni garovga qo'yish va uni tugatish, sudga murojat qilish huquqini oladi. Korparatsiya qonun oldida javob beradi, shuning uchun ularni sud hukmiga topshirish mumkin.

Masalan, «O'zkurilishma-teriallari» aktsionerlik kompaniyasi 100 dan ortiq korxonalarini (shu jumladan 53 ta aktsionerlik uyushmalarni) o'zida tqplagan. Ular yiliga 40 mlrd. so'mga yaqin tovar mahsuloti beradi. Ayniqsa ular tarkibida tsement sanoati muxim o'rin tutadi. Bugungi kunda O'zbekistonda 6 ta tsement zavodi bo'lib, ulardan eng yirigi «Qizilqumtsement» aktsionerlik jamiyatidir. Uning quvvati yiliga 3300 ming tonna tsement ishlab chiqarishdir. O'zbekiston tsement zavodlarining yillik quvvati 6830 ming tonna.

Korparatsiyalar AQSH iqtisodiyotida xal qiluvchi o'rinni egallaydi. Masalan, AQSH qayta ishlash sanoatida ularni hissasi ja'mi mahsulot hajmida 90% ni tashkil etadi, lekin 500 ta yirik korparatsiyada mamlakat yalpi milliy maxsulotini 40% dan ko'pi ishlab chiqariladi. Aktsionerlar mulki asosida monopolistik gigant ishlab chiqarishlar qsim chiqqan. Ular dunyo miqyosidagi kompaniyaga aylanganiga ancha bo'lgan.

Demak, hozirgi zamon iqtisodiyotida aktsioner kompaniyalar xal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular faoliyati milliy bozorga emas, dunyo bozoriga mqljallangan.

* Vera Rudakova. Injenernaya «Neotlojka dlya dexkanov». G. «Pravda vastoka» 12 oktyabrya 2002g.

Aksionerlik jamiyatlarini shakllanishi va rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi, ishlab chiqarish ko'lamini qisishi, va shaxsiy kapitalni cheklanganligi bilan bog'liq bo'lib, bunda yirik korxonalar yaratishni, temir yo'llarni, kanallar qurish va shunga o'xshash xususiy kapitalni birlashtirishni talab etadi.

Firmalar va ularning turlari

Firma - tovar ishlab chiqarish va barcha sohalarda xizmat ishlarini bajarish uchun foyda olish maqsadida resurslarini jamlaydigan va undan foydalanadigan tadbirkorlik shaklidir.

Firmalar tarkibida yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bo'ladi. Firmani har bir fuqaro yakka tartibda faoliyat qo'rsatish uchun yoki bir guruh kishilar o'rtoqchilik shaklida yuridik shaxs bo'lmasdan ham tashkil etishlari mumkin. Qonun asosida biznes va tadbirkorlikni tashkil etishning ideal shakllari yo'q. Tadbirkorlikni qaysi shaklda bo'lishi turli xil shart-sharoitlarga bog'liq. Rivojlangan kapitalistik dunyodagi firmalarni asosini hozirgacha xuddi shu yakka xo'jalikka asoslangan kichik firmalar tashkil etadi.

"Firma" so'zi birinchi bor Italiya davlatining shimoliy va markaziy viloyatlarida u erda kapitalizmni rivojlana boshlashi bilan ishlatiladigan bo'ldi. XV-XVII asrlarda firmalar Gollandiya, Angliya, Frantsiya, Germaniyaning Ganzey shaharlarida paydo bo'la boshladi keyinchalik esa butun dunyoga yoyilib ketdi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan korxonalar va firmalarning turli xillari paydo bo'la boshladi. Masalan:

Faktoring firmalari - ular boshqalarning qarz majburiyatlarini veksellarini sotib oladilar. Misol uchun bir firma ikkinchi ishlab chiqaruvchi firmadan vekselga tovar oladi, uchinchi firma esa birinchi firmadan shu vekselni uning qiymatini 3-5% pasaytirib sotib oladi. Uchinchi firma ikkinchi firmadan veksel uchun pul protsentlari oladi.

Lizing firmalari. Lizing bu ijaraning o'ziga xos shaklidir. Quvvatliroq firma boshqa moliyaviy mablag'lari kamroq bo'lgan korxonaga shartnoma asosida ma'lum muddatga dastgohlar, mashinalar va boshqa mol-mulklar beradi va ijara muddati tugagandan so'ng ijaraga olgan tomon bu mablag'larni qoldiq qiymati bo'yicha sotib olish huquqiga egadir. Lizing firmalari o'zlari kiritgan mablag'lari xisobiga lizing olgan tomondan lizing to'lovlari oladi.

Injining firmalari. Bular ob'ektlar yoki qurilmalarni foydalanish uchun topshiradigan yoki birinchi partiya maxsulotini chiqarishga tayyorlab beruvchi loyixa, qurilish ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlardir.

Konsalting firmalari. Ular ishlab chiqarishning, loyixa ishlarining turli xil sohalar bo'yicha, xo'jalik yuritishning yangicha shakllariga o'tish, raxbarlikni yaxshilash va shunga o'xshash ishlarni amalga oshirish bo'yicha maslaxatlar beradilar.

Venchur firmalari yoki tavakkalchilik firmalari - yangi tovar yoki yangi bozorlarni qidirib topish uchun yirik kompaniyalar tomonidan moliyalashtiriladigan firmalardir.

Seleng firmalari. Jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulklarini masalan, er tomorqalari, binolar, dastgohlar, yo'llar, qimmatbaxo qog'ozlarini jalb etib, ulardan o'zi xoxlagan tarzda bemalol foydalanuvchi firmalardir.

Trast firmalari. Trast - bu (ingl.) ishonish, ishonch degani. Ular o'z faoliyatini ishonchli shaxs sifatida amalga oshiradilar. O'zaro tuzilgan shartnomaga qo'ra ishonib topshirilgan tomonga tegishli bo'lgan mol-mulklarga egalik qilish huquqi beriladi. Trast firmalar bankrotlik holatidagi mulkni tugatadi, aktsiyalarga egalik qilish huquqini topshiradi, moliyaviy resurslarni, qimmatli qog'ozlarni va xokazolarni boshqarish ishlarini olib boradi.

2.3. Korxonalarda xo'jalik faoliyatini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari

Ma'lumki, mamlakatimizda ijtimoiy yqnalishdagi bozor iqtisodiyotini barpo qilish o'ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyatda boshlandi. SHuning uchun ham, iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida eng avvalo bozorga xos yangiliklarning huquqiy negizi barpo etildi.

Ishlab chiqarish sura'tining, aholi turmush darajasining keskin tushib ketishiga yo'l qo'yilmadi, to'lov holati yaxshilandi, ishlab chiqarishning ustuvor tarmoqlarini masalan, neft va gaz kondensati qazib olish, oltin, don, engil sanoat, ozuqa sanoati va boshqalarni takomillashtirishga e'tibor berildi. Natijada O'zbekistonga neft va neft mahsulotlari, go'sht va sut, don mahsulotlarini chetdan olib kelinishini bir necha barobar kamaytirishga erishdik. Bu davrda mulk, tashqi iqtisodiy faoliyat, banklar va bank faoliyati, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari, kooperatsiya, xo'jalik jamiyatlari va birlashmalari to'g'risida, monopoli faoliyatni cheklash, korxonalar, birlashmalar tashkilotlardan soliq olish, birjalar va birja faoliyati, bankrotlik to'g'risida, xorijiy sarmoyalar va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatini kafolatlash, lizing to'g'risida, er haqida, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, ijara korxonalari to'g'risida qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining isloxatni ta'minlovchi bir qancha farmonlar va hukumat qarorlari chiqdi.

Bu xil qonunlarning ko'plari sanoat korxonalari, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan firmalar va xo'jaliklarga tegishlidir.

O'zbekiston Respublikasida korxonalar faoliyatiga bog'liq bo'lgan qonunlar tovar - pul munosabatlari rivojlanayotgan va boshqarilayotgan bozor sharoitida mulkchilikning barcha shakliga mansub korxonalarni barpo etish, ular faoliyatini qayta tashkil etish va tugatishning umumiy huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini belgilab beradi.

Qonun foyda olishni ko'zlab ish olib boradigan korxonalarni mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularning huquqlari va mas'uliyatini belgilaydi, boshqa korxonalar va tashkilotlar, davlat boshqaruv idoralari bilan munosabatlarini tartibga soladi.

Bu davrdagi qonun chiqarish jarayoni konstitutsiyaviy jixatdan asoslangan ikki muhim printsipturli shakldagi (shu jumladan xususiy) mulk erkinligi va tengligi printsipti» hamda «iqtisodiy faoliyat erkinligi printsipti» asosida rivojlandi.

Buyurtmachilar, portfeligi shakllanishi, eksport uchun maxsulot ishlab chiqarish portfelini buyurtmachilar talabaga qo'ra shakllanishining barcha tarmoqlarda xom-ashyo, tayyor maxsulot zaxirasini nomligi ham, ranli metallurgiya, un-tegirmoni, poligrafiya, metalni qayta ishlash, ximiya va neftximiya, oziq - ovqat, ayniqsa mashinasozlik tarmoq korxonalarida sezilarli darajasidir*.

Bozor munosabatlari talablariga javob bera oladigan hissadorlik kompaniyalari, uyushmalari, birjalar, qiimmatbaxo qog'ozlarni hisobga oladigan va saqlaydigan depozitoriy, savdo uylari singari bozor infratuzilmasi ob'ektlari barpo etildi.

Bu qonunlar tashqi iqtisodiy faoliyatni sezilarli darajada kengaytirish imkonini berdi, xorijiy sarmoyalar uchun imtiyozli sharoit yaratdi, o'rta va yirik korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlarni ochiq turdagi jamiyatlarga aylantirish jarayonini boshlab berdi.

Lekin ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat xamon ancha murakkab ekanini ham e'tirof etish lozim. Masalan, hali xalq xo'jaligi sohalarida mulkchilikning yangi shakli qaror topishi

* Jurnal «Ekonomicheskije vestiik Uzbekistan». №7. 2003 str. 4.

talab darajasida chinakamiga ta'minlanmayapti. Sarmoyalarning etarli emasligi iqtisodiyotni yaxshilab qayta qurishga tqsiq bo'lmoqda, ishlab chiqarish sur'atining pasayishi ko'p tarmoqlarda hozirgacha ham davom etmoqda.

2.4. Bozor sharoitida korxonalarining rivojlanish muhiti

Korxonalar faoliyatining pirovard natijalari ko'p jihatdan uni o'rab turgan shart-sharoitlarga bog'liq bo'lsa xam ishlab chiqarishning moddiy omillari (resurslar) va ularni birlashtirish, ular yordamida maxsulot ishlab chiqarishni tashkil etish, mehnatni tashkil etish har doim xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. SHuning uchun korxonalar faoliyatini faqat ichki va tashqi sharoitlarga bog'lab qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bir qancha bozor muammolari paydo bo'ldi. Bular mulk shakllari, baxoni belgilash, foyda olishning engil yo'llarini topish, raqobat sharoitlaridan chiqib ketish va boshqalar.

Bozor dastaklari o'z-o'zidan ishlab chiqarishga rahbarlikni yaxshilamaydi, mehnatni normal tashkil qilmaydi, mehnat intizomini, kishilarni yaxshi ishlashini ta'minlab bermaydi. Bozor munosabatlari ishlab chiqarishga raxbarlik qiluvchilardan bilim va mahorat talab etadi, muvaffaqiyatli rivojlanib bozorda o'z o'rnini topishi, uni saqlab qolish uchun o'zining ichki dunyosini o'zgartirishi, mulkka egalik qilish hissini, undan unumli foydalanishga bo'lgan qiziqishini oshirish kerak.

Korxonalar faoliyatini belgilovchi barcha ichki shart-sharoitlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

I. Texnikaviy shart-sharoitlar; korxonaning texnikaviy darajasi;

II. Iqtisodiy sharoitlar;

III. Tashkiliy shart-sharoitlar. Rahbarlikni tashkiliy tuzilishi-ni yaxshilash, mehnatni tashkil etish, ishlab chiqarishni tashkil etish, xo'jalik qarorlarini qabul qilib uni amalga oshirish. Bu sohadagi imkoniyatlar xali to'liq ishga solinayotgani yo'q.

IV. Ijtimoiy-psixologik sharoitlar. Bunday sharoitlar xarajat talab qilmay ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xali bu sohada inson omili: uni kasbi, malakasi, maxorati to'liq ishlatilayotgani yo'q.

Korxonalar o'zining barcha ichki sharoitlaridan birgalikda bir vao'tda foydalanib oldiga qo'ygan vazifalarni bajarishi mumkin. **Korxonalar o'z faoliyatida tashqi muhit ta'sirida ham bo'ladi.** Ular: resurslarni topish, keltirish, kadrlarni tanlash, yollash, iste'molchilarni topish, davlat tashkilotlari bilan muloqatda bo'lish, mamlakat ichidagi iqtisodiy siyosatni bilish.

Har bir korxonalar o'zining huquqiy maqomiga ega. Unda korxonalar o'z ishini qanday boshlashi kerak, soliqlarni qachon, qancha miqdorda to'lashi zarur va xokazolar qo'rsatiladi. Davlat korxonalar uchun uning faoliyatini tartibga soluvchi, uni himoya qiluvchi, boshqaruvchi bo'g'in bo'lib yuzaga chiqadi. Davlat korxonalar faoliyatining huquqiy normalarini belgilaydi, korxonalar faoliyatiga ma'lum darajada ta'sir qo'rsatadi. Davlat yakka xokimlikka qarshi siyosat olib borib ayrim kuchsiz korxonalar raqobatda sinib qolmasligi, ayrim xil xom ashyo, maxsulotlar baxosi oshib ketmasligini oldini olib, ularni tartibga solib turadi.

Davlat pul va kredit siyosati yordamida investitsiyaga bo'lgan talab va taklif nisbatiga, uni tuzilishiga ta'sir o'tkazadi; Investitsiya talab qiluvchi tovarlar bozorida investorlarni xatti-xarakatlari strategiyasini belgilaydi. Iqtisodiyotning holatiga (inflyatsiya darajasi, byudjet tizimidagi kam'yoblik, ishlab chiqarishning tuzilish holati va xokazolarga) qarab bozorni boshqarishning u yoki bu kontseptsiyasi qo'llaniladi. Har qanday kontseptsiya quyidagi maqsadlarga qaratiladi:

1) pirovard maqsadlarga erishishga (milliy daromadni qsishi, aholini ish bilan band bo'lishi, inflyatsiya suratini pasayishi...);


2) oraliq maqsadlar (kapitalga bo'lgan talab va taklifning nisbati, stavka foizlari, pul massasining dinamikasi va boshqalar)

Shunday qilib korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi omillar quyidagilar:

- Davlat;
- Xom ashyo etkazib beruvchilar;
- Iste'molchilar;
- Raqobatchilar (bunda bozor ham korxonaga uchun raqobat muhiti bo'ladi);
- Iqtisodiyotning xolati;
- Iqtisodiy qsish;
- To'lov balansi;
- Axolini ish bilan bandlik darajasi;
- Texnik va texnologik muhit;
- Iqtisodiy;
- Siyosiy;

2-chizma.

Korxonaga faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi muhit (makromuxit) omillari



Asosiy iboralar va tushunchalar

1. **Bozor** - bu tovar ayirboshlash sohasi bo'lib, bunda tovarlarga bo'lgan talab, taklif va ularning bahosi shakllanadi. Bozorning amal qilishi ikki asosiy qonunga bo'ysinadi: qiymat qonuni, hamda talab va taklif qonuniga.

2. **Bozor iqtisodiyoti** - bu bozor munosabatlariga asoslangan xo'jalik hayotini ifodalovchi tashkilot, tizim va holat.

3. **Bozor munosabatlari** - tovar muomalasi, ya'ni tovarni pulga, pulni tovarga ayirboshlash yo'li bilan ishlab chiqaruvchilarni daromad olishdagi manfaatdorligiga asoslangan iqtisodiy munosabatlardir. Bozor munosabatlari uchun tovar ishlab chiqaruvchilarni mustaqilligi erkinligi, bahoni erkin, ixtiyoriy shakllantirish, ishlab chiqaruvchilar raqobati va ularni iste'molchiga yqnaltilganligi xos bo'ladi.

4. **Pozitiv iqtisodiyot** - iqtisodiyotni bor bo'lgan (bo'ladigan) haqiqiy holatini o'rganadi va sub'ektiv ravishda iqtisodiyotga baho berishdan ozoddir.

5. **Normativ iqtisodiyot** - sub'ektiv shaxsiy fikrlashlar asosida ma'lumotlar beradi; u nima bo'lishi kerakligini qo'rsatadi.

6. **Aralash iqtisodiyot** - bu erkin bozor iqtisodiyotidir. Bunday tizimda iqtisodiy qarorlar uy xo'jaliklari, korxonalar tomonidan ularni bozordagi o'zaro aloqadorligi, bir-biriga ta'siri jarayonida davlat aralashuvisiz qabul qilinadi.

7. **Bozor kon'yukturasi** – ma'lum davrda shakllangan bozor holati (baho darajasi, talab hajmi, xaridorlarning mavjudligi va x.k.).

8. **Korxon**a - mehnatkashlar mulkidan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqarib, uni iste'molchiga sotadigan yoki sanoat xarakteridagi turli xil xizmat ishlarini bajaradigan yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik sub'ektidir.

9. **Marketing** - bu talab va ehtiyojni yo'li bilan qondirishiga qaratilgan kishilar faoliyatini bir turidir.

10. **Sanatsiya** - korxonalarni inqirozga yuz tutayotgan vao'tida moliyaviy-texnikaviy yordam qo'rsatish.

11. **Multiplikator** - bilimlarni tarqatish, o'qitish.

12. **Tantema** - (frantsuz. - ulush, qism) korxon va banklarning sof foydasi hisobidan olinadigan, asosan, boshliqlarga hamda firmaning yuqori tabaqa xizmatchilariga to'lanadigan qo'shimcha haq, mukofot.

13. **Imidj** - obrq, tashqi qo'rinishi.

14. **Mentalitet** - bilimlarning o'rtacha darajasi.

Nazorat savollari

1. Korxonalar turlari va ularning vazifalari.
2. Korxonalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

III-BOB. KORXONANING ISHLAB CHIQUARISH VA ASHKILIY TUZILISHI


3.1. Korxonaning umumiy va ishlab chiqarish tuzilishi

Sanoat korxonasi (birlashmasi) umumiy, ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilishga egadir. **Korxonaning umumiy tuzilishi** ishlab chiqarishning tuzilishini va mehnatkashlar jamoasiga xizmat qo'rsatuvchi bo'limlarni o'z ichiga oladi. Xizmat qo'rsatish bo'limlariga: turur joy, kommunal xo'jalik, maktabgacha bollalar bog'chasi, yaslilar va sog'liqni saqlash muassasalari, dam olish uylari, sanatoriylar, klublar, madaniyat saroylari, o'qo'v yurtlari va boshqalar kiradi.


1. Korxonaning umumiy yoki tashkiliy tuzilmasi – butun korxonaning bo'limlarining ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatini boshqarishga qaratilgan bo'limlar tarkibidan va ularni o'z vazifalarini bajarish bo'yicha bog'liqligidan iboratdir. Quyidagi 3-chizma «O'zdonmahsulot» davlat aktsiyadorlik korporatsiyasi boshqaruvining tuzilmasini qo'rsatadi.

3-chizma.

«O'zdonmahsulot» davlat-aktsionerlik korporatsiyasi boshqaruvining takomillashtirilgan tashkiliy tuzilmasi



Marketing faoliyatiga yqaltirilgan korxonani tashkil etilishi



Odatda korxonona biznes-rejasiga asosan tashqaridan moliyaviy mablag'lar olish zarur bo'ladi, shunda har bir rahbar xodim haqida ma'lumot berish kerak. Korxonani (balkim Sizning korxonangizni) moliyalashtirish to'g'risida bir qarorga kelishda kreditor

rahbar-xodimlarning malakasi va tajribasiga ishonadi. SHuning uchun aniq turdagi korxonalarahbarlarining, uning muovinarining ismi va familiyasi, ma'lumoti, ish tajribalari, mansabi bo'yicha shu korxonadagi vazifalari to'g'risida axborot tayyorlab qo'yilishi kerak bo'ladi.


Bundan tashqari korxonaga qancha xizmatchi kerakligini bilish va ularni yollash uchun o'z faoliyatini yaxshilab, sinchiklab o'rganib qo'yishi zarurdir. SHtatdagi xodimlar r-qyxati tayyor bo'lgandan sqng korxonaning tashkiliy tuzilishini yoritish lozim. Bunda kim kimga bo'ysunishi kerakligi pog'onasi qo'rsatiladi.

Bu ma'lumotlar, birinchidan, tashqaridagi korxonalar faoliyati bilan qiziquvchilarga kerak bo'ladi. Ikkinchidan korxonaning o'z xodimlari uchun ham kerak bo'lib qoladi. Ularni bunday axborotlar qiziqtirib qolishi mumkin.

Masalan, oshxonalar garniturlari, uxlash uchun garniturlar, kofe ichish uchun stolchalar, jurnal uchun stolchalar ishlab chiqaruvchi xorijiy «Payn» kompaniyasining tashkiliy tuzilishi quyidagichadir:

5-chizma

«Payn» kompaniyasining tashkiliy tuzilmasi




«Payn» kompaniyasining har bir sotuvchiga to'g'ri keladigan yillik sotish hajmi 200000 dollar bo'lib, umumiy bir yildagi mahsulot sotish miqdori 680 ming dollarni tashkil etadi.

Ishlab chiqarishning tuzilishi – korxonalar tsexlarining tarkibi, soni, joylashish tartibi, tsexlararo mehnat taqsimotini va ularning mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi uzviy aloqadorligi bilan xarakterlanadi

6-chizma esa Toshkentdagi ochiq turdagi «Qizil tong» tikuvchilik xissadorlik korxonasining tashkiliy tuzilishini qo'rsatadi:

**Tikuv korxonasining qabul qilingan (tipik)
ishlab chiqarish tuzilishi**



Yirik korxonalarda uchastkalar tsexlarga birlashtiriladi. **Tsex - korxonaning mahsulot tayyorlashida, asosiy ishlab chiqarishga yoki korxonaga xizmat qo'rsatishda ma'lum xil jarayonlarni bajaruvchi, korxonaning ma'muriy, territorial ishlab chiqarish bo'g'inidir.** Tsex ishlab chiqarish uchastkalaridan, ular esa ish o'rinlaridan iborat bo'ladi. Tsexlar va uchastkalar asosiy, yordamchi, xizmat qo'rsatuvchi, chiqindilardan mahsulot tayyorlovchi bo'g'inlar shaklida bo'lishi mumkin. Asosiy tsexlar va uchastkalarda shu korxonaning asosiy mahsuloti tayyorlanadi. **Mashinasozlik korxonalarida** - quyuv, temirchilik-preslash, mexanika va yig'uv tsexlari, **tikuv, poyabzal korxonalarida** - bichish, tikish va pardozlash tsexlari asosiy ishlab chiqarish bo'g'inlari hisoblanadi. Turli xil sanoat korxonalarida bir xildagi tsexlar asosiy tsex yoki yordamchi tsex bo'lib qolmaydi. Ular tayyor asosiy mahsulot ishlab

chiqarishdagi ishtirokiga qo'ra ajratiladi. Masalan, mashinasozlikda asosiy hisoblangan mexanika tsexi engil va oziq-ovqat sanoati korxonalarida yordamchi tsex vazifasini bajarib – asbob-anjomlar ishlab chiqaradi; maxsus ixtisoslashgan remont korxonasida remont xo'jaligi yordamchi emas asosiy tsex deb hisoblanadi.

Xizmat qo'rsatuvchi tsex - asosiy va yordamchi tsexlar faoliyatining uzluksiz ishlashi uchun zarur sharoit yaratadi. Bular transport va ombor xo'jaligi sifatida tashkil etiladi.

Maxsus tsex va uchastkalar asosiy ishlab chiqarish chiqindilaridan xalq iste'moli buyumlarini tayyorlaydilar. Ayrim korxonalarda maxsus tsex va uchastkalar turli buyumlar va idishlar tayyorlash bilan shug'ullanadi.

Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish tuzilishining texnologik, buyumli, texnologik-buyumli turlari qabul qilingan.

I. Texnologik tarkibdagi ishlab chiqarish tuzilmasida tsexlar va bo'linmalar texnologik turdoshlik tarzida tashkil etiladi. Bunda har qaysi tsex bo'linmalar umumiy texnologik jarayonining ayrim qismini bajarishga ixtisoslashgan bo'ladi. Masalan, **mashinasozlik korxonalarida:** quyuv, mexanik, yig'uv tsexlari, frezerlik, tokarlik, parmalash bo'g'inlari; **to'qimachilik korxonalarida:** yigiruv, tikuv, pardozlash tsexlari shakllangan. **Bunday korxonalarda tsexlarni texnologik ixtisoslashishi boshqarishni osonlashtiradi.** Lekin, har qaysi ishlab chiqarish bo'g'inida ko'p turli mahsulotlar ishlab chiqariladi, bir mahsulot ishlab chiqarishdan boshqalariga o'tiladi, jihozlarni qayta sozlashga to'g'ri keladi, natijada ish vao'tining ko'p qismi bekorga ketadi. Chunki mahsulot turini almashishida jarayonlar tarkibi va ketma-ketligi o'zgaradi, tsex ichidagi uzatish jarayonlarining uzunligi, davri ortadi, yqnalish tarzi buziladi, tsexlararo hamkorlik murakkablashadi.

Asosiy tsexlarni texnologik jixatdan ixtisoslashtirilganda tayyorlanadigan mahsulotlar turlari xilma-xil bo'lib, ular o'zgaruvchan bo'ladi. Albatta bunday sharoitda ishlab chiqarish unumdorligi pasayadi. Katta hajmdagi bir xil turdagi yoki cheklangan mahsulot tayyorlanadigan korxonalarda esa ishlab chiqarishni buyumli tuzilishi qo'llaniladi.

II. Korxonaning buyumli tuzilishi texnologik tuzilishiga nisbatan qator afzalliklarga ega. Bunday sharoitda ma'lum xil buyum, yoki ularning ma'lum qismlari tayyorlanadi, ular shunga ixtisoslashgan bo'ladi. Ishlab chiqarish tuzilishini bunday sharoitda ixtisoslashtirish chuqurlashadi, yangi texnikani joriy etishga, avtomatlashtirishga qulay sharoit yaratiladi, ishlab chiqarish jarayonining yqnalishi jonlanadi, potok usulini qo'llashga imkon yaratiladi, ishlab chiqarish jarayonining uzunligi, davomiyligi qisqaradi. Natijada mehnat unumdorligi oshadi, mahsulot tannarxi pasayadi.

III. Bir turli mahsulot hajmi etarlicha bo'lmagan xollarda korxonalar aralash yoki buyumli - texnologik tartibda tashkil etiladi. **Bu xolda tayyorlov tsexlari texnologik tarzda tuziladi,** qayta ishlovchi va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi tsexlar va buyumlar bo'yicha ixtisoslashadilar. Mahsulotni ko'p ishlab chiqaradigan mashinasozlik korxonalarida (tayyorlov, quyuv, temirchilik) yig'uv tsexlari odatda texnologik tartibda tuziladi. Bunday turdagi korxonalar poyabzal, tikuvchilik mahsulotlari va uy-ro'zg'or anjomlarini ishlab chiqarish sanoati korxonalarida salmoqli o'rnini egallaydi.

3.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar tuzilishini o'zgartirish (restrukturizatsiya)

O'zbekistonda iqtisodiy islohatlar davrida davlat mulkini xususiylashtirish amalga oshirildi, iqtisodiyotga rahbarlik qayta qo'rildi, yangi raqobatbardosh yirik, o'rtacha va mayda korxonalar va mikrofirmalarni yaratish va rivojlantirish ishlari amalga oshirildi. Lekin xali xo'jalik yuritishning hozirgi sharoitlariga moslasha olmagan, kam rentabelli yoki zarariga ishlayotgan korxonalar xali ko'p. SHuning uchun ularni davolash va o'z faoliyatini muttasil barqaror rivojlantirib borishga o'rgatishimiz zarur. Bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlariga korxonalarni o'rgatish uchun ularni tuzilishini qayta qurish lozim. Bunda albatta davlatning qo'llab-quvvatlashi kerak bo'ladi. **Restrukturizatsiya – korxonaning ishlab chiqarish va boshqaruv tuzilishini, kapital tuzilishini texnologik jarayonlari va boshqa tomonlarini o'zgartirishni taqozo etadi.**

Restrukturizatsiyadan maqsad, shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida ularni muvoffaqiyatli faoliyat qo'rsatishini ta'minlashdir. Restrukturizatsiya – korxonani strategik rivojlanish yo'llaridan birini tanlab olish, tashkiliy, iqtisodiy, texnikaviy chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirishni nazarda tutadi. Natijada korxonalar hozirgi og'ir iqtisodiy holatdan taraqqiyotning zarur bo'lgan darajasiga chiqib oladigan.

Restrukturizatsiyaga tegishli jarayonlarning quyidagi yqnalishlarini ajratish mumkin:

- **Huquqiy** – mulkka egalik qilish huquqini ta'minlash;
- **Nazorat faoliyati**, boshqa sub'ektlar bilan shartnomalar tuzish va boshqa munosabatlar bo'yicha huquqlarini qayta, qo'rib chiqish;
- **Moliyaviy** – aktivlar, majburiyatlar, shaxsiy kapitallar, investitsiyalarni izlab topish yo'llarini o'zgartirish;
- **Tashkiliy** – korxonaning tashkiliy bo'g'inlari va aloqalari tarkibini o'zgartirish;
- **Operatsion (jarayonli)** – ishlab chiqarish jarayonlari, texnologiya va texnikaviy qurollanish darajasini o'zgarishi.

Restrukturizatsiya ishlarini amalga oshirish mexanizmlari quyidagilar:

- 1) korxonalar holatini diagnostika qilish;
- 2) korxonalar faoliyatini sog'lomlashtirish choralarini ishlab chiqish, asoslash;
- 3) ishlab chiqarish tadbir-choralarini amalga oshirish.

3.3. Korxonalar tuzilishini takomillashtirish yo'llari

Korxonalar tuzilishiga, uning yqnalishiga, tayyorlanadigan mahsulotning yillik xajmi, turi, uning ko'p-ozligi, ya'ni ixtisoslashish darajasi xar yilgi o'zgaruvchanlik darajasi, mahsulotning xususiyatlari ta'sir qo'rsatadi. SHularga asoslangan xolda dastgohlar hamda ularning joylashishi ham belgilanadi.

Odatda mahsulot turi kam bo'lgan korxonalar tuzilishi oddiy bo'ladi. Engil sanoat, yog'ochni qayta ishlash va qurilish materiallari sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishning nisbatan oddiy texnologiyasi qo'llaniladi, murakkab bo'lmagan mahsulot ishlab chiqariladi. Murakkab mahsulot tayyorlaydigan mashinasozlik zavodlarining tuzilishi o'ziga yarasha murakkab bo'ladi.

Korxonalar tuzilishi o'zgaruvchan bo'lib, unga bozor talabi, ijtimoiy mehnat taqsimotini chuqurlashuvi, texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish hamda mehnatni tashkil etish darajasi, mutaxassislar xizmat qo'rsatish kabi omillar ta'sir etadi.

Ishlab chiqarish tuzilishini tanlash yoki yaxshilash vazifasi yangi korxonalar qurish, mavjud korxonalar qayta qurollantirish, ularni yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga tayyorlash va ixtisoslashish darajasini oshirish, davrida xal etiladi. Korxonalar tuzilishini loyihalashtirishda ishlab chiqarishni kombinatsiyalashtirish ko'zda tutiladi, natijada xom ashyodan kompleks foydalanish imkoniyati yaratiladi. **Maqsad** – yuqori unumdorlikka ega bo'lgan texnikani joriy etish, undan samaraliroq foydalanish, ma'muriy boshqarish, yordamchi va xizmat qo'rsatuvchi ishlar salmog'ini, quvvat birligiga to'g'ri keladigan kapital qo'yilma miqdorini kamaytirish, yuqori malakali kadrlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishdir.

Sanoat korxonasi tuzilishining o'zgarishiga ixtisoslashish darajasi katta ta'sir qo'rsatadi. Ixtisoslashtirilgan korxonalarda cheklangan turdagi mahsulot ko'p hajmda ishlab chiqariladi, bu esa buyumli, o'zaro bog'langan tsex va bo'linmalar tuzish imkoniyatini kengaytiradi.

Yirik korxonalarda, ixtisoslashtirilgan xizmat qo'rsatuvchi korxonalar, ishlab chiqarish bo'g'inlarini tashkil etish imkoniyati yaratiladi, u o'z navbatida yordamchi tsexlar tuzilishiga ta'sir qo'rsatadi.

Asosiy ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish, xizmat qo'rsatish va ishlab chiqarish vositalarini tayyorlash ishlarining hajmini oshirishga olib keladi. Bozor sharoitida korxonadagi yordamchi jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish, yordamchi tsexlarni ixtisoslashish darajasining sustligi ularga xizmat qiluvchi maxsus ixtisoslashtirilgan korxonalar tashkil etishni taqozo etadi.

Korxonada ishlab chiqarish bo'g'inlarini bir-biriga mutanosib (proportional) bo'lishi. Ishlab chiqarish tuzilishini optimal darajada ekanligini qo'rsatadi.

Kichik korxonalarda ishlab chiqarish tuzilishini takomillashtirish, ularni tsexsiz tuzilishga o'tish bilan bog'liq bo'ladi va ixtisoslashish darajasini oshirib, boshqarish harajatlarini kamaytiriladi.

SHunday qilib ishlab chiqarish tuzilishini takomillashtirish yo'llari quyidagilardir:

- Tsexlar va ishlab chiqarish uchastkalari tarkibini, ularni yirikligi, quvvatini to'g'ri tanlash;
- Korxonani yaratish bo'yicha general (bosh) loyixaga qo'ra tsex va omborlar ma'lum tartibda, ketma-ketlikda joylashtirilishi zarur;
- Yuk tashuvchi transport vositalari ishlab chiqarishni normal borishiga xalol bermagan xolda korxonalar ichida eng qisqa masofada harakat qilishini ta'minlash, marshrut sxemasini tuzish;

- Tarmoqlarda ishlatiladigan xom'ashyo, materiallar xususiyatini hisobga olish;
- Buyumlarning konstruksiyasini murakkabligi yoki oddiyligini hisobga olish;
- Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperativlashtirish shakllarini inobatga olish.

Korxonalar - uzoq davr xizmat qilishi, ishlab chiqarish faoliyati sharoitlarini o'zgartirishi, fan-texnika yangiliklarini ishlab chiqarishga qo'llash, yangi xil mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirishi, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va kengaytirishi natijasida uning ishlab chiqarish tuzilishi ham albatta o'zgaradi. Bunda uni yaxshilashning asosiy yo'llari quyidagilar:

- Tsex va uchastkalar soni va yirikligini o'zgartirishda optimallikni ta'minlash;
- Asosiy, yordamchi va xizmat qo'rsatuvchi tsexlar orasida quvvatning, xodimlar sonining ratsional darajada bo'lishini ta'minlash;
- Korxonalar faoliyatini rejalashtirishda optimallikni ta'minlash;
- Ixtisoslashtirish va kooperativlashtirishni ratsional tashkil etish.

Hozirgi davr sharoitida ko'pgina korxonalarining tuzilishida bozor munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan yangi bo'limlar: yangi mahsulot ishlab chiqaradigan tajriba tsexlari, ishlab chiqarishni takomillashtirish uchun yangi mashina va uskunalarni tayyorlanadigan avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash-tirish tsexlari, marketing markazi, tashqi iqtisodiy faoliyat bo'limlari tashkil etilmoqda.

Nazorat savollari

1. Korxonalar tuzilishi haqida axborot.
2. Korxonaning ishlab chiqarish tuzilishiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Bozor sharoitida korxonalar tuzilishini o'zgartirish yo'llari va mexanizmlari.

IV-BOB. KORXONADA ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL ETISH

4.1. Ishlab chiqarishning ijtimoiy xayotdagi o'zni va iqtisodiy ahamiyati

Keng ma'noda ishlab chiqarish deganda kishilarning to'g'ridan to'g'ri moddiy ne'matlarga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan har qanday faoliyati tushuniladi. Kishilik faoliyatining turli hil tomonlari, masalan chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanishi, erga ishlov berish, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish uchun xom'ashyoni qayta ishlash. Xozirgi zamon fanida "ishlab chiqarish" tushunchasi turli xil moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish faoliyati bilan kifoyalanib qolmay, balki fuqarolar, butun jamiyat uchun davlat darajasidagi xizmatchilarini, bankiralari, advokatlari, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, olimlar va boshqalarni turli xildagi xizmat qo'rsatish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy nuotai nazardan ishlab chiqarish ishtimoiy takror ishlab chiqarishning quyidagi to'rtta bosqichidan biri hisoblanadi: Ishlab chiqarish-taqsimlash-ayirboshlash-iste'mol.

Ishlab chiqarish takror ishlab chiqarishning boshqa bosqichlariga qaraganda birinchi o'rinda turadi va xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Ishlab chiqarishni jamiyatni rivojlanishidagi eng asosiy omil ekanligini birinchi bor dunyo iqtisodiyotida ingliz siyosiy iqtisodi klassiklari bo'lgan U.Petti, A.Smit, D.Rikardolar va frantsuz fiziokratlari F.Kene, A.R.Tyurgo, V.Mirabo, P.Dyupon, De Nemurlar ajratgan.

Iqtisodiy faoliyatning maqsadi nima deganda - bu umuman narsalarni ishlab chiqarishni ko'paytirish emas, balki foydali, qimmatga ega bo'lgan (tsennost veshchey) ne'matlari, ya'ni kishilar nimani qadrlasalar shuni ishlab chiqarishni ko'paytirish zarur. Ne'matlarni qiymati esa ayirboshlash jarayonida yuzaga chiqadi.

Ayirboshlashda turli xil qiymatga ega bo'lgan narsalar ayirboshlanadi, chunki bozordagi ishtirokchilar ayirboshlash uchun bozorga keltirilgan buyumlarning foydaliligini turlicha baxolaydilar. Har bir tomon o'zi uchun uncha qiymatga ega bo'lmagan narsalarni qiymati ko'proq bo'lganlariga ayirboshlash qiladilar.

Xuddi ana shunda ayirboshlash unumdorligining manbai qo'rinadi. Bunday nazariya bilan ishlab chiqarishni boylik yaratishdagi ahamiyati inkor qilinmaydi. Ishlab chiqarish, so'zsiz boylikni ko'paytiradi, lekin yaratilayotgan moddiy ne'matlar jamiyat talabini qondira olgan, ya'ni iste'molchilar tomonidan tan olingan, qabul qilingan miqdori darajasida boylikni ko'paytirgan bo'ladi. Aks xolda ishlab chiqarish foydasiz, ma'nosizdir.

Bozor xo'jaligi sharoitida buyumlarni foydaliligini iste'molchi baxolaganligi uchun ayirboshlash jarayoni unumdor hisoblanadi. Bundan tashqari ayirboshlash resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi, ishlab chiqaruvchilarning jamiyat uchun zarur bo'lgan maxsulotlarni kerakli miqdorda ishlab chiqarishga yqaltiradi.

4.2. Ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari

Bozor iqtisodiyotida korxonalar ishlab chiqarishni qanday tashkil etishi zarur degan fundamental savol 3 qismdan iborat:

1. Alohida tarmoqlar o'rtasida resurslar qanday taqsimlanishi kerak?
2. Har bir tarmoqdagi qaysi firmalar ishlab chiqarishni tashkil etishi lozim?
3. Har bir firma resurslarni qanday kombinatsiyasini, qanday texnologiyalarni qo'llashi zarur?

Mamlakat iqtisodiyotini jadal suratlarda rivojlanishi sanoat tarmoqlari va turli xildagi korxonalar o'rtasidagi mehnat taqsimoti jarayonlari va ishlab chiqarish kuchlarini zarur bo'lgan sohalarda umumlashtirilishi muxim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday jarayonlardagi tarkibiy o'zgarishlar kuchayib bormoqda. **Mehnat taqsimoti** ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperativlashtirishda yaqqol qo'rinadi. **Mehnatni umumlashtirish** esa ishlab chiqarishni kontsentratsiyalashtirish va kombinatlashtirishda ifodalanadi. **Ishlab chiqarishni tashkil etishning bunday shakllari:**

1. kontsenratsiyalashtirish;
2. ixtisoslashtirish va kooperativlashtirish;
3. kombinatlashtirish.

Ular o'zaro bog'liq bo'lib, jamiyat ixtiyoridagi barcha resurslardan, korxonalar mulkidan foydalanishdagi munosabatlar darajasini ifodalaydi.

Kontsentratsiyalashtirish – mayda, bir xil, o'xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar yiriklashtirishdir. Ishlab chiqarishni yiriklashtirish agregatlar, dastgohlar quvvatini oshirish, o'xshash texnologik jarayonlar quvvatini oshirish, korxonalar yirikligini oshirish shakllarida olib boriladi.

Masalan, **agregatlar quvvatini** oshirish – elektrenergetika, metallurgiya, kimyo, yoqilg'i, qurilish materiallari tarmoqlarida sezilarli darajada namayon bo'ladi.

Texnologik jarayonlar bo'yicha kontsentratsiyalashtirishga – metallurgiyada – domna pechlar, pqlat erituvchi pechlar, prokat mahsulotlari ishlab chiqarish; **To'qimachilikda** – yigirish, to'qish, bo'yash. **Mashinasozlikda** - quyuv, mexanik ishlov berish, yig'uv jarayonlari misol bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kontsentratsiyalashtirish, uning samaradorligini yirik korxonalar bog'liqligi, korxonalar yirikligi (yirik, o'rtacha va mayda korxonalar), kontsentratsiyalashtirish darajasini aniqlash to'g'risidagi avvalgi tushunchalar anchagina o'zgargan.

Mayda korxonalar ham hozirgi zamon texnika va texnologiyasi bilan qurollangan bo'lsa yirik korxonalar barcha afzalliklarini o'zida tqplagan bo'ladi. Bunday korxonalar optimal yiriklikdagi korxonalaridir...

Mikrofirma va kichik korxonalar afzalligi haqida biznes va tadbirkorlik fanida batafsil aytilgan.

Ixtisoslashtirish - bu alohida ishlab chiqarish uchastkalari, tsexlar, korxonalar tarmoqlarni konstruktiv va texnologik jixatdan o'xshash bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga yoki jarayonlarni bajarishga kqchirishdir.

Sanoatda, uning turli xil korxonalarida ixtisoslashtirish quyidagi shakllarda rivojlanadi:

- buyumlar bo'yicha ixtisoslashtirish;
- qismlar, agregatlar bo'yicha ixtisoslashtirish;
- texnologik jarayonlar bo'yicha ixtisoslashtirish.

Bir korxonalar miqyosida tugullangan holatda mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish - unga doimo xizmat qiluvchi, zarur bo'lgan qismlarni etkazib beruvchi ixtisoslashgan korxonalar tashkil etilishini taqozo etadi. Masalan, sharikli podshibniklar

ishlab chiqarish, porshen, karbyurator, reduktor, quymalar, extiyot qismlar, televizor transformatorlari, televizorga futlyarlar, kondensatorlar, yuqori bosimli nasoslar, divan-krovatlar uchun oyoqlar va boshqalarni ishlab chiqarishlar. Bunday o'zaro doimiy ishlab chiqarish aloqadorligiga ega bo'lgan korxonalarda **kooperativlashtirish mavjud bo'ladi**. SHuning uchun kooperativlashtirish shakllari ham ixtisoslashtirish shakllariga mos ravishda bo'ladi. Sanoat tarkibidagi korxonalar soni qancha ko'payib borsa kooperativ aloqadorlik shuncha ko'p rivojlangan bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xildagi mulk shakllari va shunga yarasha kichik va xususiy korxonalarni ko'plab yaratilishi kooperativlashtirishni o'z-o'zidan rivojlanib ketishini ob'ektiv zarurat qilib quyadi.


Kooperativlashtirish - korxonalarning bo'sh turgan imkoniyatlari, resurslaridan to'liq foydalanish, murakkab mahsulotlarni tezroq xamkorlikda ishlab chiqarishni tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi ortadi.

Kombinatlashtirish – xom ashyo resurslaridan to'liq foydalanish, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlab iste'molga yaroqli mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etish va xom ashyo materiallarni ketma-ket tartib bilan qayta ishlashni tashkil etish demakdir.


Bir kombinat tarkibida turli xil sanoat tarmoqlariga mansub bo'lgan mustaqil ishlab chiqarishlar tashkil etiladi, umumlashtiriladi. Kombinatlarda boshqaruv, kommunikatsiya (suv, gaz, par, elektrenergiya, transport xizmati) sistemalari birlashgan bo'ladi. Bunda ishlab chiqarish texnologik jixatdan uzviy bog'liq bo'ladi. Masalan, kombinatlashtirish buyumlarga, kimyoviy va termik ishlov berish jarayonlari yuqori bo'lgan sharoitda zarur bo'ladi.

1. Xomashyoni ketma-ket qayta ishlashga asoslangan kombinantlar. Misol uchun metallurgiya kombinati, non ishlab chiqarish kombinati, tqkimachilik kombinati va boshqalar. Masalan, metallurgiyada avval temir rudasi eritiladi, undan chqyan, keyin pqlat va prokat mahsuloti olinadi. To'qimachilikda – yigiruv, to'qo'v, bo'yoq ishlari birgalikda ketma-ket olib boriladi.

2. Xomashyoni kompleks (to'liq) qayta ishlashga asoslangan kombinatlar. Masalan, kons-kimy o kombinati, go'sht-sut ishlab chiqarish kombinati, yog'ochsozlik, tsellyuloz-pog'oz kombinati va x.k.lar. Mis rudasini eritib, undan bir qancha foydali moddalarni ajratib olish xam bunga misol bo'ladi.



Koks-kimy o sanoatida kqmirni to'liq qayta ishlab koks, koks gazi, **qattiq va suyuq kimyoviy mahsulotlar** ya'ni mqm, ammiak, benzol, oltinugurt olinadi; **gaz holidagi mahsulotlardan** – etilen, metan, vodorod mahsulotlari olinadi (8-chizma).



Bozor iqtisodiyotida, resurslar cheklangan sharoitda ulardan ratsional foydalanishning iqtisodiy ahamiyati ko'p jihatdan ishlab chiqarish shakllarini rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib qoladi.

Ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy rivojlanish darajasi ishlab chiqarish turlariga bevosita bog'liqdir.

4.3. Ishlab chiqarishni ratsional darajada tashkil etishning asosiy qoidalari (printsipalari)

Ishlab chiqarishni tashkil etishning shartlari quyidagilar:

1. Mehnat.
2. Tadbirkorlik qobiliyati.
3. Kapital yoki mehnat qurollari.
4. Tabiiy resurslar-foydali qazilmalar, suv, havo, o'rmonlar va x.k.

Boshqacha qilib aytsak mehnat buyumlari va mehnat qurollari-bu ishlab chiqarish vositalaridir. Ishlab chiqarish vositalari va mehnat ishlab chiqarish kuchlari tushunchasini hosil qiladi.

SHunga asosan **ishlab chiqarishni tashkil etish deb** ma'g'lum vao't mobaynida ishlab chiqarishning barcha elementlaridan (resurslaridan) unumliroq foydalanish usullar majmuasiga aytiladi.

Mashxur iqtisodchi A.Marshall yuqoridagi ishlab chiqarish omillari qatoriga ishlab chiqarishni tashkil «etish» omilini qo'shdi.

A.Y. SHumpeter 1912 yili o'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» kitobida bu omilni hozirgi zamon tilida - tadbirkorlik deb atadi. (S.N. Ivashkovskiy Mikroekonomika. Moskva «Delo», 1998. 373s).

Ishlab chiqarish faoliyatining pirovard natijalari - mahsulot xajmini ko'payishi, mehnat unumdorligini, foyda va daromadni qisishi, mahsulot sifatini yaxshilanishi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishi va xodimlarning mehnat haqi to'lovlarini ko'payishi, ijtimoiy ahvolini yaxshilanishi eng avvalo **ishlab chiqarishni tashkil etish darajasiga bog'liq**. Korxonada a'lo sifatdagi texnologiya, malakali ishchi-xizmatchilar, kerakli xomashyo materiallar bo'lib ulardan foydalanib mahsulot ishlab chiqarishni yaxshi tashkil etilmasa resurslar isrof bo'ladi, qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi.

SHuning uchun ishlab chiqarishni tashkil etish moddiy ne'matlar yaratishning eng muhim shartlari biri bo'lib yuzaga keladi.

Ishlab chiqarishni oqilona yoki ratsional darajada tashkil etishning eng muhim hozirgi zamon usullari quyidagilar:

1. Mahsulotni o'xshash, bir xil turdagilarini ishlab chiqarishni cheklash va ko'plab, ommaviy ravishda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
2. Ishlarni bajarishni ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida (fazalarida) bir vao'tning o'zida olib borishni ta'minlash, ya'ni paralellik;

Paralellik - buyumlarni ishlab chiqarishni operatsiyalar bo'yicha bir vao'tda bajarishdir. Bunday sharoitda mahsulot ko'plab ishlab chiqariladi.

Uzluksizlik sharti - ishlab chiqarish jarayonlarini tqxtovsiz tanaffussiz, uzilishlarsiz borishini ifodalaydi.

3. Ishlab chiqarish uchastkalari, tsexlardagi ishlarni mutanosibligini (propartsionalligini) ta'minlash;

Proportsionallik printsiipi - ishlab chiqarish jarayonlari-ning hamma ishlab chiqarish bo'g'inlari (asosiy va yordamchi tsexlar, uchastkalar, uskunalar gruppasi va ish joyining ishlash qobiliyatini (vao't birligida mehnat unumborligining nisbati) bir-biriga o'zaro aniq mos kelishligidir. Agar bu qoidalarga amal qilinmasa, nomutanosibliklar natijasida «tor joylar» yuzaga keladi, bu esa o'z navbatida mahsulot ishlab chiqarishning ko'payishiga tqsqinlik qiladi.

Proportsionallik sanoat korxonalarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish asosida ham ta'minlanadi.

4. Ishlab chiqarish jarayonida mehnat buyumlari xarakatini tazlashtirish;
5. **Sinxronlash – bu operatsiyalarni vao't jixatdan tengligini ta'minlashdir.**

Ishlab chiqarish jarayonini sinxorlash quyidagi tadbirlardan iboratdir:

a) og'ir ishlarni bajarishda vao'tini qo'shimcha ish joylari tashkil etib operatsiyalar tenglashtirish;

b) mehnat buyumlarini operatsiyalararo va liniyalararo tashish vao'tlarini tenglashtirish;

v) ish joyiga xizmat qo'rsatishni yaxshilash va ishchilarning dam olish bo'yicha, ishlardagi tanaffuslarini tenglashtirish;

g) mehnat buyumlarining potok yo'lidagi siljishi jarayonining tugashi bilan ularni tashish vao'tlarini bir-biriga moslash.

Ushbu shartlardan xatto bittasiga rioya qilinmasa ham ishlab chiqarish jarayoni to'la sinxronlashmaydi.

6. Ishlab chiqarishdagi **mq'tadillik** (ritmiylik) teng vao't ichida bir xil miqdorda mahsulot ishlab chiqarish yoki aksincha. Ishlab chiqarishning mut'tadilligi avtomatlashtirish uchun sharoit yaratadi.

Bir me'yorda mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish

Ishlab chiqarish jarayonini oqilona tashkil etish bir me'yorda va uzluksiz mahsulot ishlab chiqarishga sharoit yaratadi. Sanoat korxonalarining bir me'yorda ishlashi, uskunalardan to'g'ri foydalanish, ish bilan ta'minlash va moddiy texnika ta'minotini yaxshilashga qaratilgan.

Korxonalarni bir me'yorda ishlashi muhim xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega. Unga erishishdan asosiy maqsad jamiyatni turli mahsulotga bo'lgan ehtiyojini o'z vao'tida qondirish.

Korxonaning hamma mablag'laridan to'liq va samarali foydalanish va hamkorlikdagi korxonalarining, transport va savdo shoxobchalarining ishlab chiqarish mablag'laridan samarali foydalanishdan iboratdir. Sanoat korxonalarining (tsex va ishlab chiqarish bo'limini) bir me'yorda ishlashi – ishlab chiqarish mablag'idan to'liq foydalanib, avvaldan tuzilgan grafikka rioya qilib, korxonani hamma bo'limlari tomonidan bir me'yorda ma'lum turdagi va sifatdagi mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarishdir.

Korxonalarining hamma bo'g'inlarining bir me'yorda ishlashi, tayyor mahsulot ishlab chiqarishga va uni realizatsiya qilishga sharoit yaratishi, shuningdek mahsulot tayyorlashda rejaga amal qilib, iste'molchilarning ehtiyojini qondirish va mahsulotni o'z vao'tida jnqatishining muhim omilidir.

Korxonani bir me'yorda ishlash koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_m = 1 - \frac{\sum_1^n Q_x}{\sum_1^n Q_p} \text{ yoki } K_m = 1 - \frac{\sum_1^n A_{p\delta}}{Q_p}$$

bu erda: K_m – bir me'yorda mahsulot ishlab chiqari koeffitsienti;

Q_x – ma'lum davrda (kun, soat) reja-darajasida, haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

Q_p – reja bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi;

$A_{p\delta}$ – reja bajarilmagan kunlardagi (sutkadagi) mahsulot xajmi.

Masalan, korxonaning bir dekada davridagi mahsulot ishlab chiqarish xajmi quyidagi jadvalda berilgan.

2-jadval

		Dekada kunlari									
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
Reja	208	20	22	20	21	22	20	20	20	21	22
Fakt	173	15	18	16	17	20	20	22	20	17	18

SHu ma'lumotlar asosida mu'tadillik darajasi

$$K_{.m} = 1 - \frac{27}{208} = 1 - 0,13 = 0,87 \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Sanoat korxonalarida texnologik va boshqa jarayonlarni ilg'or, ayniqsa potok usullarida tashkil etilganda mahsulotni bir me'yorda, ritmda ishlashiga imkoniyatlar kengayadi.

Korxonani mu'tadil, bir maromda ishlashini ta'minlash shartlari quyidagilar:

- Ishlab chiqarish jarayonitng to'g'ri rejalashtirish;
- Ishlab chiqarishni o'z vao'tida va to'liq texnikaviy tayyorlash;
- Ishlab chiqarishni moddiy-texnika resurslari bilan aniq va bir me'yorda ta'minlab turish

- Mashina va dastgohlarni o'z vao'tida reja bo'yicha ta'mirlash;
- Ishlarni bajarishni o'z vao'tida uchyotga olish va nazorat qilish;
- Ishlab chiqarishni va mehnatni ratsional tashkil etish;
- Malakali kadrlarni doimiy ishlar bilan ta'minlash;
- Mahsulot sifatini o'z vao'tida texnik nazoratdan o'tish;
- Ishlab chiqarish jarayonida uzluksizlikni ta'minlash.

Bunda ishlab chiqarishni avtomatlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish uchun quyidagilarni ta'minlash zarur.

1. O'rnatilgan texnologik jarayonlarga va ular orasidagi bog'liqlikni ta'minlashga qattiq rioya qilish;
2. Uchastkalar, tsexlar o'rtasida aniq mehnat taqsimotini amalga oshirish. Buning ishlab chiqarish ixtisoslashgan bo'lishi lozim.
3. Mehnat buyumlarini ishlab chiqarishdagi xarakatini belgilangan maromda va tartibda borishiga rioya qilish;
4. Dastgohlar, ishchilarni ratsional joylashtirish ular o'rtasida ishlarni aniq taqsimlash va ishchilarga xizmat qo'rsatish.

Ishlab chiqarishning qo'shimcha yashirin bo'sh qolgan imkoniyatlarini ishga tushurish, fan-texnikaning yangi yutuqlaridan foydalanish faqat ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish yo'li bilan ta'minlanishi mumkin.

Ishlab chiqarishni tashkil etishni yaxshilash, takomillashtirish yo'llari bu ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish, kombinatlashtirish, unifikatsiyalash, normalashtirish ilg'or usullardan foydalanish va boshqalar.

4.4. Korxonada ishlab chiqarish jarayonlari

Korxonada faoliyatining asosini ishlab chiqarish, jarayoni tashkil etadi.

Qazib chiqarish sanoatida mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bo'lib mineral hom'ashyoni qazib chiqarish va yoqilg'ini tabiiy zahiralardan olish; qayta ishlash sanoatida - homashyoni qayta ishlab iste'molga yaroqli mahsulot ishlab chiqarish.

Asosiy mahsulot ishlab chiqarishdagi ishtirokiga qarab ishlab chiqarish jarayoni **asosiy jarayonlarga, yordamchi va xizmat qo'rsatuvchi jarayonlarga ajratiladi.**

Asosiy jarayonlarga to'g'ridan to'g'ri xomashyo; materiallarni rejada qo'rsatilgan turdagi tayyor mahsulotga aylantirish jarayonlari kiritiladi.

Masalan, mashinasozlik korxonalarida - chqyan, pqlat eritmalaridan quyilgan ma'lum xil shakldagi buyumlar, ularga mexanik ishlov berish, termik ishlov berish, shtampovka, bo'yash va boshqalar.

g'rdamchi va xizmat qo'rsatuvchi jarayonlarga asosiy ishlab chiqarishga xizmat qo'rsatuvchi jarayonlar kiradi. Masalan, asbob-anjomlar, uskunalar, energiya bilan ta'minlash, transport xizmati qo'rsatish, ya'ni barcha xizmatlar va shuningdek ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan xizmat ishlari - ombor xo'jaligi, loybaratoriya xizmati, transport xizmati, ta'minot va tayyor mahsulotni iste'molchiga etkazish (sotish) xizmati, jarayonlarni nazorat etish va boshqalar.

Asosiy ishlab chiqarish bir qancha fazalarga bo'linadi:

1. Tayyorlov
2. Qayta ishlash
3. Yig'uv (ishlov berish) yoki tayyor mahsulot ishlab chiqarish.

Metallurgiyada – domna, marten va prokat ishlab chiqarish jarayonlari; poyafzal fabrikalarida - bichish va tikish (yig'im) jarayonlari va shunga o'xshashlar.

Masalan kabel ishlab chiqarish korxonasida: **Birinchi** - tayyorlov jarayoni bo'lib kabellarni tortish, izolyatsiya qilish; **Ikkinchi** - qayta ishlash jarayoni - o'rash va bronirovka qilish. **Uchinchi jarayon** - shlang kiygizish, sinab qo'rish ishlari amalga oshiriladi.

Har bir fazalar o'z navbatida xususiy jarayonlardan tashkil topadi. Ular mahsulot tayyorlash bo'yicha nisbatan tugallangan jarayon hisoblanadi. Masalan, mashinasozlikda quyuv tsexida - metalni eritish, er formalarini tayyorlash, unga quyish, sterjenlar tayyorlash va h.k.

Xususiy jarayonlar o'z navbatida texnologik operatsiyalarga bo'linadi.

Texnologiya operatsiyalar deb ishlab chiqarishning bir ob'ekti - detal va uzal, buyum ustidan bir yoki bir necha ishchilarni bir ish joyida bajarayotgan ishlab chiqarish jarayonlarning bir qismiga aytiladi. Texnologiya jarayonlar bilan bir qatorda ayrim korxonalarda tabiiy jarayonlar ham amalga oshiriladi. Bunda inson ishtirokisiz, lekin uning nazoratida tabiiy kuchlar ta'sirida, masalan vino, pivo ichimligini achitish, xamirni achitish, issiq buyumlarni ochiq havoda sovutish, yog'ochlarni tabiiy quritish, metall buyumlarni emirilishi va boshqalar.

Texnologik jarayonlar va tabiiy jarayonlar birgalikda mahsulot ishlab chiqarishning texnologik jarayonini tashkil etadi.

Har qanday korxonada o'z xolicha ishlab chiqarish kuchlarini bir butun ishlab chiqarish jarayonida bargalikda amal qilishini nazarda tutadi. SHuning natijasida yangi qiymat paydo bo'ladi (quyidagi chizmaga qarang).

Yangi qiymatni yaratish korxonada aktivlarini ma'lum xil qismlari qiymatini, ularni emirilishiga yarasha asta-sekin pirovard mahsulot qiymatiga qo'shib borishi bilan amalga oshiriladi. **Yangi mahsulot qiymatini yaratish quyidagilarga bog'liq bo'ladi:**

- korxonada amalga oshiriladigan jarayonlarga;

- shu korxonada ishlatadigan xom ashyo, materiallar, komplekt buyumlar va xizmatlarga;
- korxonaning mehnat resurslariga (ishchi xizmatchilar sifatiga);
- har bir ishlab chiqarish jarayoni bosqichlarida ishlatiladigan texnologiyalarga;
- korxonada infra tuzilmasiga.

9-chizma

Korxonada infratuzilmasi				
Yagona ishlab chiqarish jarayoni				
Korxonaning mehnat resurslari				
Dastlabki xom ashyo, materiallar, komplekt buyumlari va tashqaridan olingan xizmatlar				
Ishlab chiqarishni tayyorlash	Mahsulot ishlab chiqarish	Mahsulotni sotish	Marke-ting va reklama	Mahsulot sotilgandan keyingi xizmatlar

Korxonada mahsulot qiymatini yaratish bosqichlari*

SHunday qilib xususan yangi qiymat korxonada ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish mobaynida tarkib topib boradi. Demak, **ishlab chiqarish jarayonlarining bosqichlari quyidagilar***

- Ishlab chiqarishni tayyorlash;
- Ishlab chiqarish;
- Tayyor mahsulotni sotish;
- Marketing va reklama;
- Mahsulot sotilgandan keyingi xizmatlar.

Natijada iste'molchi korxonada taklif etgan mahsulotni oladi. Bu erda bilishimiz kerakki, yangi qiymatni yaratilishini, mahsulotni foydali bo'lishini, iste'molchi oldindan belgilagan bo'ladi.

Yangi qiymat korxonaning ishlab chiqarish aktivlari (resurs) miqdoriga bog'liq bo'lmaydi, faqat uning har bir iste'molchi talablariga tezlik bilan ahamiyat berish bo'yicha ichki imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Demak, korxonaning vazifasi mijozlarni qidirib topish; talablarni o'rganish; talabga mos keluvchi tovarlar sifatini o'rganish, taxlil qilish va qarorlar qabul qilish, ishlab chiqarishni tashkil etish, mijozlarga tovarlarni etkazib berish, mahsulot sotilgandan keyingi xizmatlar rejasini shakllantirish va uni amalga oshirishdan iborat.

* Stroteg. Planir. Str 97

* V.S.Efremov «Strategicheskoe planirovanie v biznes sistemix». Moskva. Finpress. 200 g. st. 98-99

4.5.Mehnat buyumlarini ishlab chiqarishdagi xarakati va ishlab chiqarish davri

Mehnat buyumlarining ishlab chiqarishdagi xarakati

- Ketma-ket xarakati
- Paralell xarakati
- Aralash xarakati turlarda bo'ladi.

Buyumlarning ishlab chiqarish jarayonidagi xarakat turlari korxonaga tipiga va undagi ishlab chiqarishni tashkil etish usullariga muvofiq ravishda ishlatiladi.

4-jadval

Ishlab chiqarishni tashkil etish			
	Tiplari	Usullari	Turlari
1	ommaviy	potokli	paralell
2	seriyali	gruppali	ketma-ket
3	Yakka buyurtmali ishlab chiqarish tipi	birlamchi	aralash

Ishlab chiqarishning ommaviy tipi. Ommaviy ishlab chiqarish bir turdagi mahsulotni nisbatan uzluksiz, doimiy ravishda ko'plab mahsulot ishlab chiqarishi, uni takrorlanib turishi va uchastkalarini ixtisoslashganligi bilan xarakterlanadi.

Bunday korxonalar asosan engil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida mavjuddir. Korxonaga faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish ko'p jihatdan o'ziga xos turdagi ishlab chiqarishga bog'liq bo'lib, yanada ilg'or texnologiyani joriy etish va ishlab chiqarishni tashkil etish darajasiga binoan belgilanadi.

Seriyali ishlab chiqarishni tashkil etish, bir vao'tning o'zida va ketma-ket konstruktsiya jihatidan o'xshash, bir xil bo'lmagan buyumlarga ishlov berish jarayonlarini ifodalaydi. Bu xildagi ishlab chiqarishga mashinasozlik korxonalari misol bo'laoladi.

Mahsulotni seriyali ishlab chiqaruvchi korxonalarda ko'proq takrorlanadigan mahsulot tayyorlanadi, donalab ishlab chiqarishga nisbatan mahsulotning turi birmuncha cheklangan bo'ladi.

Seriyali ishlab chiqarishga quyidagi asosiy xususiyatlar xosdir:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarining (nomenklaturasining) ko'pligi va doimiyliigi;
- ixtisoslashtirilgan ish joyiga doimiy ravishda biriktirilgan operatsiyalarni bajarish;
- mahsulotni seriyalab ishlab chiqarish va buyumlarni, detallarni partiyalab, oldindan belgilangan tartibda navbatda-navbat ishlab chiqarishga kiritish;
- ixtisoslashgan va maxsus uskunalari bilan birga universal asbob-uskunalarni qo'llash;
- mahsulot ishlab chiqarishda ko'p mehnat talab etadigan va yo'l mehnati yordamida bajariladigan ishning ulushini kamaytirish;
- ishlab chiqarish jarayonining nisbatan qisqarish;
- ishlab chiqarishni operativ boshqarilishini markazlashtirish.

Seriyali ishlab chiqarishning turini aniqlaydigan qo'rsatkich bir tsexda tayyorlanadigan detallar, buyumlar bo'yicha dastgohlarning yuklanish koeffitsienti (K_{ser}) dir va u quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$K_{cep} = \frac{D_{oc'}}{D_c}$$

Bu erda: $D_{os'}$ – detallar bo'yicha operatsiyalarning soni;
 D_s – tsexda o'rnatilgan dastgohlarning soni.

Birlamchi tipdagi donalab mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar xususiyati quyidagilardan iborat:

- tayyorlanadigan mahsulotning ko'p xilliligi, ulardan ko'pining ishlab chiqarishda takrorlanmasligi, shuningdek, ularning oz miqdorda ishlab chiqarilishi;

- universal dastgoh va yig'uv asbob-uskunalarning qo'llanilishi;
- yo'l bilan yig'iladigan va yakunlovchi operatsiyalar salmog'ining kattaligi;
- ishlab chiqarish jarayonining nisbatan davriyligi;
- uskunalarni tez-tez sozlash natijasida ulardan foydalanish koeffitsientining pastligi;
- universal dastgohlardan, yuqori malakali, tajribali chizmalar asosida mustaqil ishlay oladigan ishchilar mehnatidan foydalanish.

Mahsulotni donalab ishlab chiqaradigan korxonalar samaradorligi va mehnat unumdorligi darajasining pastligi, asosiy va yordamchi materiallarning ko'p sarflanishi, mahsulotning tannarxi yuqoriligi bilan boshqa korxonalardan farq qiladilar.

Bunday korxonalarga turbogeneratorlar, katta quvvatli ekskavatorlar, prokat stanlari, blyumenglar va boshqa maxsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar misol bo'ladi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning eng ilg'or usuli bu-potoy usulidir. Bunday sharoitda har bir ish joylari ixtisoslashgan, texnologik jihatdan o'xshash ishlar doimiy bo'lib ish joyiga biriktirib qo'yilgan bo'ladi, ish joylari texnologik jarayonni borishiga qarab joylashtirilgan, mehnat buyumlari bir ish joyidan boshqasiga bir xil yqnalishda transport yordamida uzatiladi.

Potok usulida ishlab chiqarishning asosiy bo'g'ini bu potok yo'lidir. Potok yo'li texnologik jarayonlar oqimiga mos holda ketma-ket joylashtirilgan, va ularga biriktirilgan operatsiyalarni boshqarish uchun mqljallangan ish joylarining yig'indisidir.

Potok yo'lida operatsiyalar sinxronlashgan bo'ladi. Natijada ishlab chiqarishni proportsionalligi va mu'tadilligi ta'minlanadi. Bunda opratsiyalar vao'ti potok yo'lining taktiga teng yoki unga yaqin bo'ladi. Ishlab chiqarishda uzluksizlik ta'minlanadi. Bunda maxsus ixtisoslashgan dastgohlar, mashinalar ishlaydi.

Potok yo'lining takti bu ikki turdagi mahsulotni ketma-ket ishlab chiqarish oralig'idagi vao'tdir. Takt uzunligi (ch) mahsulot ishlab chiqarish programmasi va potok yo'lining foydali ish vao'ti fondiga bog'liqdir.

$$\Psi = \frac{\Phi_p}{N_p}$$

bunda F_r - reja davridagi potok yo'lining foydali ish vao'ti fondi, (soat, min);
 N_p - shu davrdagi mahsulot ishlab chiqarish programmasi, dona.

Misol. Smena davrida ishchilarni dam olish vao'ti 2 marta 10 mindan deb mqljallangan mahsulot ishlab chiqarish xajmi 153 dona. SHunda potok yo'lining taktini uzunligi 3 minutga teng bo'ladi:

$$\Psi = \frac{480 - 10 \cdot 2}{153} = 3 \text{ min.}$$

Agar potok yo'lida partiyadagi buyumlar bir vao'tning o'zida transportirovka qilinsa (Pt) u holda keyingi navbatda turgan partiyadagi buyumlarni uzatish vao'ti potok yo'lining ritmini (R) qo'rsatadi. Uning uzunligi taktini transportidagi buyumlar partiyasining miqdoriga ko'paytirish bilan topiladi: $R=r.p \text{ tr.}$

Bizning misolimizda $R=3.10=30 \text{ min.}$ Taktga teskari bo'lgan miqdor potok yo'lining unumdorligini yoki ishlash tempini (sur'atini) qo'rsatadi. Takt 3 min bo'lganda bir minutda ishlab chiqarilgan mahsulot (detallar, buyumlar) miqdori 1/3 ga teng bo'ladi yoki potok yo'li bir soat ishlaganda 20 dona buyum ishlab chiqarilgan bo'ladi.

Operatsiyalar uzunligini (Top,) potok yo'lining taktiga (ch.) nisbati bilan bir operatsiyani bajarishdagi ish joylarining soni topiladi.

$$P = \frac{T_{\text{op}}}{\Psi} = \frac{12}{3} = 4$$

Potok yo'lining takti (ch) va uning haqiqiy ish vao'ti fondi (F_x) asosida uzluksiz sinxronlashgan potok yo'lining ishlab chiqarish quvvati topiladi:

$$K = \frac{\Phi_x}{\Psi}$$

Masalan, potok yo'lining yillik ish vao'ti fondi 590000 min, ishlash takti - 2,8 min. U holda potok yo'lining yillik quvvati $Q = \frac{590000}{2,8} = 210714$ buyumga teng.

Agar bitta buyumga shunday detallardan 7 ta ishlatilsa (ketsa) liniya 30102 buyum ishlab chiqarishi kerak bo'ladi.

Ishlab chiqarish davri va uni aniqlash usullari

Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasini ifodalovchi asosiy qo'rsatkichlardan biri ishlab chiqarish jarayonidagi mahsulotlarga sarflangan vao'tdir. Bu vao't qancha qisqa bo'lsa, ishlab chiqarishni tashkil qilish darajasi shuncha yuqori hisoblanadi va mahsulot ishlab chiqarish tezlashadi.

Ishlab chiqarish davri – tarkibi bo'yicha ish bajarish davri va tanaffus davrlariga bo'linadi. Ish bajarish davri – texnologik jarayonlar (operatsiyalar) vao'ti, ishlab chiqarishga tayyorgarlik bilan bog'liq vao'tlardan, tabiiy jarayonlar, texnik nazoratni olib borish, materiallarni tsex va uchastkalariga, ish joylariga etkazib berish uchun ketadigan vao'tlar yig'indisidan iborat.

Tanaffus vao'ti - o'z ichiga smenalar o'rtasidagi tanaffus va uzulishlar boshqa ishlar bilan uskunalar band bo'lishi natijasida operatsiyalar orasidagi kutish vao'tlari yig'indisidan iborat.

Ishlab chiqarish jarayonidagi tanaffuslar ikki guruhga bo'linadi: Birinchi guruhga korxonalarining ish rejimi bilan bog'liq bo'lgan tanaffuslar taalluqlidir (dam

olish va bayram kunlari, ovqatlanish tanaffusi bilan bog'liq bo'lgan tqxtashlar). **Bu tanaffuslar** ishlab chiqarishni tashkil qilish, ish smenasini tayyorlash, uskunalarni sozlash va reja asosida ta'mirlash uchun belgilangan bo'ladi. **Ikkinchi guruh** - ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq tanaffuslar. Bunday tanaffuslarni qisqartirilishi ishlab chiqarishni potok usulida tashkil qilish va turli xil ishlab chiqarish uchastkalarida ishni parallel ravishda bajarish natijasida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish davrining uzunligi – maxsulot murakkabligi, uni mehnat salmog'i, texnik va texnologik darajasi, va ishlab chiqarishdagi shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Umumiy ishlab chiqarish davri quyidagi formulaga binoan aniqlanadi:

$$T_{ts} = \sum t_{\text{rex.}} + \sum t_{\text{tab.}} + \sum t_n + \sum t_{\text{tr}} + \sum t_{\text{so}} + \sum t_{\text{mo}}$$

bu erda: T_{ts} – ishlab chiqarish davrining umumiy uzunligi (soat, kun);

$\sum t_{\text{tex}}$ - texnologik jarayonlarning vao'ti;

$\sum t_{\text{tab}}$ - tabiiy jarayonlarning vao'ti;

$\sum t_n$ - texnikaviy nazorat vao'ti;

$\sum t_{\text{tr}}$ - transportda tashish vao'ti;

$\sum t_{\text{so}}$ - detallarning smenalar va jarayonlar orasida turib qolish vao'ti;

$\sum t_{\text{mo}}$ - yarim tayyor mahsulotlarning ish smenalar orasida va tsexlararo omborlarda turib qolish vao'ti.

Mehnat buyumlarini ishlab chiqarishdagi harakatini ketma-ket borishi quyidagicha izohlanadi: Tar qaysi operatsiyada detallar partiyalab ishlab chiqariladi. Oldingi operatsiyalar bo'yicha hamma detallarga ishlov berilmagunga qadar detallar keyingi operatsiyaga uzatilmaydi.

Buyumning ketma-ket harakatida ishlab chiqarish davri (tsikl) « $T_{k.k.}$ » quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$T_{k.k.} = \sum_1^m t_{\text{дона}} \cdot n$$

bu erda: $T_{k.k.}$ – buyumlarga ketma-ket ishlov berishdagi ishlab chiqarish davri (min, soat, kun);

$\sum_1^m t_{\text{дона}}$ - detallarga barcha operatsiyalarda ishlov berish vao'ti.

n – partiyadagi detallar soni.

m - jarayondagi operatsiyalar soni.

Mehnat buyumlarining ketma-ket siljishi, uni tashkil etilishini oddiyligi bilan ajralib turadi. Bunda uncha ko'p bo'lmagan bir xil mehnat buyumlari partiyalab, asosan donalab va mayda seriyalab ishlab chiqariladi

Mehnat buyumlari ishlab chiqarish jarayonida parallel ravishda harakat qilganda barcha ishchi o'rinlarida mahsulot ishlab chiqarish bir paytda hamma operatsiyalarda bajariladi.

Mehnat buyumlari parallel harakat qilganda ishlab chiqarish davri quyidagicha aniqlanadi:

$$T_{\text{par}} = \sum_1^m t_{\text{dona}} - (n - 1) \cdot t_{\text{eu}}$$

bu erda: T_{par} – buyumlarga parallel ishlov berish sharoitidagi ishlab chiqarish davri (min, soat);

t_{eu} – eng uzun operatsiyalarning bajarish uchun sarflangan vao't (min).

Ishlarni parallel ravishda olib borish usuli mahsulotni ko'plab ishlab chiqarishda qo'llanilsa, samarali natijaga erishish mumkin. Bu ishlab chiqarish davrining qisqarishiga hamda uskunalarning ish bilan bir me'yorda ta'minlanishiga imkon yaratadi. Operatsiyalarni parallel olib borish va ko'p seriyalab ishlab chiqarish amalda keng tarqalgan.

Operatsiyalarni aralash turda (ham parallel, ham ketma-ket) olib borish, unda ishlab chiqariladigan detallarni uzatish qisman donalab, qisman partiyalab tashkil etiladi. Bu usul potok liniyalarda va partiyalab ishlab chiqarishni tashkil qilishda, operatsiyalar vao't jixatidan turli xil uzunlikda bo'lganda va buyumlar operatsiyadan operatsiyaga notekis uzatiladigan ishlab chiqarishlarda keng qo'llaniladi.

Operatsiyalarni aralash turda olib borish vao'tini quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$T_{\text{p.k.}} = \sum_1^m t_{\text{dona}} \cdot n - \sum_1^m t_{\text{q}} (n - 1)$$

bu erda: $T_{\text{p.k.}}$ – buyumlarga parallel va ketma-ket ishlov berishdagi ishlab chiqarish davri (min, soat);

$$\sum_1^m t_{\text{q}} - \text{«qisqa» operatsiyalarni bajarish vao'ti yig'indisi (min, soat).}$$

Operatsiyalarni parallel hamda ketma-ket yoki aralash tartibda olib borishni uskunar quvvati bir xilda bo'lmagan va operatsiyalar qisman sinxronlashgan ishlab chiqarishlarda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Partiyadagi mahsulot hajmining qisishi tugallanmagan ishlab chiqarishning va aylanma mablag'larning o'zgarishiga bog'liq. Mahsulot partiyasining hajmini aniqlayotganda tayyorlash-yakunlash va mahsulot birligini tayyorlashga sarflanadigan vao't orasidagi nisbat birdan-bir asosiy omil hisoblanadi, chunki u uskunalaridan foydalanish darajasiga sezilarli ta'sir etadi. Partiyadagi buyumlar sonini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$P_k = \frac{t_{\text{tЯ}}}{t_{\text{доон}} \cdot K_c}$$

bu erda: $t_{\text{tЯ}}$ - ishlab chiqarishni tayyorlash-yakunlash bo'yicha partiyadagi buyumlarga sarflanadigan vao't (min, soat);

t_{dona} - mahsulot birligini tayyorlashga sarflanadigan vao't (min, soat);

K_s - sozlash koeffitsienti (tayyorlash-yakunlash vao'tining partiyadagi detallarni ishlab chiqarishga sarflangan vao'tga nisbatan).

Asosiy iboralar va tushunchalar

1. **Ixtisoslashtirish** - bu alohida ishlab chiqarish uchastkalari tsexlar, korxonalar va tarmoqlarni o'xshash bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishda kqchirishdir.

2. Kooperativlashtirish – bu korxonada va tarmoqlarning bo'sh turgan ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish maqsadida, ular o'rtasida o'rnatilgan doimiy ishlab chiqarish aloqadorligidir.

3. Kontsentratsiyalashtirish - bu mayda, bir xil o'xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni yiriklashtirishdir.

4. Kombinatlashtirish – bu turli xil sanoat tarmoqlariga mansub bo'lgan ishlab chiqarishlarni xomashyo resurslaridan to'liq foydalanish maqsadida bir kombinatga tqplanishidir.

5. Ishlab chiqarish jarayoni – bu xomashyo materiallarni tayyor mahsulotga aylantirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar yig'indisidir.

6. Ishlab chiqarish davri – bu xomashyo materiallarni tayyor mahsulotga aylantirish uchun ketgan vaq miqdoridir.

Nazorot savollari

1. Iqtisodiy faoliyatning maqsadi nima?
2. Ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, ularning mohiyati.
3. Ishlab chiqarishni tashkil etish qoidalari, tiplari, usullari, turlari va ularning mohiyati.
4. Bir me'yorda ishlab chiqarishni tashkil etish va uning darajasini aniqlash.
5. Korxonada ishlab chiqarish jarayonlari, fazalari.
6. Korxonada mahsulot qiymatini yaratish bosqichlari.

V-BOB. KORXONA FAOLIYATINI REJALASHTIRISH

5.1.Rejalashtirishning mohiyati va vazifalari

Ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va tartibli rivojlantirish boshqaruv faoliyatining asosiy vazifasidir. Boshqaruv yoki raxbarliksiz ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etib bo'lmaydi. Bu xildagi ishlar reja asosida amalga oshiriladi. Rejalashtirish (biznes-rejani tuzish) raxbarlikning bir qismidir.

Demak, menedjment - «boshqaruv», bu turli xil tashkilotlardagi kishilarni boshqarish faoliyatining xili, vazifalari (funktsiyasi)dir.

Bunda maqsadga erishish uchun mehnat, va boshqa intellekt va boshqa kishilar xatti-xarakatining motivlari (sabablari) extiyojni yuqori darajada ta'minlash, boshqalar tomonidan hurmat, amaldagi qisish, maqomi (status), tan olish va yuqori baholash;

Ma'naviy ehtiyojlar, tashabbuskorlik orqali o'zini qo'rsatish kabi usullar ishlatiladi. **Rejalashtirish - bu iqtisodiy qonunlar va tajribalardan foydalanish asosida rejalarni, dastur va loyihalarni ishlab chiqarish jarayonidir.** Masalan, qiymat qonuni talabiga qo'ra maxsulot bahosi uni ishlab chiqarishch va sotish bo'yicha ijtimoiy zaruriy xarajatlarni hisobga olgan holda belgilanishi lozim. Jamg'arish qonuni esa foydani bir qismini ishlab chiqarishni kengaytirishga ajratilishini taqazo etadi. **Mehnat unumdorligini oshirib borish qonuni** esa korxonalarni fan-texnika yangiliklarini ishlatish asosida mehnat va moddiy manfaatdorligini oshiradi. Ana shunday maqsad va vazifalar aniq-ravshan bo'lgandan sqng korxonona o'zining strategik rivojlanishning yqnalishlarini ishlab chiqadi.

Firma va korxonalar - mijozlar, aksionerlar, davlat boshqaruv tashkilotlari, jamoatchilik bilan bog'liq holda faoliyat qo'rsatish usullarini topishlari, uni qo'llashlari zarur. **Agar korxonaning maqsad va vazifalari jamiyat qonunlari va ma'naviyat tamoyillariga mos kelsa, u holda korxonaning ishlari muvvafoqiyatli yakunlanadi.** Korxonona hayot-mamotining falsafasi mulk egasining va o'z xodimlarining gullab-yashnashi va jamiyat rivojlanishini ta'minlashga qaratilishi zarur.

Bozor munosabatlari rejalashtirish ishlariga yangicha yondashish kerakligini ob'ektiv zaruriyat qilib qo'yadi. Avvalo, shuni aytish kerakki reja tuzish zaruriyati turli xil sabablar bilan belgilanadi. Ularning asosiylari quyidagilar:

- kelajakni noaniqligi;
- rejani boshqaruvdagi ahamiyati;
- iqtisodiy natijalarni (oqibatlarni) optimallashtirish

ƒaqiqatda ham, agar korxonona yoki qandaydir kompaniyaning kelajagi aniq bo'lganda edi, doimo reja tuzib borishga xojat qolmas edi.

Rejalashtirish vazifalari quyidagilar:

- Raqobatchilarga qaraganda korxonaning moliyaviy barqarorligi, kapitalining yanada rentabelligi darajasini ta'minlash;

- Yuqori darajada raqobatbardosh mahsulot sotish, ish bajarish, xizmat qo'rsatish hajmini ko'paytirish va bozorda korxonona salmog'ini oshirish.

- Yangi ish joylarni yaratish respublikamizda ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash uchun jahon xamjamiyatida davlatimiz obrq-e'tiborini oshirish. **Rejalashtirish jarayonida quyidagi printsiplariga amal qilish zarur.**

- Rejalashtirishda uzluksizlikni ta'minlash;
- Optimallik;
- Tejamkorlik;
- Bozor talabiga moslashishi (o'zgaruvchanlik);

- Korxonalar rejasi bilan uning ishlab chiqarish bo'g'inlari rejasining yagonaligini ta'minlash;

- Zarur sohalarni ajratish;
- Kompleks rivojlanishini ta'minlash.

Rejalashtirish o'z mohiyati (predmeti) bo'yicha maxsulot xajmi, marketing ishlari va uni sotish, xodimlar soni va ish xaqi, korxonalar quvvati, ishlab chiqarish xarajatlari, xarajatlar va daromad, foyda kabi qo'rsatkichlardan iborat^x.

Rejaning mohiyati 40 ga yaqin qo'rsatkichlar yordamida, yoritiladi va bu qo'rsatkichlar bo'yicha vazifalar qabul qilinadi, korxonalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.

Reja qo'rsatkichlari:

- Natural va qiymat qo'rsatkichlari;
- Miqdoriy va sifat qo'rsatkichlari;
- Sintetik va analitik (xususiy) qo'rsatkichlari guruhiga ajratiladi;
- Miqdoriy qo'rsatkichlar - maxsulotning umumiy xajmi-tovar maxsuloti, yalpi maxsulot, xodimlar soni, foyda, daromad miqdori va x.k. lar;
- Sifat qo'rsatkichlar - ishlab chiqarish rentabelligi, maxsulot sifati (uning qo'rsatkichlari bo'yicha), fond qiymati fond rentabelligi va boshqalar;

Masalan,

- Maxsulot birligi uchun metall xarajati, quvvat birligi uchun kapital qo'yilmasi;
- Natural qo'rsatkichlar - maxsulot turi, navi, sifati bo'icha miqdori;
- Mehnat unumdorligi, ish haqi.

Rejalar turli xil belgilar asosida bir necha xilda bo'ladi:

- Muddati bo'yicha - uzoq muddatli strategik reja, joriy (1-3 y) yil uchun tuziladigan reja va qisqa muddatli operativ reja kunlik, oylik va bir yillik rejalar^x;
- Rejalashtirish ob'ekti bo'yicha korxonalar rejasi (biznes-reja), tsex, uchastka, ish joylari va brigadalar bo'yicha.
- Hujjat turlari bo'yicha - reja, programma, loyiha, prognoz rejalar, buyurtma;
- Naryad rejalar;

Operativ rejalar korxonalar ichidagi tsex, uchastka va ish joylari bo'yicha ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun qo'llaniladi. Bunday reja ishlab chiqarishni kun, oylar mobaynida mq'tadil, bir ritmda borishini nazorat qilish, ta'minlash, xo'jalik majburiyatlarini o'z vao'tida bajarilib borishini kuzatish uchun zarur bo'ladi.

5.2. Rejalashtirish asoslari

Rejalashtirish asoslari bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- Ko'zlangan maqsadga erishish uchun korxonada turgan iqtisodiy shart-sharoitlarni, ishlab chiqarish imkoniyatlarini baholash;
- Reja davrida muhim o'rin tutadigan bozor xususiyatlarini o'rganish, baholash;
- Raqobat darajasini bilish;
- Korxonada kirgan tarmoq xususiyatini hisobga olish;
- Korxonaning o'zini yirikligi;
- Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi holatini hisobga olish.
- Reja topshiriqlarni to'g'riligini, optimalligini asoslashda norma va normativlar muhim o'rin tutadi. Ularsiz reja tuzish mumkin emas.

Texnik-iqtisodiy norma va normativlar korxonada turgan turli xildagi resurslardan – xoashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asbob-anjomlar, mehnatidan, ishchilarning ish vaqtidan, mashinalarning ish vaqtidan, korxonada qo'vvatidan unumli foydalanish me'yori qo'rsatadi. Norma va normativlar korxonada tejamkorlikni ta'minlovchi, resurslarni o'rniga qo'yib isrof qilmay foydalanishni va umuman xarajatlarni kamaytirib mehnat unumdorligini oshirish zaruriyatini talab etadi

Norma va normativlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Mehnat (ish vaqti) bo'yicha normativlar;
2. Mehnat vositalari (asosiy kapital) dan foydalanish normativi;
3. Mehnat buyumlaridan (aylanma kapitaldan) foydalanish normativi;
4. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish normativlari. Bular - ishlab chiqarish davri, tugallanmagan ishlab chiqarishlarni yil oxirida va yil boshidagi qoldig'i, xom'ashyo materiallarining ombordagi qoldiq me'yori va boshqalar.
5. Mahsulot sifatining normativi (me'yori). Bu yangi mahsulot turlari miqdorini umumiy mahsulot xajmidagi salmog'i, oliy sifatdagi mahsulotlar salmog'i, mahsulot tarkibidagi foydali moddalar me'yori, buyumlarning chidamliligi pishiqligi va x.k.
6. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari normativi, rentabellik normasi.
7. Yangi loyixadagi ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirish normativi. (Tsexlar, korxonalar quvvati, agregatlar, dastgohlar quvvati).

Norma deb mahsulot yoki ish birligiga ma'lum sharoitlarda xom'ashyo, materiallar energiya va ish vaqtini (mehnatni) eng ko'p sarf qilish mumkin bo'lgan miqdoriga aytiladi. Belgilangan me'yordan, normadan ortiqcha sarf qilish mumkin emas. Normativ miqdorlar esa ishlab chiqarish vositalaridan (kapitaldan) foydalanish darajasini, ularni mahsulot og'irligining, xajmining xar birligiga to'g'ri keladigan xarajat miqdorini ifodalaydi Xarajat normalari mehnat sharoitlarini yaxshilanishi, yangi zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga kiritilishi bilan unumsiz mehnat xarajatlari, chiqindi va isroflarni kamayishi hisobiga nisbatan kamayib boradi. Unumdorlik normalari esa oshib boradi. SHundagina ular ilg'or fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini o'zida tqplagan bo'ladi.

Rejalashtirishda bir qancha usullar ishlatiladi:

1. Balans usuli
2. Maqsadli – dastur, loyixa tuzish.
3. Iqtisodiy matematik usuli.

1-Misol. Moddiy resurslar balansi, talabni resurslarga mos kelishini, tengligini qo'rsatadi. Agar rejalashtirish jarayonida shu tenglikni yo'qligi yuzaga chiqsa u holda talabni kamaytirish yoki qo'shimcha resurs olish imkoniyatlarini qidirish, topish lozim, rejani balanslashtirish kerak.

Normativ usul esa norma va normativlardan foydalanishga asoslangan.

2-Misol. Bir dona buyumni ishlab chiqarish bo'yicha vao't normasi 10 soat, yillik mahsulot ishlab chiqarish xajmi 120 ming dona. U holda mahsulot ishlab chiqarish prgrammasining mehnat salmog'i (oxirligi) 1200 ming norma – soat bo'ladi.


3-Misol. Kapitalning o'tgan yillardagi rentabelligi 9% bo'ldi. Agar reja yilida kapital xajmi 5% ko'paysa foyda qancha bo'ladi? Reja yilidan avvalgi yilda korxonaning balans qiymati 200mln s. bo'ladi. U holda reja davridagi foyda quyidagi miqdorda bo'ladi: $228,9=200x/0,09$.

Grafika usullari turli shaklda va bo'lishi mumkin: setkali (chizmaga qarang), koordinata yo'laridan tuzilgan chiziqli bo'lib, bunda X- ish vao'ti, U - ish turi. Korxonani zararsizlik nuo'tasi ham huddi shunday hisoblanadi, bunda X-ishlab chiqarish xajmi, U- mahsulot qiymati.

Setkali usul yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqarishni rejalashtirishda ishlatiladi:

9-chizma

Ishlab chiqarishni tayyorlashning setkali grafigi



Bu erda O-xodisa (masalan, 1-texnik topshiriqni uzatish, 9-tajriba na'munasini tayyorlash), ish bajarish muddati (masalan 1-xodisadan 2-xodisagacha 20 kun o'tadi).

Maqsadli dastur usuli murakkab loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladi. Bu usulning modeli chizmada keltirilgan.

Iqtisodiy matematika usuli rejalashtirishda turli xil modifikatsiyada qo'llanilishi mumkin. Ularning mohiyati shundaki, model bir qancha qo'rsatkichlar va koeffitsientlar asosida tuziladi Boshqa omillarga (x) bog'liq bo'lgani topiladi, rejalashtiriladigan o'zgaruvchan miqdor (u) topiladi.

Masalan, qo'rsatkichlarni chiziqli bog'liqligi quyidagi formulada ifodalanadi.

$$U=a_0+a_1x_1+a_2x_2$$

Bunda u-elektroenergiyani iste'mol xajmi, KV t soat

X_1 -texnologik dastgohlar quvvati KVT;

X_2 -Ishlab chiqarish programmasi dona

a_0, a_1, a_2 – retrospektiv ma'lumotlar asosida hisoblash usuli bilan olingan koeffitsientlar.

X_1 va X_2 reja davridagi miqdorini bilgan holda reja bo'yicha elektr energiyaning xarajat miqdorining aniqlash mumkin.

Firma yoki korxonada faoliyatini turli xil tomonlarini rejalashtirishning qo'rsatilgan usullari reja tuzuvchilar, mutaxassis va raxbar xodimlar uchun dasturi amaldir.

5.3. Korxonada strategik rejalashtirish

Genri Ford 1926 yili o'zining «Bugun va erta» nomli kitobida «o'z korxonasida industrializatsiyalashtirishni o'zining chiqqisiga chiqaradigan kelajakning ishlab chiqarish tizimini yaratganligini» faxr bilan yozgan edi. Korxonadan tayyor avtomobilni ishlab chiqarguncha ketgan vao't atigi 81 soatni tashkil etar edi. U iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga optimal darajada mos keladigan, ayrim hollarda ularni rivojlanishidan ham yuqori keladigan tizimni yaratdi.

Genri Ford erishgan yutuqlarni uni fikrlash, strategik rejalashtirish va boshqarish qobiliyati bilan izohlash mumkin. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan kishilar haqida ularga tabiat qo'ra bilish qobiliyatini in'om etgan deydilar.

Ishlab chiqarishga rahbarlik qilish jarayonida bunday uzoqni qo'ra bilish oldinmi kechmi reja shaklini qabul qilish uchun asos bo'lib qoladi.

Xo'jaliklar faoliyatini rejalashtirishsiz, uning maqsadini amal qilish va rivojlanish yqnalishlarini, printsiplarini aniqlamasdan har qanday boshqaruvni amalga oshirish mumkin emas. Jamiyatning har qanday tizimida rejalashtirish boshqarish tizimining umumiy funktsiyalarining (vazifalarining) asosi bo'lib qoladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xildagi korxonalar va xo'jaliklarning kelajagi haqida g'amxo'rlik qilish, ularni faoliyat qo'rsata olishi va rivojlanishi yqnalishlarini tanlash to'liq va butunicha shu korxonaning menedjerlari zimmasiga tushadi. Strategik rejalashtirish va boshqarish vazifalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Strategik rejalashtirish uzoq davrga mqljallangan bo'lib korxonaning ishlab chiqarish faoliyati ko'lami va sohalarining **sifat darajasini yoki umumiy miqdorini** yanada oshirish bo'yicha maqsad va vazifalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

«Strategiya» deganda korxonalar faoliyatining maqsadlari va unga erishish vositalari majmu'asini tushuniladi. Adabiyotlarda «Strategiya» tushunchasiga hozirgi vao'tda bir xil yondoshish yo'q.

Strategik rejalashtirish korxonani uni o'ziga unchalik aniq bo'lmagan tashqi muhit va omillar, ularning o'zgaruvchanligi bilan bog'liq bo'lgan ob'ektiv sabablar tufayli paydo bo'ldi... Korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi omillar haqida yuqorida aytilgan edi.

Strategik rejalashtirishning metodologik asosi quyidagilar:

I. Korxonalar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida ma'lum maqsadlarga erishish uchun yaratiladi; unda resurslar mavjud bo'lib ular moddiy ne'matlarga (mahsulotlar, xizmatlarga) aylantiriladi; korxonada ishlab chiqarish harajatlari va sotilgan mahsulot harajatlari ishlab chiqarish faoliyatining natijalari bilan aniqlanadi;

II. Korxonalar ichidagi muhitning murakkabligi va o'zgaruvchanligi. Korxonalar ochiq iqtisodiy faoliyat qo'rsatuvchi tizim sifatida bo'lganligi uchun unga bir qancha tashqi omillar ta'sir qo'rsatadi. SHuning uchun korxonalar faoliyatining samaradorligini ko'p jihatdan uning ana shu shart-sharoitlarga moslashish qobiliyati bilan aniqlanadi.

III. Har bir korxonalar o'ziga xos (unikal) xususiyatlarga ega (bu xususiyatlar haqida ilgari batafsil aytilgan).

SHuning uchun strategik reja tuzishda turli xil korxonalar uchun bir xil qaror qabul qilish to'g'ri bo'lmaydi, ularning xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Korxonalar burchi (missiyasi) - bu uning bosh maqsadi, uni yashash maqsadi, u reja davrida shunga erishishi kerak.

Missiya tushunchasiga korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulotlar; xizmatlar xususiyati, bozor tavsiloti mijozlarini topishi; daromad olish maqsadi; texnologiyasi, ya'ni dastgohlari tavsiloti, texnologik jarayonlar tavsiloti, texnologiyadagi yangi yutuqlar; raqabtbardoshlik qobiliyati, yashay olish omili haqidagi axborotlar, o'zining

kuchli va bo'sh tomonlari haqida, marketing, moliya, ishlab chiqarish, texnologiya, xodimlar axborotlar, xullas o'zi haqidagi fikrlar kiradi.

Bundan tashqari «Missiya» tushunchasiga korxonaning tashqi qiyofasi, uning sheriklari, mijozlari, jamiyat oldidagi ijtimoiy va iqtisodiy javobgarligini ifoda etuvchi imidji.

«Missiya» - korxonani tashqi dunyoga chiqmoqchi bo'lgan o'z taasurotlarini ifodalayd.


«Missiya»:

1. Korxonada maqsadini aniqlaydi.
2. Korxonada maqomini aniqlaydi.
3. Korxonada ichidagi kommunikatsiyalarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Strategik rejalashtirish bosqichlari quyidagilar:

10-chizma

Strategik rejalashtirish bosqichlari (jarayonlari)



Masalani qo'rabilish, ya'ni «Missiya»ga misol sifatida turli xil korxonalar bo'yicha axborotlar keltiramiz:

1. «EPPL» firmasida - (shaxsiy kompyuter ishlab chiqaradi) «insoniyatni takomillashtiruvchi dunyo bo'yicha intellektual vositalarini rivojlantirishga xissa qo'shish»

2. Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashgan «Merk» firmasining qo'ra bilishni «Biz insoniyat salomatligini saqlash va yaxshilash uchun biz biznes bilan shug'ullanaiz». Bizning barcha harakatlarimiz shu maqsadga erishish nu'oi nazaridan o'rganishi zarur.

3. Disney kompaniyasining qo'ra bilish: «Kishilarni baxtli qilish».

4. 10 may 1850 yilda SHotlandiyada (Glazgo) o'zining savdo markalari Bilan jahonga mashhur bo'lgan Tomas Djonstoun Limton kishini xayratga soluvchi bozorni

sezuvchanligi va nostandart reklamalarni qylib topish qobiliyati kata muvoffaqiyatlarga erishdi. Uning nomi: «Paketlardagi choy», «Lipton choyini iching» degan yozuvlar Bilan jahonga mashxur bo'lib ketdi. Qsha davrdagi Amerika biznesmenlarining chaqirig'i (devazi) Liptonni o'ziga tortdi. Bu chaqiriq: «Biz Xudoga ishonamiz, lekin hamma narsa uchun biz naqd pul to'laymiz» deb qo'rsatilgan (BV ro'znomasi. 13 may 2004 y. №19 «Tomas Lipton»).

5. Makdonalds firmasining missiyasi: «Kishilarga tez-tez xizmat qo'rsatish, arzon va issiq taom etkazish».

6. IBM kompaniyasining **Missiyasi:** «Axborotlarga talabni qondirish» Missiyadan Farq qilgan holda «**maqsadlar**» korxonaga faoliyatining aniq yqaltirilishini qo'rsatadi.

Fan-texnika taraqqiyotini jadallik bilan borishi korxonaga va tashkilotlarga o'zlarining rivojlanish bo'yicha maqsadlarini shakllanishiga kerak bo'lgan tajribalarni tqqplash uchun vao't qoldirmay qo'yadi. Iqtisodiyotni globallashuvi sharoiti korxonalarni barcha raqobatchilarni amalda aniqlash mumkin bo'lmagan holatda qoldirmoqda.* SHuning uchun korxonaga va xo'jaliklarning yangi tarkibiy o'zgarishlar to'g'risidagi korxonalari **strategik rejalashtirishning klassik qsish va raqobatga bog'liq ekanligini tushunish kerakligini qo'rsatmoqda.**

Amaliy axborotlar taxlili qo'rsatishicha, strategik rejalashtirishning klassik nazariyasi qo'rsatmalaridan, o'zlarining kuchli tomonlarini va raqobatchilik muxitidan chiqishga bo'lgan xarakatini rivojlantirish uchun hozirgi vao'tda faqat kuchsiz bo'lgan korxonalar (yirikligidan qat'iy nazar) foydalanmoqda.

Asosiy iboralar va tushunchalar:

1. Rejalashtirish - bu iqtisodiy qonunlar va ilg'or tajribalardan foydalanish asosida rejalarni, dastur va loyxalarni ishlab chiqarish jarayonidir.

2. Norma – mahsulot yoki ish birligiga ma'lum sharoitlarda xomashyo, materiallar, energiya va ish vao'tini eng ko'p sarf qilish mumkin bo'lgan miqdoridir.

3. Normativ miqdorlar – ishlab chiqarish korxonaga mulkidan foydalanish darajasini ularni mahsulot og'irligini, hajmining har birligiga to'g'ri keladigan xarajat miqdoridir.

4. Strategik rejalashtirish – uzoq davrga mqljallangan bo'lib korxonani ishlab chiqarish ko'lami va sohalarining sifat darajasini yoki umumiy miqdorini yanada oshirish bo'yicha maqsad va vazifalarini shakllantirishni nazarda tutadi. «**Strategiya**» tushunchasiga hozirgi vao'tda bir hil yondoshish yo'q.

Nazorat savollari

1. Rejalashtirishning mohiyati, maqsadi va vazifalari.
2. Rejalashtirish asoslari.
3. Korxonaning bozor imkoniyatlarini baholash tartibi.
4. Korxonada strategik rejalashtirish vazifalari va bosqichlari.

* Evremov I.S. Strategicheskoe planirovaniya. Moskva. «Finpress», 2001. st-75.

VI-BOB. MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH VA UNI REALIZATSIYA QILISH

6.1. Mahsulot ishlab chiqarish rejasining mohiyati va qo'rsatkichlari

Mahsulot ishlab chiqarish rejasini (programmasi) korxonani rivojlantirish rejasining yoki biznes rejaning eng muhim qismi hisoblanadi. Rejaning bu qismida ishlab chiqarishga mo'ljallangan maxsulot xajmi uning turlari, navi va sifat qo'rsatkichlari bo'yicha korxonada majburiyatlari qo'rsatiladi.

Maxsulot ishlab chiqarish rejasida natural qo'rsatkichlar muhim o'rin tutadi. Masalan tonna, metr, kilobayt, soat, kubmetr kabi qo'rsatkichlar. Ular yordamida xar bir maxsulot turi bo'yicha kimga qancha miqdorda maxsulot ishlab chiqarish mumkinligini, sarf-xarajatlar miqdorining me'yorini Masalan, maxsulot birligi uchun ketadigan ish vaqti yoki mehnat xarajatlari, xom'ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya xarajatlari me'yorini, buyurtmachilar talabini shartnomaga qo'ra bajarishdarajasini aniqlab borish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari natural qo'rsatkichlar yordamida korxonada xom'ashyo materiallarga ishchi-xizmatchilarga bo'lgan talabni, mehnat xarajati to'lovlarini miqdori, xar birini maxsulot uchun maxnat xarajati (baxosini) to'lovini aniqlash, ishlab chiqarishdagi barcha bo'g'inlar (10x uchastkalar) o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash, ishlab chiqarishni tashkil etish shakillarini- (kontseptratsiyalashtirish, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish, kombinatlashtirish) tanlash, xom'ashyo resurslari bilan ta'minlash, ularning zaxiralarini miqdorini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Natural qo'rsatkichlar korxonada va tarmoqlarning o'ziga xos tomonlarini, xususiyatlarini xam ifoda etadi, Ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yordam beradi.

Bularning xammasi ishlab chiqarishni rejalashtirish jarayonida albatta xisobga olinishi zarur. Aks holda ishlab chiqarish jarayonida yil davomida uzilishlar, turib qolishlar, natijada ish vaqti, dastgoxlar unumdorligi, quvvatidan va boshqa resurslardan foydalanish samarasiz bo'lib chiqadi, unumsiz xarajatlar paydo bo'ladi.

SHuning uchun maxsulot miqdorini uning xususiyatlari va sifatini to'g'ri va to'laroq ifoda etuvchi qo'rsatkichlar to'g'ri tanlab olinishi lozim.

Masalan, gazmalarni pogon va k.v. m.larda gilamlarni - kv.m. va dona hisobida g'ishtni - dona va kum.m, oq tunuka kv.m. tonnada, kimyoviy tolalarni tonna o'rniga tonna metrlarda ishlab chiqarish rejalashtiriladi.

Mashinasozlikda dastgoxlar, mashinalar, uskunalarning iste'molga yaroqli xususiyatlarini to'laroq ifoda etuvchi qo'rsatkichlar ishlatiladi. Masalan, yigiruv mashinalari dona hisobidan tashqari, ming yigiruv veretenda qlchanadi, o'zgaruvchan tok generatorlari dona va ming kilovatt, elektrovozlar - dona va ming ot kuchi akkumulyatorlar - dona va mln, amper soat, skrepelar - dona va ming kum.m (chqmichining xajmi) xisobida qlchanadi.

Qora va rangli metallurgiyada maxsulot sifatidan bozor yuqori darajada talablar qo'yilmoqda, Masalan, metall tarkibini sifatini yaxshilash, prokat va trubalarning tarkibida umuman metal xajmini, tonnadagi og'irligini kamaytirib, ularning yuqori sifatdagilarini va tonnali bo'lganlarini salmog'ini oshirishga zaruriyat tug'ilmoqda,

Minimal qog'itlar ishlab chiqarish va uni iste'molchiga etkazib berish ular tarkibida shartli birlik o'rnata oziqa moddalarni mavjudligini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi, demak maxsulotning iste'mol qiymati, iste'molga yaroqliylik darajasi yuqori o'ringa qo'yiladi. Buyurtmachilar talabiga qo'ra maxsulot ishlab chiqarish natural qlchovlarda portfelini shakillantirishda (reja tuzishda) maxsulot turi va navi tushuvchanlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Nomenikatura - bu maxsulot turining natural birligidagi riqyxati.

Assortimenti xar bir turdagi maxsulotni uni sifat xususiyatlari bo'yicha tarkibi, markasi, sarti, profili kabi tomonlari bilan berilgan miqdorda ajratilishidir.

Demak assortiment bu xar bir turdagi maxsulotni uning xillari, markasi. Ustki kiyimlar qanday materialdan tikilishiga, fasoni, razmeriga qarab ajratiladi. Rasmiy ma'lumotlarga qo'ra ularning xili 110 ta bo'lsa assortimenti undan ham ko'pdir.

Kir yuvish mashinalarining 250 xili; kir yuvish parashogining 150 xili bor; 90 xildagi velosipedlar; 85 xildagi mognitofonlar, radiopriyomniki 50 xildan ko'pi, televizorlarning 45 xili, sotuvchilar va elektr priborlarni 35 xili ma'lum. Natural birlikda maxsulot ishlab chiqarish programmasida maxsulotning sifat darajasi xam qo'rsatiladi.

Maxsulot sifati bo'yicha barcha texnik - iqtisodiy qo'rsatkichlar, dunyo amaliyotidagi eng oliy darajadagi erishilgan yutuqlar talabiga javob berishi kerak. Demak rejada maxsulotlarning standart talablari va sertifikatlash shartlariga rioya qilgan xolda ishlab chiqarish hajitni mqljallash zarur.

Natural qo'rsatkichlarning ahamiyati yuqori bo'lishiga qaramasdan ular korxonada maxsulotning umumiy xajmini, ishlab chiqarish sur'atini, tarkibini mexnat xajmi to'lovlari fondini aniqlash imkoniyatini bermaydi. Buning uchun **qiymat qo'rsatkichlar** ishlatiladi. Ular yalpi oborotdagi maxsulot miqdori, yalpi maxsulot, tovar maxsuloti, realizatsiya maxsuloti, sof maxsulot, shartli normadagi sof maxsulot, mexnat safari (soat-minlar) miqdori bo'yicha maxsulot xajmi, xom'ashyoga ishlov berish berish bo'yicha (NSO) maxsulot xajmi.

Bu xil qo'rsatkichlarni aniqlash usuli quyidagilardir.

I Rejadagi yalpi maxsulot ($Q_{r.ya}$):

$$Q_{r.i} \pm \Delta H + \Delta I$$

Bunda: ΔH - yil boshidagi tugullanmagan ishlab chiqarish-larning qoldig'ini o'zlashtirish;

ΔI - shuning o'zi maxsus asbob-anjomlar, moslamalar bo'yicha.

II. Rejadagi tovar mahsuloti hajmi ($Q_{r.t}$):

$$Q_{p.T.} = Q_T \pm \Delta Q_{O.T.} \pm \Delta Q_{\text{Ж.Т.}}$$

bunda: Q_t – tovar mahsulot hajmi;

$\Delta Q_{O.T.}$ - ombordagi tayyor mahsulot hajmini o'zgarishi;

$\Delta Q_{\text{Ж.Т.}}$ - reja davrining (yillikning) oxirida shu yilning boshidagiga qaraganda jqnatilgan mahsulot qoldig'ining o'zgarishi.

III. Realizatsiya maxsuloti xajmi ($Q_{r.r}$) – tovar maxsuloti tovar maxsuloti xajmidan tashqari sotish uchun mqljallangan va shu reja davrida ularning haqini to'lash kerak bo'lgan maxsulotdir: Ular, korxonada o'zi ishlab chiqargan va sotishga mqljallangan tayyor maxsulotlar, yarim fabrikatlar, sanoat xarakteridagi ishlar qiymati (shu kunladan, o'z dastgoxlari va transport vositalarini kapital ta'mirlash qiymati, o'zining kapital qurilishi uchun va korxonada balansida turgan boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Xo'jaliklar uchun bajarilgan ishlar qiymati).

Realizatsiya maxsulotini reja davridagi qisishini (Q_r) quydagicha topiladi.

$$Q_p = \frac{Q_{p.p} - Q_{x.p}}{Q_{x.p}} \times 100$$

bunda - $Q_{r.r}$ - reja yilidagi maxsulotni realizatsiya xajmi.

$Q_{x.r}$ - hisobot yilidagi realizatsiya maxsuloti xajmi (kelosi davrdagi reja baxosida).

Bu qo'rsatkich - ishlab chiqarish faoliyatining natijasini ifodalaydi va korxonada foydasi, ishlab chiqarish rentabelligini aniqlashga, soliqdagi majburiyatlarni bajarishga, bank bilan xom'ashyo etkazib beruvchilar, o'zlarining xodimlari bilan xisob-kitob

ishlarini bajarish xarajatlarni qoplash, kelasi davrlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish ishkoniyyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Bulardan tashqari shartli - sof maxsulot, normativ sof maxsulot, ishlov berishning normativ qiymati (NSO), norma - soat hisobdagi mexnat salmog'i qo'rsatkichlari ishlatiladi.

SHartli-sof maxsulot uning miqdori realizatsiya maxsulotidan moddiy xarajatlar ayirmasiga teng. Ish haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urta, amortizatsiya ajratmalari, foyda miqdoridan iborat.

Sof maxsulot xajmi tovar maxsulotidan moddiy xarajatlar va shuningdek asosiy fondlar amartizatsiyasini summasini ayirish bilan topiladi.

Demak, sof maxsulot xajmida ish xaqi va foyda miqdori qoladi. Uning xajmiga boshqa korxonalar yaratgan qiymatlar (xom'ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya uchun to'lovlar amortizatsiya ajratmasi) qo'shilmaydi.

Bu qo'rsatkich shu korxonaning o'z mexnat bilan yaratilgan yangi qiymatni ifoda etadi va korxonaga faoliyati natijalarini to'g'ri qo'rsatadi.

Normadagi sof maxsulot - bu xodimlarning ijtimoiy ajratmalar bilan birga asosiy va qo'shimcha ish xaqini va normativ foydani o'z ichiga olgan maxsulot baxosidir.

Ishlov berishning normativ qiymati (ruschasiga -NSO) o'z ichiga ishlab chiqarishdagi ishchilarning ijtimoiy manfaatlari uchun bo'ladigan ajratmalar bilan birga asosiy va qo'shimcha ish xaqi umumishlab chiqarish va umumxo'jalik xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Bu qo'rsatkichlar maxsulot, xizmatlar, ishlar tarkibini, mexnat fondi to'lovlari va x.k. ni taxlil qilishi uchun ishlatiladi.

Mexnat safari qo'rsatkichi maxsulot birligini va butun ishlab chiqarish programmasida mqljallangan maxsulotni ishlab chiqarish uchun qancha mexnat ketishni norma - soatlarda ifoda etadi. Bu qo'rsatkich korxonaning ichki xo'jalik faoliyatini (tsexlar, uchastkalar) rejalashtirilishda zarur bo'ladi.

6.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida maxsulot ishlab chiqarish programmasini shakillanishi

Kishilarning talabalari cheksizdir, lekin ularni qondirish uchun zarur bo'lgan resurslar cheklangan. SHuning uchun **kishilar o'zlarining moliyaviy imkoniyatlariga yarasha eng ko'p qoniqtiradigan tovarlarni tanlab** oladilar.

Talab - xarid qilish qobiliyati bilan belgilanadigan iste'moldir. Iste'molchilar kichik, o'rtacha va katta tipda bo'lishi mumkin. Ular korxonalar, kompaniyalar va turli xildagi xo'jaliklardir. **Lekin talablar ishonib bo'lmaydigan qo'rsatkichdir, chunki ular o'zgarib turadi.** Kishilar xilma-xil, yangidan-yangi narsalarni qidirib topishga xarakter qiladigan, xamma xar doim ishlatiladigan, foydalanadigan bir xil tovarlarni yoo'tirmay qoladilar, me'dalariga tegadi. Tovar tanlashdagi xarakter maxsulot bahosini pasayishini yoki kishilar daromadini ko'payib borishi bilan xam bog'liq bo'ladi.

Kishilar o'z pullariga eng ko'p qoniqish xosil qiladiganlarini tanlab oladilar. Masalan, "Folsfagen" avtomobili transport o'zida tqqplagan, narxi xam nisbatan past, yoqilg'ini tejaydigan, evropa vositalaridagi elementar vositalarni standartiga mos bo'lgan mashinadir. Lekin "Kodillak" avtomobili yuqori darajadagi komofortga, arzonliklarga ega SHu pulga shu mashinani xarid qilgan kishi bu xususiyatlardan ko'proq qoniqish xosil qiladi.

Tovar - bu xaridor fikrini jalb etish, xarid qilish, foydalanish maqsadida bozorga sotish uchun chiqarilgan iste'molni yoki talabni qondiruvchi barcha narsalardir.

Faraz qilamizki, ayol kishi go'zalroq bo'lishini orzu qilgan bo'lsa, uning bu talabini qondiruvchi barcha tovarlarni biz tovarlar assortimentini tanlash deb aytamiz. Bunday tovarlar assortimenti kosmetika, yangi kiyim - bosh kosmetolog xizmati, plastik operatsiya va boshqalarni o'z ichiga oladi. Lekin bu xil tovarlarni barchasi birdek darajada zarur emas...

Tovar iste'molchilar xoxishiga qancha ko'p mos kelsa, ishlab chiqaruvchi shuncha ko'p muvoffaqiyatga erishadi. Gap shundaki ishlab chiqaruvchilar iste'molchilarni izlab topishlari, ularning talablarini yuzaga chiqarishlari, keyin shu tovarni yaratishlari va ularga sotishlari zarur.

"Tovar" tushunchasi moddiy ob'ektlar bilan cheklanmaydi. **Talabni qondiruvchi barcha xizmat turlari tovar xisoblanadi.**

Buyumlar va xizmatlardan tashqari shaxslar faoliyati, ularning manzili, ishlab chiqarishni, xizmatni tashkil etish shakillari va fikrlar, g'oyalar xam tovar xisoblanadi.

Agar bozor ishtirokchisi, ya'ni **korxonalar marketingini, iste'molni yuzaga chiqarish, zarur xildagi tovarlarni yaratish, baxosini aniqlash ularni taqsimlash va iqtisodiy rag'batlantirish tizimini ustida yaxshi ishlagan bo'lsa, bunday tovarlar sotilmay qolmaydi.** Xar birimiz bilamizki iste'molchilar tez sotiladigan tovarlarni navbatda turib xam olishga tayyordirlar.

Shuni xam aytish kerakki ko'pchilik marketingini, ta'minot va rag'batlantirish ishlari bilan bir xil deb xisoblaydilar.

Marketing - ayirboshlash yo'li bilan talab va extiyojlarni qondirishga qaratilgan kishilik faoliyatining turidir. Masalan, ayol kishi lab bo'yog'ini «Fabrikada kosmetika ishlab chiqarilsa, magazinda esa **ishonch** sotiladi» deb qo'rsatadi, firma raxbari CHarlz Revson. SHuning uchun ayol kishi shunchaki lab uchun bo'yoq sotib olmasligi hammaga tushunarli, yoki magazindan diometri chorakta bo'lgan **farmalash buyumini xarid qilmay, shu diometrda oraliq (teshikni) xarid qilinadi** deb qo'rsatadi bilimdon sotuvchilar.

Boshqa misol keltirsak, faqat bifshteks sotilmaydi, undan keladigan iste'mol qilgandagi ishtaxani qitiqlaydigan xuzur, roxat sotilishi kerak. Mijozga shu kerak.

SHuning uchun bozor ishtirokchilari-sotuvchilari har qanday tovar ortida yashiringan talablarni yuzaga chiqarib, uning xususiyatlarini, undan keladigan baxramandlikni, foydani sotishlari lozim.

Bir xil maxsulotni ishlab chiqarish foydali boshqasini ishlab chiqarish esa zararli ekanligini belgilovchi iste'molchi talabi, bozor iqtisodiyoti uning xoxishini erkinligini cheklaydi.

Korxonalar maxsulot ishlab chiqarishni iste'molchi talabi bilan moslashtirish bo'lmasa ishlab chiqarish bankrotga uchrab qoladi.

Xom ashyo resurslarini etkazib beruvchilar ham shunday. **Ishlab chiqariladigan maxsulot qanday bo'lsa uning uchun shunday resurs kerak bo'ladi.** Etkazib beruvchilar mexnat va moddiy resurslari xisobiga maksimal foyda olishlari uchun bozor tizimi talablariga bo'ysunib **iste'mol talablaridan kelib chiqib resurslarni tanlashi lozim.** Chunki faqat foyda qo'radigan firmalargina shu xildagi resurslarga o'z talablarini kuyadilar, ularni xarid qiladilar. Demak, iste'molni qondiraoladigan maxsulotlar uchun resurs etkazib beruvchilar o'zlari istagan xildagi va sifatidagi resurslarni etkazib berishda "Erkin" emaslar.

Bozorlar tizimi iste'molchilar xoxishini korxonalar va resurs etkazib beruvchilarga topshiradi va ulardan qoniqarli javob olishini kutadi *.

* Ekonomiks. Kn. I. St. 83

6.3. Yangi tovarlar yaratish strategiyasi

Maxsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish rejasini tuzish asoslari quydagilardir:

- iste'molchi talablarini yuzaga chiqarish.
- bozor xolatini va istiqbollarni o'zgarishini o'rganish: baxoni qolqib turishi, valyuta kursini o'zgarishini, tashqi bozorga chiqish imkoniyatlari, raqobat, fond bozorining xolati, tadbirkorlik uchun imkoniyatlar mavjudligi va boshqalar.
- bozor chegarasini kengaytirish;
- bozorga yanada chuqurroq qirib borish;
- korxonani ishlab chiqarish quvvatini xisoblash;
- soliq tizimini o'zgarishni taxlili;
- zarur bo'lgan resurslar miqdorini hisoblash. Buning uchun xom'ashyo miqdori va sifatini o'rganish, ularni etkazib berilishi shartlari, masofasi;
- xodimlarning miqdorini kasbi, va mutaxassisligi bo'yicha xisoblash;
- investitsiya siyosatini taxlil qilish;
- yangi tovar turlarini yaratish ustida ish olib borish va yaratish;
- diversifikatsiya.

Diversifikatsiya shu o'ziga yoqmagan tarmoq miqyosida chegaralanib qolmay boshqa faoliyat soxalariga kirib borishni taqozo etadi. Bunda yangi xabarlar, xizmatlar yangi bozorlarga taklif etiladi. (F. Kotler. Osnovi marketinga. Moskva:, Izdat. "Progress" 1990 s. 46-52; 83-102., 97-98.)

Har qanday firma yoki korxonaga o'z maqsadiga etishi uchun kelajakni qo'ra bilishi, ongli ravishda qayoqqa qarab ketayotganini bilishi zarur. O'z kelajagini o'z xoliga tashlab qo'yishi lozim emas. Bunday bo'lmasligi uchun firma birdaniga ikki tizimdan foydalanishi mumkin:

1. strategik rejalashtirish,
2. marketingli rejalashtirish tizimi.

Strategik rejalashtirish xar qanday firmaning bir qancha faoliyat turlari, ya'ni maxsulot turlarini borligidan kelib chiqadi.

Ammo bu tovarlarning xammasi iste'molchini bir xil darajada qiziqirmaydi. SHuning uchun qandaydir tovarlarni ishlab chiqarish ko'payadi, boshqalari bir xil xajmda ishlab chiqariladi, uchinchi turdagilari esa ishlab chiqarishdan bo'shatiladi. Firma o'zini qisib, rivojlanib borishiga ishonch xosil qilishi uchun kelajagi bor bo'lgan yangi ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yishi kerak.

Bundan tashqari firma yoki korxonaga o'zining cheklangan resurslari amal qilib turgan ishlab chiqarishlari o'rtasida qanday taqsimlanishi kerakligin aniq bilish zarur.

Strategik rejalashtirishning maqsadi firma kuchli ishlab chiqarishlarni topib, rivojlantirib borishdan va kuchsizlarini esa kamaytirib yoki umuman tqxtatib qo'yganidan qanoatlanishi kerak.

Agar firma qandaydir aniq ishlab chiqarish turini tanlash bo'yicha bir qarorga kelgan bo'lsa endi ularning xar biri uchun batavsil ishlab chiqilgan marketing rejasi kerak bo'ladi.

Marketingni rejalashtirish deganda xar bir aloxida ishlab chiqarishlar, tovarlar yoki firmaning tovar markalari uchun reja ishlab chiqarishni tushunish lozim.

Xozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida katta miqdordagi va a'lo sifatdagi axborotlarni olish usullarini kuchayib va murakkablashib ketishining sabablari quydagilardir.

1. Firma o'zining bozorini kengaytirib boradi va o'z mijozlarini yaxshi biladi;
2. Sotuvchilar marketingning ko'proq baxoga bog'liq bo'lmagan omillaridan foydalanadilar. Masalan, tovarga marka belgilari berish, tovarni individuallashtirish, reklama va sotishni rag'batlantirish.

Marketingli izlanish bu muttasil firma oldida turgan marketing xolati, ular xaqidagi axborotlarni tqplash, taxlil qilish va natijalari xaqida xisobot berishdir.

Marketingli o'rganuvchilar quydagi vazifalarni bajaradilar:

- bozorni o'rganadilar;
- bozor imkoniyatlarini xisobga oladilar;
- firmalar o'rtasida bozorni taqsimlanishidagi hissasini taxlil qiladilar;
- maxsulotni iste'molchiga etkazish tartibini taxlili;
- ishish bilarmonlikdagi faollikni borishini o'rganish;
- raqobatchi tovarlarni o'rganish;
- qisqa muddatli prognoz rejalar tuzish,
- yangi tovarga bo'lgan sezuvchanlik (reaktsiya)ni o'rganish;
- uzoq muddatli prognoz reja tuzish;
- baxo siyosatini o'rganish.

Shunday qilib, bironta bozor ishtirokchilari marketingli izlanishsiz firma mijozlarni, raqobatchilarini, dillerlar va x.k. larni bilish

O'rganish usullari - kuzatish, eksperiment sinov va so'rov usullaridir.

6.4. Xo'jalik shartnomalari va ularning bajarilishini baholash

«Xo'jalik shartnomasi» deganda nimani tushunish lozim?

Fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan xarakatlarga **shartnoma (yoki bitimlar) deyiladi**. O'zbekiston Respublikasi fuqoralik kodeksi (1999 yil) 101; 353 modda; yoki O'zbekiston Respublikasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi 1998 yil 29 avgust qonunining 3-moddasi).

SHartnoma - bu qishloq xo'jalik korxonalari, shu jumladan dexkon (fermer) xo'jaliklari bilan dexkonchilik mahsulotlarini xarid qiluvchilar (tayyorlov, savdo, qayta ishlovchi va boshqalar) o'rtasida tuziladigan qonuniy hujjatdir. SHartnomaga qo'ra ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar qishloq xo'jalik mahsulotlarini shartnomada nazarda tutilgan miqdorda, sifatda, assortimentda (turi va navi bo'yicha) va muddatlarda etishtirib berish majburiyatlarini olsa, **ikkinchi tomondan** (buyurtmachi, yoki iste'molchi) esa uni qabul qilib olish, qiymatini belgilangan va kelishilgan narxlarda to'lash hamda ishlab chiqarishni tashkil etish, avans berish va mahsulotni transportda tashishda xo'jalikka yordam qo'rsatish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Majburiyat – bu fuqorolik xuquqiy munosabat bo'lib, unga asosan, bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan xarakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishlarni bajarish, xizmatlar qo'rsatish, pul to'lash va x.k. yoki muayyan xarakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa-qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarilishini talab qilish xuquqiga ega bo'ladi.

SHartnomalar - maxsulot etkazib berish shartnomalariga, xizmatlar qo'rsatish bo'yicha, ijara shartnomalariga va bajariladigan ishlarning xususiyatiga qarab boshqa turlarda bo'lishi mumkin. Mahsulot etkazib berish shartnomasi bir yilga, bir yildan ortiq muddatga (uzoq muddatli-5 yilgacha) yoki taraflar kelishuvida nazarda tutilgan boshqa muddatlarga tuzilishi mumkin. Agar shartnomani amal qilish muddati qo'rsatilmagan bo'lsa, u bir yilga tuzilgan deb hisoblanadi.

SHartnomaning mohiyati qo'yidagi bandlar bo'yicha yoritilish mumkin:

- I. SHartnoma mohiyati (predmeti), nima to'g'risida ekanligi;
- II. Tomonlarning majburiyatlari;
- 2.2. Mijozning (iste'molchining) majburiyatlari;
- Tomonlar huquqi
- 3.2. Mijozning huquqlari
- IV. Xizmatlarga iste'molchining pul to'lovlari miqdori va muddati
- V. Tomonlarning javobgarligi
- VI. Fors-Major majburiyatlari
- VII. SHartnomaning amal qilish muddati, uni o'zgartirish, uzish tartibi
- VIII. SHartnomaning boshqa shartlari
- IX. Tomonlarning huquqiy manzili va to'lov xujjatlari.

SHartnoma - erkinlik, o'zaro manfaatdorlik, shartnoma intizomiga rioya qilish, taraflarning mulkiy javobgarligi printsiplariga asoslanib tuziladi.

Xo'jalik shartnomasi, qoida tariqasida, taraflardan birining Oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo'llashi va ikkinchi taraf (taklifni qabul qilishi) aktseptlashi yo'li bilan tuziladi.

Ofertada shartnomaning muhim shartlari ifoda qilingan bo'lishi shart.

Oferta yo'llagan shaxs boshqa shaxsning (mijoz, iste'molchi va x.k.) aktseptini olgan paytda shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

(O'zbekiston Respublikasi fuqorolik Kodeksi. Toshkent «Adolat» 1996 yil 154-156 betlar 27 bob. 364-370 moddalar).

Xo'jalik shartnomasi yozma shaklda, 3-nusxada xo'jalikni o'zida tuziladi.

Ofertada shartnomaning muhim shartlari ifoda qilingan bo'lishi shart.

Tuzilgan vao'tdan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi. Agarda oferta va aktsept talablari bajarilgan bo'lsa, shartnomaning yozma shakliga rioya etilgan deb hisoblanadi.

Xo'jalik-shartnomani 7 kun ichida imzolashi va tayyorlovchiga etkazishga majburdir.

Agar shartnoma shartlari bo'yicha xo'jalikda e'tiroz paydo bo'lsa xo'jalik xuddi shu 7-kun ichida kelishmovchiliklar bayonining ikki nusxasi bilan birgalikda tayyorlovchiga yuboradi.

Kontraktatsiya shartnomasida u kelishmovchiliklar bilan imzolanganligi qo'rsatiladi. **Bu haqda mahsulot tayyorlash va uning sifati bo'yicha davlat bosh inspeksiyasiga albatta ma'lum qilinishi kerak.**

Tayyorlovchi (yoki buyurtmachi, iste'molchi) kelishmovchiliklar bayonini olgach 5 kun maboynda uni qo'rib chiqishga, qabul qilingan barcha takliflarni shartnomaga kiritishga, agar nizoli masalalar bo'lsa xuddi shu muddatda xo'jalik sudiga murojat qilishga majburdir.

Imzolangan shartnoma 3 kun ichida mahsulot tayyorlash va uni sifati bo'yicha Davlat inspeksiyasiga taqdim etiladi. (O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni. 11, 12, 13 moddalar).

Xo'jalik shartnomalari qanday qonuniy va me'yoriy - xuquqiy xujjatlar asosida tuziladi?

Xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishda yuzaga keladigan munosabatlar «O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi», (1999 y). «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish to'g'risida Nizom» (1994y. 29 avgust), O'zbekiston Respublikasining fermer xo'jaligi to'g'risida (1998y. 30 aprel), Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat) to'g'risida (1998y. 30 aprel), Dehqon xo'jaligi to'g'risida (1998y. 30 aprel), O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida (1991y. 15 fevral), O'zbekistonda tadbirkorlik to'g'risidagi (15 fevral 1991y. №207-XII).

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari bilan tartibga solinadi.

Bu qonunning I bo'limida «Umumiy» - qonuning maqsadi vazifalari, xo'jalik shartnomasi tushungan, tadbikorning faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy qonunlari qo'rsatilgan. Bu qismlar quydagilar:

- Xo'jalik shartnomalarini tuzishning erkinligi;
- Taraflarning o'zgara manfaatdorligi;
- SHartnoma intizomiga rioya etish;
- Tarafdorlarning o'zaro mulkiy javobgarligi.
- Bulardan tashqari Qonunning birinchi bo'limida shartnoma tuzuvchilarning huquqlari, majburiyatlari.
- Mahalliy davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlari qo'rsatilgan. Qonunning II bo'limi.
- Xo'jalik shartnomasini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish tartibiga bag'ishlangan.

III- bo'lim - Xo'jalik shartnomasi bo'yicha talabnomalar va savollar

IV- bo'lim - SHartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan ta'minlanishini tashkil etish.

Xo'jalik shartnomalari to'g'risidagi Qonun xujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish.

V- SHartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Xo'jalik shartnomalarini tuzish va korxonalarini shartnoma majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgarlik. «Xo'jalik sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida (29 avgust 1998 y.) qo'rsatilgan.

Shartnomalarni xuquqiy ekspertizadan o'tkazish nima?

Bu degani-shartnoma xo'jaliklarning yuristlari, yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonun xujjatlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirib qurilishi demakdir. SHartnomalarni ularning imzolarsiz tuzishga yo'l qo'yilmaydi. (1998 y. 29 avgust O'zbekiston Respublikasi qonuning 21-moddasi).

Agar xo'jalik shartnomalarida mqljallangan ishlar qiymati eng kam ish haqining 200 barobaridan ortib ketsa, bunday shartnoma yuristlarning yozma xulosasidan keyingina tuziladi.

Da'volar, baxslarni hal qilish tartibi.

Tovarlarni etkazib beruvchi xo'jaliklar uchun, yoki xizmat ishlarini bajaruvchilar uchun shartnoma majburiyatdagi kamchiliklarining xususiyati, xili yoki holatiga qarab, o'ziga yarasha qonun doirasida choralar qo'riladi. Ularning me'yori har xil.

Agar xo'jalik shartnomalari bajarilmasa, bu taraf boshqa tarafga etkazgan zararini to'laydi; muddatlari kechiktirib yuborilsa buyurtmachiga kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,5% peniya to'laydi (majburiyat bajarilmagan tovar qiymatidan), biroq bu peniya etkazib berilmagan tovarlar qiymatining 50%-dan oshib ketmasligi kerak.

Sifati, assartimenti lozim darajada bajarilmaganligi uchun shunday tovarlar (yoki ishlar) qiymatining 20% miqdorida sotib oluvchi jarima undirib olishga xaqlidir; **tovarlar but kelmagan** bo'lsa etishmayotgan tovarlar qiymatini qo'shgan holda but (komplekt) bo'lmagan tovarlar qiymatining 20% miqdorida etkazib beruvchidan buyurtmachi (sotib oluvchi) jarima undirishga xaqli. Agar **tovarlar lozim darajada o'rab, joylashtirib jnqatilmagan bo'lsa 50% miqdorida jarima to'laydi.**

Sotib oluvchi **tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganligi uchun** etkazib beruvchiga o'z vao'tida olinmagan tovarlar qiymatining 5% miqdorida; tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa 10% miqdorida jarima to'laydi. SHu bilan birga etkazib beruvchi o'z muddatida asossiz sabablarga qo'ra tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishiga xaqlidir.

Hisob-kitoblar maxsulot qabul qilib olingandan sqng 3-5 kundan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

Kontraktatsiya shartnomasini tizish muddatini asossiz o'tkazib yuborganliklari uchun tomonlar xar bir o'tkazib yuborilgan kun uchun eng kam oylik ish haqini 10% miqdorida, ammo eng kam oylik ish haqining 3 baravaridan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima to'laydilar.

Neustoyka (jarima, penya) to'langanligidan qat'iy nazar, shartnoma majburiyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga shu zarar oqibatida o'zi etkazgan zarar qismini ham qoplaydi.

SHartnoma tuzish amaliyotida xo'jalik sudlari qo'yidagi kamchiliklarni yuzaga chiqarganlar:

- 1) yuqoridan qo'rsatma kutib ishlash xollari;
- 2) ma'suliyatni to'la xis etmaslik;
- 3) imzo chekish va muxr bosishda e'tiborsizlik, namunaviy shartnoma shakllarini shundayligicha, xo'jaliklarning xususiyatlarini hisobga olmay qabul qilish;
- 4) ba'zi bir xo'jaliklarda shartnomaning tegishli bandlari to'ldirilmay qoladi;

5) shartnomada mahsulot bahosini belgilashda ba'zi mutassaddi rahbarlar xo'jaliklari tomonidan maxsulot ishlab chiqarish harajatlarini aniq va to'g'ri hisob-kitob qilmaslik;

6) tomonlarning, ayniqsa iste'molchining mulkiy javobgarligini belgilovchi normalarni (talablarni) shartnomaga kirmay qolishi, va shartnoma shartlari buzilgan hollarda ularni qo'llanmasligi hollari;

7) etishtirilgan mahsulot uchun hisob-kitob ishlarini o'z vao'tida emas, balki kechiktirib mavsum ohirida, tomonlar o'rtasida solishtirish dalolatnomasi tuzilgach amalga oshirish;

8) shartnomada mahsulotni sotish bahosini to'g'ri qo'rsatmaslik;

9) avans pulini to'lash, maxsulotni etkazib berish va xaq to'lash muddatlari belgilanmay qoladi;

10) shartnomada majburiyatni bajarmaganlik uchun tomonlar o'rtasidagi moddiy javobgarlik choralari nomutanosib ravishda taqsimlanadi. SHuni ham aytish kerakki, faqat moddiy javobgarlik bilan cheklanib qoling holos. Masalan, go'sht tayyorlab chiqaruvchi xissadorlik jamiyati mahsulotni o'z vao'tida topshirmasa 25% jarima to'lashi, tayyorlovchi tomon esa atigi 5% jarima to'lashi belgilangan;

11) shartnoma tuzishda ayrim xo'jalik rahbarlari, shartnomani o'zlari emas, balki boshqa shaxslarga imzolab, korxonaga muxri bilan tasdiqlaydilar;

12) ayrim tuman xo'jaliklarida kontraktatsiya shartnomasini tuzishga yuzaki qaraladi, bu muhim qonuniy hujjat nomigagina tuziladi (bir kunda);

13) kontraktatsiya shartnoma majburiyatlari bajarilmagan hollarda javobgar shaxslarga nisbatan da'vo arizalari bilan xo'jalik sudiga murojat qilmaydigan hollar ko'p. Bu esa shartnomaga imzo chekuvchi xo'jalik rahbarlarining o'z huquqlarini yaxshi bilmasliklarini qo'rsatadi.

14) Ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarga o'rtasida shartnomalarni tuzishda ko'plab xo'jalik rahbarlari. Bozor qonunlarini, shartnomalarni tuzish va majburiyatlarini bajarishga tegishli bo'lgan qonun va me'yoriy hujjatlarni yaxshi bilmaganliklari.

Korxonaga faoliyatining eng oliy mohiyati - bu iste'molchilarga talabini o'z vao'tida to'la-tqkiz qondirishidir, - deyilgan davlat korxonasi to'g'risidagi qonunda. Barcha majburiyatlarni bajarish bu korxonaning vazifasidir. Bu uning faoliyatini baholashning eng muhim mezon, kriteriysidir. Keyingi yillarda xo'jalik shartnomalarini bajarish O'zbekiston korxonalarida ancha ko'paydi. 1996 yili 98,6%, 1997 yili-98%, 1998 yili-98,3% bo'ldi. Majburiyatni bajarmaydigan korxonalar soni anchagina kamaydi. Xali lekin etkazib berilmagan mahsulotlar ko'p. 1998 yili iste'molchilarga 8,8 mlrd so'mlik mahsulotni ololmadilar.

Barcha amal qilayotgan xo'jalik shartnomalari bajarilishini baholash va rag'batlantirish sistemasi korxonalarni o'z majburiyatlarini 100 foiz bajarishga qaratilgan: bunday imtiyozlar, masalan, korxonaga ixtiyorida qoladigan foyda miqdorini ko'paytirish; qayta ishlash sanoatida esa byudjetga to'lovlarda kqshimcha imtiyozlar beriladi, to'lov miqdori kamaytiriladi va korxonaga ixtiyorida qoladigan foyda 10%-ga ko'payadi.

Majburiyatlar bajarilmasa mukofot fondi xar bir foiz uchun 3%-ga kamaytiriladi, agar majburiyat bajarilsa 15%-ga oshiriladi;

Xo'jalik shartnomasidagi majburiyatlarni to'liq bajarishga bo'lgan javobgarlikni oshirish maqsadida korxonani xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha mukofot faqat majburiyat bajarilgandagina to'lanadi.

Bunday mukofot miqdori umumiy mukofatning 50%-dan kam bo'lmasligi zarur.

Agar majburiyat to'liq-100% bajarilmasa bunday mukofot to'lanmaydi.

Mahsulotlarni etkazib berishda kamchiliklarga yo'l qo'yilganda kamchiliklar o'z vao'tida va o'z joyida yo'qotiladi. **Iste'molchi talabiga binoan korxonaga yo'l qo'ygan deffektlarini 20 kun ichida yo'qotishi zarur. Bu muddat ichida deffektlar**

yo'qotilmasa xaridor tomon kamchiligi bo'lgan mahsulot qiymatidan 20% miqdorida shtraf solishga xaqli. Qo'rilgan zarur korxonaga hisobga qoplanadi. Komplekt bo'lmagan buyumlar uchun ham uni tuzatish uchun postavshchikka 20 kun muxlat beriladi.

Bunday holda ham shunday mahsulot qiymatidan 20% miqdorida shtraf undiriladi.

Lekin xo'jalik shartnomasidagi majburiyatlarni buzilganligi uchun davlat arbitrajida kechiktirib va juda kam qo'riladi.

6.5. Ishlab chiqarish bo'g'larida mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish

Korxonalarining ishlab chiqarish programmasini bajarilishi uning asosiy tsexlari faoliyatiga bog'liq. SHuning uchun har bir tsex o'zining bajariladigan ishlari bo'yicha topshiriq qabul qilishi lozim. Korxonaning asosiy tsexlarining ishlab chiqarish programmasini tuzish texnologik jarayonlarni berishga teskari ravishda amalga oshiriladi. SHuni aytish kerakki texnologiyaning ishlab chiqarish quvvatini uning iste'molga tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi tsexlarining quvvati belgilaydi.

Agar mashinasozlik korxonasi bir yilda 2800 birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun shartnoma tuzgan bo'lsa, u holda uning yig'uv tsexi uchun 2700 bir mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish lozim, chunki korxonada omborida 100 birl shunday mahsulotning normadagi zahirasi mavjud, qayta ishlash tsexida ishlab chiqarishni uzluksiz davom etishi uchun zapas (zadel) mahsulotni 20 birlikka ko'paytirish zarur. Tayyorlov tsexi ko'p hollarda texnologiyadan chetga chiqib brak mahsulotlarga yo'l qiyilishini hisobga olib (brak rejalashtiriladi).

2850 birl. mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish zarur. SHulardan kelib chiqib korxonaning asosiy tsexlari ishlab chiqarish programmasi quyidagicha bo'ladi. (birl. hisobida):

5-jadval

Qo'rsatikichlar	Hajmi	
	reja	chiqarilgan mahsulot
Korxonaning ishlab chiqarish hajmi	-	2800
Yig'uv tsexi	2700	2800
Tayyorlov tsexi	2850	2720

Tsexlar bo'yicha qiymat hisobida ishlab chiqarish hajmi bir birlik buyumning tannarxidan yoki korxonada ichidagi bahosidan kelib chiqqan holda topiladi.

Kichik korxonalarda tsexlar bo'yicha qiymat qo'rsatikchlar aniqlanmaydi.

Tsexlar bo'yicha yillik topshiriq kvartallarga, oylarga bo'lib qo'rsatiladi. Asosiy tsexlarda reja topshiriqlari barcha turdagi mahsulotlar bo'yicha qo'rsatiladi.

Yordamchi tsexlar programmasini korxonada o'zlari uchun va boshqa tashkilotlar uchun bajariladigan ishlar miqdoriga qarab tuzadilar.

Korxonada bo'yicha bajariladigan ishlar tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha qabul qilinsa, tsex va uchastkalar uchun topshiriq ish turlari, buyumlar, detallar, uzellar bo'yicha ya'ni tayyor mahsulotni ishlab chiqarish kerak bo'lgan uning bo'laklari bo'yicha beriladi. Har bir ish joyi uchun esa - detallar va ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha beriladi.

Tsexlarni qabul qilingan topshiriqlarni bajarish quvvati etadimi - yo'qmi, uni bilish uchun bir qancha hisoblash ishlari, tahlillar olib boriladi;

- ishlab chiqarilishi kerak bo'lgan mahsulotga (ishga) har bir dastgohni sarf qiladigan vaq'ti (soati) aniqlanadi.
- o'xshash tipdagi dastgohlarni ish bajara olish quvvati topiladi;
- reja davrida dastgohlarga va ishlab chiqarish maydonlariga beriladigan ishlar koeffitsienti hisoblanadi;
- dastgohlarning quvvatidagi nomutanosibliklar yuzaga chiqarilib yqaltiliriladi;
- dastgohlar quvvati etmagan joylarni quvvatini oshirish choralari qo'riladi.

Buyumlarni ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz davom etishi uchun barcha tsex, uchastka va ish joylarida tugallanmagan ishlab chiqarishlarning normadagi miqdori berilishi zarur. Ularning qoldig'i me'yorida oshib ketsa tayyor mahsulot hajmi kamayib

ketadi, va aylanma mablag'lar harakati, ishlab chiqarish rentabelligi pasayadi. Tugallanmagan, chala tayyor buyumlarning etishmasligi esa ishlab chiqarishning mq'tadil, bir me'yorda borishini buzadi, dastgohlar va ishchilarning bo'sh turib qolishga, mahsulot sotilishini kamayib ketishiga, ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy natijalarini yomonlashuviga olib keladi⁷

Tugallanmagan ishlab chiqarishlarning (detallar, yarim fabrikat buyumlar va h.k.) ni natural miqdori ishlab chiqarishning turlicha bosqichlarida turgan zahiralari (zapaslari) dir. Bunday zadellarni to'rt xili bo'ladi:

1. Texnologik;
2. Transport zahirasi;
3. Aylanma zahir;
4. Kutilmagan holatlar uchun mqljallangan zahirasi;
5. Mahsulot sotilishini tashkil etish.

Ishlab chiqarilgan mahsulot sotilishi zarur, aks holda korxonani keyingi xo'jalik yilida ishlab chiqarishni tiklash davom etdirish uchun zarur bo'ladigan aylanma mablag'lari bo'lmay qoladi...

SHuning uchun ishlab chiqarish programmasida mqljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishdan avval uni sotish imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Buning uchun marketingli izlanishlar olib borish va mahsulotni sotish strategiyasini ishlab chiqish kerak.

Dastavval ma'lum baho darajasida bozorda shakllanadigan talab asosida sotish hajmini prognoz qilish zarur bo'ladi. Ma'lumki mahsulotni sotish hajmi bozorda bahoni (bozor bahosini, muvozanat bahoni) bahoni shakllanishiga bog'liq - muvozanat baho esa talab va taklifning nisbatiga bog'liqdir.

Sotish hajmi aniqlangandan sqng uni sotish strategiyasi tanlanadi. Buning uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- mahsulotni sotishning eng yaroqli shakllari va usullarini topish;
- mahsulotni iste'molchiga etkazuvchi malakali kadrlarni topish, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlash, huquq va javobgarliklarini belgilash;
- xodimlarni muttasil sotishni tashkil etish usullariga o'rgatish, marketing bo'yicha izlanishlar olib borish;
- sotish haqida aloqalar, munosabatlar o'rnatishni rejalashtirish.

Mahsulotni iste'molchiga etkazish tizimi korxonaga yirikligiga bog'liq. Yirik korxonalar uchun bir qancha sotuv shaxobchalari tashkil etiladi: savdoni qo'rsatuvchi, taklif etuvchilar, dillerlar, firmaning magazinlari va boshqalar. Kichik korxonalar maxsus savdo shaxobchalarida sotishni amalga oshirishda komission mukofotlar, narxini tushirib (skidka) yoki savdo oborotidan boshqa protsentlar hisobiga mukofotlar beradilar.

Savdo bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning tovarni sotish haqidagi eng qulay fikr almashuvlari muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi ishlarni bajarish lozim:

- Takliflarni tayyorlash va taqdim etish;
- Mijozlar talabi va ta'bini o'rganish;
- Bitim tuzishga va firmaga bo'lgan ishonchni ta'minlash, unga psixologik ta'sir etish;
- Mijozni mahsulotni sotib olishga bo'lgan hohishini uyg'otish;
- Mijozni shartnoma tuzishga va bir qarorga kelishiga qiziqishni uyg'otish;
- Tovarlar hususiyatini mijozga namoyish qilish, uni afzalligini qo'rsatish va boshqalar,
- Yangi sotuv bozorlarini izlab topish;
- Marketologlar reklama kompaniyalarini xizmatidan foydalanishni o'rganishi kerak bo'lgan;

- Xo'jalik shartnomalarini tuzish va majburiyatlarni bajarishi, xo'jalik shartnomalarini tuzish va korxonalarini shartnoma majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgarligi «Xo'jalik sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida (29 avgust 1998 y.) qo'rsatilgan.

Asosiy iboralar va tushunchalar

1. **Xo'jalik shartnomasi** - fuqoralar va yuridik shaxslarning huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlardir.

2. **Majburiyat** - fuqarolik huquqiy munosabat bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan xarakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulknini topshirish, ishlarni bajarish, xizmatlar qo'rsatish pul to'lash va x.k. yoki muayyan xarakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa-qarzdordan o'zining majburiyatlarini, bajarishini talab qilish xususiyatiga ega bo'ladi.

3. **Oferta** - bir yoki bir necha aniq kishilarga taklifni kiritgan shaxsning taklifi asosida tuzilgan shartnoma **OFERTA** deyiladi. (O'zbekiston Respublikasining fuqarolik Kodeksi. 367-modda).

4. **Aktsept** - oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi aktsept hisoblanadi. (O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi 370-modda).

5. **Aktiv** - buxgalteriya hisobining bir qismi bo'lib, unda korxonaga tegishli barcha narsalar aks etdirilgan bo'ladi. Moddiy boyliklar, pul mablag'lari, olish kerak bo'lgan qarzlari (ma'lum muddatlar).

6. **Passiv** - xarajatlarni daromaddan oshib ketgan miqdorini aks etdiruvchi buxgalteriya balansining bir qismi. To'lov balansidagi defetsit.

7. **Bank** – kredit - moliya mua'ssasi bo'lib, unda korxonalarining yoki alohida shaxslarning vao'tincha bo'sh turgan pul mablag'lari tqplangan bo'ladi va ularni kredit (qarz, ssuda) sifatida beriladi, mamlakatda pul xarakatini tartibga soladi.

8. **Buxgalteriya hisobi** - xo'jalik jarayonlarini, ularning natijalarini va pul hisobida ishlatilgan resurslarni hisob raqamlarida aks etdirish.

9. **Valyuta boyliklari** - xorijiy valyutalar, qimmatbaho qog'ozlar; qimmatbaho metallar; qimmatbaho tabiiy toshlar.

10. **Valyuta rezervlari** - oltinni markazlashtirilgan zaxirasi va markaziy banklardagi va mamlakatning valyuta-moliyaviy tashkilotlaridagi xorijiy valyutalar.

11. **Valyuta** - mamakat pul birligi; xorijiy davlatlarning pul belgisi; xorijiy pul birliklarida (veksel, chek va hokazo) ifoda etilgan muomaladagi va to'lovdagi hamda xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan kredit mablag'laridir.

12. **Diversifikatsiya** - shu firma ishlab chiqaradigan maxsulot turini kengaytirish; mamlakat iqtisodiyotini rivojlantrishdagi yangi sifatli xolat.

13. **Diller** - ko'pincha o'z nomidan va o'z hisobidan tovarni boshqalarga sotib yuboradigan shaxs yoki firma.

14. **Mahsulot etkazib berish shartnomasi** - shartnomaga muvofiq etkazib beruvchi kelishilgan muddatga tovarni xaridorga mulk sifatida topshirish majburiyatini oladi, xaridor esa tovarni qabul qilish va uning uchun ma'lum miqdorda pul mablag'larini to'lash majburiyatini oladi.

15. **Mijoz** - doimiy xaridor, buyurtmachi.

16. **Kontrakt** - tovarga egalik qilish xuquqini sotuvchidan xaridorga o'tishini mqljallagan, tovar va xizmatlarni oldi-sotdi shartnomasi.

17. **Baho liberalizatsiyasi** - markaziy boshqarmalar nazoratidan bo'shatilishiga yqnaltilirilgan bahoni shakllantirishning davlat siyosati yoki bunday nazoratni anchagina bo'shashtirilishi.

18. **Tovar markasi** – tovarlar yoki xizmatlar o'xshashligini boshqa raqobatchilarning shunday tovarlaridan farqlash uchun zarur bo'lgan nomi, ibora, belgi, simvol, chizma yoki ularni mutanosibligi.

19. **Marka nomi** – markaning bir bo'lagi, masalan, «Eyvon», «SHevrAle».

20. **Marka belgisi (emblema)** – marka bo'lagi, uni anglash mumkin, lekin aytish qiyin (mumkin emas), masalan, simvol, qo'rinish, farqlab turuvchi bo'yoq yoki o'ziga xos boshqa qo'rinishlar.

21. **Tovar belgisi** - huquqiy himoyalash bilan ta'minlangan marka yoki uning bo'lagidir. Tovar belgisi sotuvchilar huquqini himoya qiladi.

22. **F'yuchers** – kelajakda aktsiyalar, obligatsiyalar, valyuta yoki tovarlarni ma'lum bahoda sotib olish bo'yicha kontrakt.

23. **Forfard bitimi** – bugun kelishilgan muddat va bahoda kelajakda qimmatli qog'ozlar, valyuta va tovarlarni sotib olish bo'yicha kelishuv.

24. **Overdraft** – Evropa banklarida kredit olishning usullaridan biri.

25. **Dekart** – muddatidan avval pul to'langanligi uchun tovar bahosidan chegirma yoki tovon sifati va miqdorini kelishuv (bitim)ga qo'ra mos kelmasligi.

Nazorat savollari

1. Xo'jalik shartnomasi deganda nimani tushinish lozim?
2. Majburiyat nima?
3. SHartnoma qanday tuziladi va qanday huquqiy hujjatlar asos bo'ladi?
4. Da'volar, baxslarni hal qilish tartibi qanday?
5. SHartnoma tuzishdagi kamchiliklar nimalardan iborat?
6. Xo'jalik shartnomalarini bajarishni baholash tartibi.

VII-BOB. MAHSULOT SIFATI VA SERTIFIKATLASH

7.1. Mahsulot sifati va sifat qo'rsatkichlari

Mahsulotning sifati – shu mahsulotning mqljallangan maqsadlarda foydalanishga yaroqli ekanligini belgilovchi xususiyatlar yig'indisidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xilma-xil tovarlar chiroyli o'ralgan, joylashtirilgan, ishonarli reklama qilinayotgan bo'lishiga qaramay sifatsiz mahsulotlar ham topiladi. Ayrim xollarda inson salomatligiga putir etkazadiganlari ham mavjud. Misol, sifati sotilayotgan mahsulot sifatini tekshirish bo'yicha o'tkazilgan reytd ma'lumotlaridan foydalanamiz:

- Soch bo'yoqlari o'rniga kishini jalb qiladigan paketchalarda oddiy gilam bo'yoqlari sotilgan;
- Xususiy tadbirkorlar markirovkasi bo'lmagan, nomi qo'rsatilmagan, ishlab chiqarish joyi, qachon chiqarilganligi, saqlash muddati noma'lum bo'lgan kolbasa mahsulotlarini ham sotuvga chiqaradilar;
- Laboratoriya tekshiruvlari juda ko'p xollarda sifatsiz bo'lgan margarinlar, pishloq, kir yuvish poroshogi, shampunlar, sut, mahsulotlari va boshqalarni borligini tasdiqlagan;
- Non mahsulotlarida 50% xolatlarda namligi ko'p, og'irligi past bo'lgan;
- Osh tuzida ham yod moddasi bo'lmagan va namligi ko'p bo'lib chiqqan;
- Sariq ranga bo'yalgan makaron mahsulotlari tarkibiga tuxum qo'shilmagan;
- Tiniq-kqkimtir, sariq saqichlarda allergenlar mavjudligi topilgan;
- Muz qaymoqning ko'pgina sortlarida ko'pik va kraskalarni nihoyatda ko'pligi topilgan.

2003 yili 602 ta ishlab chiqarish, 1025 nomdagi mahsulot sifati tekshirilganda O'zbekiston bo'yicha 84,4% korxonalar standart talabalarini bajarmaganligi ma'lum bo'ldi. Sifat talabalarini bajarmaslik «O'zmevasabzavotvinosanoat» korxonalarida eng ko'p - 95,7% ni tashkil etadi. Sut mahsulotlari sifatini buzilishi 88% bo'lgan. Eksport mahsulotlaridan 10 mlrd so'mlik mahsulot qaytarilgan, import mahsulotlaridan esa 58 mln so'mlik.

Ushbu misollar qo'rsatadiki, mahsulotni sifat tomonlari muxim iqtisodiy ham ijtimoiy ahamiyatga ega. Mahsulotni yuqori sifatda bo'lishi, yaxshi bajarilgan ish yoki qo'rsatilgan xizmat ishlab chiqaruvchining o'zi uchun ham iste'molchi uchun va butun iqtisodiyot uchun ham katta ahamiyatga ega...

Yuqori sifat – bu firmaning imidji, obrqsi, ishlab chiqarish hajmini muttasil oshirib borish imkoniyati, bozorda mustahkam o'rnashish va pirovard natijada daromadni qisishi va muvoffaqiyatlar garovidir. SHuning uchun korxonada va mamlakat miqyosida doimo mahsulot sifatini yaxshilash, uning raqobabardoshligini oshirish to'g'risida qayg'urmoq, tadbir-choralarni amalga oshirmoq zarur.

Firma va kompaniyalar o'z mahsulotlari sifatini yaxshilab borib o'z obrqlarini, markalarini saqlab turishlari kerak, aks holda ular katta zarar qo'rishlari mumkin.

Masalan, Toshkentdagi 500 kishi ishtirokida o'tkazilgan reytingda xaridorlarni firmalar va savdo markalariga qanchalik ishonish mumkinligi haqida quyidagi savollar berilgan edi.*

1. Siz qanday xizmatlar va tovarlar markasini bilasiz?
2. Sizga xizmat qilayotgan qanday markadagi tovarlar va firmalarga ko'proq ishonasiz?

* Ekonomicheskoe obozrenie – yanvar 2003g. st. 22-23.

3. Siz qanday markadagi tovarlarni xarid qilishni va qanday ishlab chiqaruvchilar xizmatidan foydalanishni afzal qo'rasiz?

2001 yili respublikamizdagi tovar markalariga 13,5% darajasida ishonch bildirilgan. 2002 yili tovar markalari va firmalarga ishonch darajasi 9% bo'lgan. Ular tarkibida O'zbekistondagi firmalar va tovar markalari esa 90ta bo'lgan yoki 15,3%.

Sanoat mahsulotining sifati korxonada faoliyatini rejalashtirishda qo'llaniladigan asosiy qo'rsatkichlardan biridir. Unda mehnatni tashkil qilish, uni jihozlanish darajasi, mutaxassislarining malakasi, marketing va menejment ishlari xolati ifodalanadi. Mahsulot sifati iqtisodiy jihatdan iste'mol qiymatining qilchovi va foydalanish darajasi sifatida namoyon bo'ladi.

Mahsulot sifati iste'mol qiymatidan ob'ektiv ravishda kelib chiqadigan va u bilan bog'liq bo'lgan tushunchadir. Iste'mol qiymati ma'lum sifatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi. faqat foydali buyum iste'mol qiymatiga ega bo'ladi.

Mahsulot xususiyati – bu tovarni yaratish, foydalanish va iste'mol qilish jarayonida ob'ektiv ravishda namoyon bo'ladigan belgilardir. Mahsulot xususiyati uni sifat qo'rsatkichlari bilan aniqlanadi. Mahsulot sifatiga va uning texnik – ekspluatatsion (foydalanish) xususiyatlariga baho berish uchun quyidagi qo'rsatkichlar guruhi ajratiladi:

I. Iste'mol qilish xususiyatlari bo'yicha talabni qondiruvchi qo'rsatkichlar. Masalan, stanokning yoki mashinalarning resursi, yuk ko'tarish quvvati, quvvati, unumdorligi, aniq ishlashi, ekskavator chqmichining hajmi, dvigatellar tsilindirining hajmi va foydali xarajatlar koeffitsienti (KPD) va boshqalar. Bu xil qo'rsatkichlar mahsulotlarni pishiqligini ifodalaydi.

II. Buyumlarni konstruktiv parametrlarini xarakterlovchi qo'rsatkichlar. Bular – buyumlarni unifikatsiyalashtirish, agregativligi, geometrikligi, gabariti.

III. Buyumlarni pishiqliligi, ishonchliligi, uzoq muddat xizmat qilishi (chidamligi), remont qilish qulayligi qo'rsatkichlari. Ular mehnat vositalarini sifat darajasini ifodalaydi..

Mashina va qilchov asboblarning sifati ularning mustaxkamliligiga va uzoq ishlash qobiliyatiga qarab aniqlanadi. Masalan: buyumning ishlash muddati, remontlararo davrdagi ishlash muddati, unifikatsiyalashish darajasi, chet el va ilg'or korxonalarda ishlab chiqarilgan buyumlarga nisbatan bo'lgan sifatlilik darajasi va boshqalar.

Mustahkamlilik – buyumning mqljallangan muddatda, o'z xizmat qo'rsatkichlarini o'zgartirmay, zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish xususiyatidir.

Uzoq muddat ishlash qobiliyati buyumning, mqljallangan muddat davomida, zarur bo'lgan remont ishlarini o'tgan holda, ishlash qobiliyatini o'zgarmaslik xususiyatidir.

IV. Estetik va ergonomik qo'rsatkichlar.

Estetik qo'rsatkichlar buyumlarni badiiy-konstruktorlik tomonlaridan (arxitektura shakli, tashqi qo'rinishi, ishlov berilganligi, rangini) xarakterlab beradi. Ergonomik qo'rsatkichlar buyumlarni konstruksiyasini, psixofizsiologik va xizmat qiluvchi xodimlarni mehnat gigienasi talablariga mos kelishini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda buyumlardan foydalanish qulayliklarini qo'rsatadi.

V. Iqtisodiy ya'ni tejamkorlik qo'rsatkichlari. Masalan, mahsulotning mehnat salmog'i, materiallar, elektroenergiya salmog'i, foyda, samara birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarning umumiy miqdori. Xususan, yuk tashuvchi mashinalarda yuk ko'tarish quvvatining xar tonnasiga to'g'ri keladigan (ketadigan) metal xarajatlari, yoki avtomobil shinalarining har 1000 km. yo'l bosishiga to'g'ri keladigan mahsulot tannarxi. Bu guruh qo'rsatkichlarga brak mahsulotning salmog'i, sifati qoniqarsiz bo'lgan mahsulotlar uchun to'lanadigan jarimalar, buyumlarni kafolatli ta'mirlash xarajatlari va birinchi marta qo'rishdayoq sifatli deb topilgan mahsulotning salmog'i kabi qo'rsatkichlar kiritiladi.

VI. Buyumlarni (sorti) sifat turi, navlari. Bu xil qo'rsatkichlar iste'mol buyumlariga, ayrim xil mehnat buyumlariga nisbatan ishlatiladi. Bunda mahsulot sifatini xis qilish a'zolari yordamida – organoleptik usul bilan aniqlash yuqori o'rinni egallaydi. Bu usul mahsulot sifatini aniqlashni boshqa obektiv usullari bo'lmaganda va asosan oziq-ovqat sanoati korxonalarida qo'llaniladi.

VII. Ekologik qo'rsatkichlar. Ular atrof-muxitga zararli ta'sir etish darajasini qo'rsatadi.

Mahsulot sifatini tartibli ravishda yaxshilash, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning zarur sharti, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xalq farovonligini qstirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mahsulotning miqdori va sifati o'zaro dialektik bog'liqdir. Yuqori sifatli mahsulot sifatsiz tayyorlangan mahsulotga nisbatan jamiyat ehtiyojlarini yuqoriroq darajada qondirishga qodir. Demak, mahsulot sifatini yaxshilash ishlab chiqarish hajmini qo'shimcha xarajatlarsiz oshirish demakdir. Mutaxassislarni hisoblashlariga qaraganda xarajatlar mahsulot hajmini oshirishga qilingan xarajatga qaraganda 2 marta ortiqdir. Bizning korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar dunyo standartlarining talablarini qondira olishlari zarur. Korxonaning asosiy vazifasi xalq xo'jaligi va fuqarolarning shu korxonaga kam sarf-xarajat qilgan holda ishlab chiqaradigan (ishlarga, xizmatlarga) ijtimoiy ehtiyojlarini butun choralar bilan qondirishdan, mamlakatning sotsiol-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishga qo'shadigan xissasini ko'paytirishdan, hamda ana shu asosda o'z jamoasi va uni a'zolari daromadini oshirishni ta'minlashdan iborat. SHunga qo'rra, mamlakatimizda o'zining texnik-iqtisodiy qo'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi dunyo namunalariga mos keladigan, tashqi bozorda raqobat qilaoladigan yuqori samaradorlikka ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish zarur bo'ladi.

7.2. Mahsulotni sertifikatlash

Bozorni yuqori sifatdagi mahsulot bilan to'ldirishning muhim shartlaridan biri bu mahsulotni sertifikatlashdir. **Sertifikatlash – mahsulotni xususiyatlarini jahon bozorida yoki alohida bir mamlakatda amal qilib turgan xalqaro standartlarga, texnik shartlar va boshqa normativ hujjatlarga mos kelishini tasdiqlovchi tadbir va choralar majmuasidir. Sertifikat – mahsulot sifati va havfsizligini o'rnatuvchi va ta'minlovchi normativdir (me'yordir).**

Sertifikatni qo'llash samaradorligi turli xil sohalarda qo'rinadi:

- **Ijtimoiy sohada** – aholi sog'lig'i va xayotini himoya qilish va shuningdek inson yashab turgan muxitni himoyalashni ta'minlash.
- **Raqobatda** – mamlakatni jahon iqtisodiy tizimiga kirib borish, eksportga yqaltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'li bilan boshqa mamlakatlar bilan muvoffaqiyatli raqobatda bo'lishi.
- **Iqtisodiy sohada** – xaridorlar talabini qondirishni yaxshilash, tovarlarni iste'mol qilishdagi xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqaruvchilarni mahsulotni sotishini va foydasini oshirish.

Demak, sertifikatsiya asosida standartlar yotadi. Ularga rioya qilish har bir korxonaning asosiy vazifasidir. Standartlar fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini, amaliyot tqplagan tajribalarini hisobga olgan holda tuziladi. **Standart (inglizcha standard so'zidan olingan bo'lib, me'yor, namuna demakdir) - qo'llaniladigan ob'ektga qo'yiladigan (norma) me'yor, qoida, talablar kompleksining normativ – texnik hujjatidir.**

Standartlar geografik belgisi bo'yicha – xalqaro, regional va milliy standartlarga ajratiladi. Ularning har birida quyidagi vazifalar xal etiladi:

Unifikatsiyalash (yagonalik, o'xshashlik), qo'llash mumkinligi, mos kelishi, bir-birini o'rmini almashtirish mumkinligi, sog'liqni himoyalash iqtisodiy qo'rsatkichlarni yaxshilash, mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash.

Xalqaro miqyosida mahsulot sifati nazorati bo'lib hozirgi vao'tda ISO-9000 (ISO-9000) hisoblanadi. Bu tizimga Evropa standarti – EN 29000 va Rossiya standarti TOST-R mos keladi. U aniq turdagi mahsulotni tashqi bozordagi raqobatini avzalligini va eksportdan oladigan foydasini maksimal darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Ammo xali O'zbekistonda ISO-9000 asosidagi sifat tizimi shakllangani yo'q. **O'zdavlatstandarti ma'lumotlari bo'yicha atigi 10ta korxonalar sertifikatga ega.** Lekin hozirda qo'rsatilgan sifat tizimiga bo'yicha sertifikatga davo qiladigan 300 nomdagi eksportga mqljallangan tovarlar O'zdavlatstandarti bankida turibdi. Sertifikat tizimi xech kimga bog'liq emas, ishlab chiqaruvchiga ham, iste'molchiga ham.

Turli xil mamlakatlarda ular o'zining xususiyatlariga ega, lekin davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. **Sertifikatlash zaruriy, ixtiyoriy va shuningdek o'zini sertifikatsiyalash haqida ariza berish va uchunchi tomondan sertifikatsiyalanish turlariga bo'linadi.**

Zaruriy sertifikatsiya insonga yoki atrof muxitga (masalan, oziq-ovqat mahsulotlari, avtomabillar, samalyotlar, gaz uskunalari, qurilish materiallari va boshqalar) noxush ta'sir etuvchi buyumlarga nisbatan qo'llaniladi.

Erkin (ixtiyoriy) sertifikatsiya standartlarga asoslanadi va mahsulotni texnik va ekspluatatsion xususiyatlariga ahamiyat beradi: ishonchliqlik, uzoq muddat xizmat qilishi, chidamliqlik, uzluksiz buzulmay ishlashi va bor mahsulotni boshqasidan farqlash foydaliligini ajratuvchi boshqa qo'rsatkichlar.

Sertifikatlashda ma'lum xildagi me'yoriy hujjat talablariga, buyumlar sifatini nazorati darajasini yuqoriligiga qattiq rioya qilish zarur, ishlab chiqaruvchilarni sifatni sertifikatsiyalash bo'yicha to'liq javobgarligiga.

O'zini o'zi sertifikatsiyalash eng ishonchli sheriklar (partnerlar) uchun qo'llaniladi. Bunday turdagi sertifikatsiya AQSH, Yaponiya, Germaniya, Kanada kabi davlatlarda keng tarqalgan.

Uchunchi tomon tuzadigan sertifikatsiya tashqi tashkilotga tegishlidir. Mahsulot sifatini talabga javob berishi haqida o'zi mustaqil qaror qabul qiladi. CHetdagi tashkilot sifat to'g'risidagi tadbir-choralarni baholaydi va ularni to'g'riligini ma'qullaydi, namunalarni sinovdan o'tkazadi va shuningdek texnologik jarayonlar xolatini kuzatadi.

Bunday sertifikatlash mamlakat ichida va yuqori imidjga ega bo'lgan davlat markazlarida qo'llaniladi. Bu markazlardan biri bergan sertifikat mahsulotni reklama qilish, xaridorga tanitish shakli hisoblanadi.

Sertifikatlashdan o'tgan mahsulotga quyidagicha belgilar qo'yiladi:

- Sertifikatga mosligi haqida hujjat beriladi;
- Mahsulot - sertifikatga mos kelganligi belgisi bilan markirovka qilinadi;
- Sertifikatlash markazlarida sotilishiga ruxsat berilgan mahsulotlar rqyxatiga kiritiladi.

Sertifikat buyumlarning (avtomatik liniyalar, prokat stanlari, pres va boshqalarning) **quvvat birligiga beriladi**; ko'plab hajmda ommoviy ishlab chiqariladigan mahsulotlarga **sifat belgisi beriladi**. Bunday belgi sertifikatsiyalash markazining bosh nazoratchisi tomonidan nazorat ostida turgan partiyadagi buyumlardan biriga yoki ularni joylashishiga va x.k.ga qo'yiladi.

Masalan, qsimlik yog'i butilkasidagi etiketkada quyidagi yozuv bo'ladi: «Buyurtma bo'yicha va «YuNIBRASKO S.A.» sifatni nazorati ostida ishlab chiqarildi» SHveysariya. Sanepidemnadzor va Rossiya Davlatstandarti sertifikatsiyaladi».

Hozir butun dunyoda «Tavakkalchilikni taxlil qilishning nazorat nuo'tasi kriteriysi» (TTQNNK).^{*} nomalum oziq-ovqat mahsulotlari sifatini nazorat qilishning yangi tizimi keng tarqalgan.

TTQNNK kuzatuvchi, nazorati ostida ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molchilar jamoasi salomatligi uchun zarar etkazmaydi, chunki ular ekologik toza mahsulotlardir.

^{*} Kriticheskaya kontrolnaya tochka analiza riska (KKTAR)

7.3. Mahsulot sifatini boshqarish

Har bir respublika o'z mustaqilligiga ega bo'lgandan so'ng sifatni boshqarishning o'z tizimini yangitdan yaratishga to'g'ri keladi. O'zbekistonda sifatni boshqarish ishlari uning huquqiy asoslarini yaratishdan boshlandi. «Standartlashtirish to'g'risida», «Metereologiya to'g'risida», «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlash to'g'risida»gi qonunlarni qabul qilinishi bilan mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha ma'lum darajada ishlar amalga oshirildi.

2002 yil boshiga kelib O'zbekistonda 7ta standart ishlab chiqildi, 90ta rahbarlik hujjatlari, sertifikatlash bo'yicha 10ta taklif ishlab chiqarildi, zaruriy va ixtiyoriy sertifikatlash ob'ektlari muttasil ko'payib bormoqda. Barcha ishlab chiqariladigan mahsulotlarning 70% zaruriy sertifikatlash qilingan. Sertifikatlash tashkilotlari va akkreditlangan tajriba laboratoriyalarning soni qisib bormoqda. 2002 yil boshida ularning soni shunga muvofiq 90ta, 260tadan ko'p bo'lgan.

Sifat talablariga mos kelishini baholash va tasdiqlash jarayonining turli xillari ishlatilmoqda: mahsulotni sifat belgisiga mos kelishligi, markirovkasi ixtiyoriy sertifikatlash, sifatni nazorat etishning xalqaro tizimi tavsiya etgan modifikatsiyalar ikki marta o'zgartirildi (hozir ular 10 sxema va 6ta modifikatsiya amal qiladi).

O'zbekiston EAN sistemasida iste'mol tovarlarining asoslangan davlat standartlarining shtrixlangan kodini qabul qildi. Uning yordamida barcha turdagi mahsulotlarning 90% kodlangan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 21.09.2001). Buyumning shtrixli kodi tovarni barcha qoidalarga amal qilingan xolda, davlat standarti talablariga javob beradigan darajada ishlab chiqarilganligini qo'rsatadi. U ishlab chiqaruvchilar va buyumlar haqida axborotlarga egadir.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti sharoitida sifatni boshqarishning kompleks vazifalarini bajaruvchi turli xil tashkilotlar yaratilgan va amal qilmoqda. Mahsulot sifatini boshqarishda barcha ishlarni amalga oshiruvchi eng katta tashkilot – standartlashtirish, metereologiya va sertifikatlash O'zbekiston agentligi. O'zbekiston davlat standarti ixtiyorida turli xil tashkilotlar yaratilgan: standartlashtirish, metereologiya, sertifikatlash va mahsulot sifatini boshqarish sohasida ilmiy tadqiqot va kadrlarni tayyorlash institutlari, ko'p xildagi laboratoriyalari bo'lgan metereologik xizmatlar tashkil etilgan.

Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning o'z bo'limlari yaratilgan:

- **Ishlab chiqarish texnologiyasi bo'limi** – texnologik jarayonlarni borishini, faoliyatini muvofiqlashtiradi.
- **Sifat menedjmenti bo'limi** – standartlarni ishlab chiqaruvchi bo'limlar faoliyatini nazorat qiladi.
- **Texnologik nazorat bo'limi** – korxonaga kirib keladigan materiallar va butlovchi detallar, uzellar sifatini nazorat qiladi, ularni sinovdan o'tkazadi.
- **Sifatni kafolati bo'limi** – tayyor mahsulot sifatini nazorati va ishlab chiqarishni barcha bosqichlarida nazoratni amalga oshiradi.
- **Nazoratni tugatish bo'limi** – tayyor mahsulotni tashqi qo'rinishini nazorati, sinovdan o'tkazish ishlarini bajaradi.
- Bosh metereolog xizmati bo'limi - qlchov asboblarini nazorati, klibrlash, sozlash (ta'mirlash).
- **Tajriba (sinov) - qlchov laboratoriyasi.**

7.4. Mahsulot sifatini yaxshilashning iqtisodiy samaradorligi va uni hisoblash usuli

Mahsulot sifatini yaxshilashdan maqsad uni iste'mol qiluvchilarda iqtisodiy samaradorlikka erishish va pirovard natijada minimal ijtimoiy mehnat sarflab talabni yanada to'laroq qondirishdir.

Sifati yaxshilangan mahsulotni iqtisodiy samaradorligini asosiy kriteriysi bo'lib mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol qilish bo'yicha jonli va buyumlashgan mehnatni umumiy miqdorini tejalishi hisoblanadi.

Yuqori sifatli mahsulotni ishlab chiqarishda xomashyo, materiallar, yarim fabrikatlar, yoqilg'i, energiya sarfi normasini va qiymatini ortishi hisobiga joriy xarajatlar miqdori o'zgarishi mumkin.

Mahsulot sifatini yaxshilanishidan olinadigan iqtisodiy samaradorlik asosan undan foydalanish sharoitida eksplutatsiya xarajatlarini, shuningdek ta'mirlash ishlari sarfini, dastgohlarni ishlamay bo'sh turish vao'tini kamayishi va boshqalar hisobiga tashkil topadi.

SHunday qilib, ishlab chiqarishni va mahsulotdan foydalanishni iqtisodiy samaradorligini quyidagi iqtisodiy qo'rsatkichlar ifoda etadi. Bular – tannarx, ulgurji baho, mahsulot sifatini oshirish bo'yicha qo'shimcha xarajatlar, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan foydalanish mobaynidagi xarajatlardir.

Mahsulot sifatini yaxshilashdan olinadigan iqtisodiy samaradorlik «Xalq xo'jaligida foydalanilayotgan yangi texnika, ixtiro va ratsionalizatorlik takliflarini iqtisodiy samaradorligini aniqlashni metodikasi (asosiy qo'llanmalar)» (1977y.) asosida hisoblab chiqariladi. Bundan tashqari xalq xo'jaligi tarmoqlarini iqtisodiy samaradorlikni hisoblash xususiyatlarini inobatga olgan instruktsiyalar ham qo'llaniladi.

Hozirgacha O'zbekistonda bundan boshqa va yangi qo'llanma yaratilgani bizga noma'lum.

Mahsulot sifatini oshirishni iqtisodiy samaradorligini hisoblash ishlab chiqarishni ikki xil varianti bo'lishini taqozo qiladi, eng yaxshi variant bo'lib, keltirilgan xarajatlar miqdori minimal darajada bo'lgan variant tan olinadi. Keltirilgan xarajatlar tannarx bilan normadagi foyda (daromad) summasidan iborat bo'ladi:*

$$X = T + E_n \cdot K$$

Bunda: X – mahsulot birligini keltirilgan xarajatlari, qiymat birligida;

T – mahsulot (ish) birligi tannarxi;

K – ishlab chiqarish kapitalining (fondlarining) birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar (kapital qo'yilmalar), qiymat hisobida;

E_n – kapital qo'yilmalarni norma darajasidagi samaradorlik koeffitsienti (0,15).

Hisoblash ishlarida kapital qo'yilmalarini iqtisodiy samaradorligini norma darajasidagi yagona koeffitsienti 0,15ga teng qilib olingan (qabul qilingan). Bu koeffitsient bir so'mlik kapital qo'yilmasi mahsulot tannarxini eng kami bilan 15 tiyinga kamaytirilishini talab etadi.

1. Yillik iqtisodiy samaradorlik (S) keltirilgan xarajatlarning variantlar bo'yicha farqi bilan aniqlanadi.

$$S = (X_1 - X_2) \cdot Q_2$$

Bunda – Q_2 – sifati yaxshilangan mahsulotning yillik hajmi.

* formula belgilari qzbekcha.

2. Uzoq muddat xizmat qiladigan (mashinalar, dastgohlar, asbob-anjomlar va boshqalar) yangi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish iqtisodiy samaradorligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S = \left[X_1 \cdot \frac{B_2}{B_1} \cdot \frac{P_1 + E_i}{P_2 + E_i} + \frac{(M_1^1 - M_2^1) - E_i \cdot (K_2^1 - K_1^1)}{P_2 + E_i} - X_2 \right] \cdot Q_2$$

Bunda: $\frac{B_2}{B_1}$ - yangi mehnat vositalari birligini baza davriga nisbatan unumdorligini

qsishini hisobga olish koeffitsienti.

V_1 va V_2 – eski (baza) va yangi mehnat vositalari birligidan foydalanishdagi yillik mahsulot (ishlar) hajmi.

$\frac{P_1 + E_i}{P_2 + E_i}$ - yangi mehnat vositalarini bazadagiga nisbatan xizmat qilish

muddatini o'zgarishini hisobga olish koeffitsienti.

R_1 va R_2 – bazadagi va yangi mehnat vositalarini to'la tiklash (renavatsiya qilish) uchun balansdagi qiymatdan ajratmalar miqdori.

Bu miqdorlar, ma'naviy emirilish hisobga olingan mehnat vositalarini xizmat qilish muddatiga teskari ravishda hisoblab chiqariladi.

Hisoblash ishlarini aniqligini oshirishni zaruriy xollarida quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

$$R = \frac{E}{(1 + E)T_c - 1}$$

Bunda: T_s – yangi texnikani xizmat qilish muddati;

$\frac{(M_1^1 - M_2^1) - E_i \cdot (K_2^1 - K_1^1)}{P_2 + E_i}$ - iste'molchilarni yangi mehnat vositalarini bazadagiga

nisbatan barcha xizmat qilish muddati moboynidagi ekspluatatsiya joriy xarajatlari va shu bilan bog'liq kapital qo'yilmalaridan olinadigan ajratmalar tejami, so'm hisobida:

K_1^1 va K_2^1 - eski va yangi mehnat vositalari uchun, yangi mehnat vositalari yordamida ishlab chiqariladigan mahsulot (bajariladigan ishlar) hajmiga mqljallangan ajratilgan kapital qo'yilmalari miqdori;

M_1^1 va M_2^1 - mqljallangan eski (baza) va yangi mehnat vositalaridan foydalanishdagi iste'molchilarni yillik foydalanish xarajatlari;

Q_2 - hisoblash davridagi yangi mehnat vositalarini ishlab chiqaradigan yillik mahsuloti hajmi.

Asosiy iboralar va tushunchalar

1. **Sertifikatlash (Mahsulotni sertifikatlash)** – mahsulotni xususiyatlarini jahon bozorida yoki alohida bir mamlakatda amal qilib turgan xalqaro standartlarga, texnik shartlar va boshqa normativ hujjatlarga mos kelishini tasdiqlovchi tadbir va choralar majmuasidir.

2. **Sertifikat** – bu mahsulotni sertifikatlashdir, mahsulot sifati va havfsizligini o'rnatuvchi va ta'minlovchi normativdir (me'yordir).

3. **Mahsulotning sifati** – shu mahsulotning mo'ljallangan maqsadlarda foydalanishga yaroqli ekanligini belgilovchi xususiyatlar yig'indisidir.

Nazorat savollari

1. Mahsulot sifati to'g'risida tushuncha.
2. Mahsulotning sifat qo'rsatkichlari va mahsulotning sifat darajasini aniqlash usuli.
3. Mahsulotni sertifikatlash nima?
4. Mahsulot sifatini oshirishning iqtisodiy samaradorligi.

VIII - BOB. KORXONA MULKI VA MULKDAN FOYDALANISH

8.1. Mulk va mulkiy munosabatlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida qo'rsatilishicha: **“Bozor munosabatlarini rivojlantirishiga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma xil shakldagi mulk tashkil etadi”**. Korxonalar mulkini uning mustaqil balansida aqsh etadigan asosiy fondlari va oborot mablag'lari qiymati va boshqa boyliklar tashkil etadi. Korxonalar to'g'risidagi qonuniy xujjatlarga qo'ra qo'yidagilar korxonalar mol-mulkini tashkil etuvchi manba'lardir:

- ta'sis etuvchilarning pul va moddiy badallari;
- mahsulot, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilishdan, shuningdek xo'jalik faoliyatining boshqa turlaridan olingan daromadlar;
- qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar;
- bank va boshqa karz beruvchilarning kreditlari;
- kapital mablag' va byudjetdan dotatsiyalar;
- tashkilotlar, korxonalar va fukarolarning tekinga va xayriya maqsadlarida bergan badallari, ionalari, shuningdek meros to'g'risida, ayirboshlash va sovg'a qilish yo'li bilan oladigan daromadlari;
- O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari bilan taqiqlanmagan o'zga manba'lar.

Mulkning o'zi nima? U inson tomonidan uylab topilmagan, balki jamiyat tarixi rivojining, birinchi navbatda xo'jalik hayotining maxsuli hisoblanadi. Hayotda mulkchilik buyumlarni, moddiy ne'matlarni kimgadir tegishli bo'lishi, ya'ni kishilarning buyumlarga munosabati sifatida ta'riflanadi.. Iqtisodiy ishlab chiqarishda mulkchilik kishilarning ob'ektiv axvolini, ularning sinfiy fikrlarini va ular o'rtasidagi sinfiy munosabatlarini ifodalaydi.

Kishilarning buyumlarga bo'lgan munosabati ularni ishlab chikarish, taksimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida yuzaga keladi. **Mulkchilikni mohiyati ham shundadir.** Jamiyat ishlab chikarish kuchlarining rivoji ham ana shu munosabatlar xarakteriga bog'liqdir. Umumiy mulkchilik yo'q va bulishi mumkin emas, u har doim tarixan aniq shakllarda namoyon bo'ladi.

Bizga tarixda mulkchilikning bir birini almashuvchi quyidagi shakllari ma'lum: **shaxsiy, jamoa va ijtimoiy.** Yagona mulkchilik shakli turli xil iqtisodiy mazmunga ega bulishi mumkin va demak ularning ijtimoiy tabiati ham xilma xil bo'ladi. Mulkchilik shakllarining mohiyatini shu davrdagi kishilarning ishlab chiqarish munosabatlari belgilaydi.

Demak mulkchilik o'zida jamiyatdagi ham xuquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

Agar mulkdan foydalanish mumkin bo'lmasa, mulk egasiga daromad keltirmasa, unda u «huquqiy funktsiyasi»da qoladi. Mulkdan foydalanish iqtisodiy munosabatlar asosida sodir bo'ladi. **Anio'roq aytsak, mulkiy munosabatlar xo'jalik va soxibkorlik faoliyati orqali ruyobga chiqadi.** Buning uchun mulkka egalik qilish zarur.

Ishlab chikarish vositalariga yuridik jixatdan egalik qilmay xech kim ishlab chikarishni amalga oshira olmaydi, ishlab chiqarish vositalari va ular yordamida olingan maxsulotdan foydalana olmaydi. SHuning uchun mulkiy huquqning normalari

(egalik qilish, ta'sarruf etish, foydalanish huquqi) iqtisodiy munosabatlarni konkretlashtirish shakli hisoblanadi*.

Shunday qilib mulkiy munosabatlar - bu ishlab chiqarish vositalari va ularning yordamida yaratilgan mehnat maxsulini o'zlashtirish borasida kishilarning bir - birlariga bo'lgan munosabatlaridir.

Mulk - jamiyatdagi mavjud moddiy ne'matlarni o'zlashtirishning tarixiy ijtimoiy shaklidir.

Mulk iqtisodiy kategoriya sifatida har qanday ijtimoiy iqtisodiy formatsiyada ishlab chiqarish munosabatlarining asosini tashkil etadi va ularning xususiyatlarini belgilab beradi. Mulk tarixan olganda jamoa sifatida yuzaga keladi, sqng xususiy mulkka aylanadi, nixoyat mexnatkashlar uyushmasi mulkiga qsim o'tadi.

Mulkchilik bu ijtimoiy mehnat maxsulidir, mulkchilikning ijtimoiy iqtisodiy jixatlari bordir. Har bir tarixiy davrda mulkchilik turli xil va butunlay turlicha ijtimoiy munosabatlarda rivojlangan. **Mulkchilikni tavsiflaganda uning iqtisodiy mazmuni xal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu shuni bildiradiki, mulkning tub mazmunini ilmiy tushunish uchun, birinchi galda uning obe'ktlari, (er, mashinalar, binolar, iste'mol buyumlari) yoki ular kimga (alohida shaxslarga, kishilar guruhiga, davlatga) tegishli ekanligini emas, balki ular qanday xususiylashtirilganligini, bu xususiylashtirish, qanday ishlab chiqarish munosabatlari yordamida amalga oshirilganligini tushunish muhimdir.**

Mehnatkashlar uyushmasi mulkni yoki ijtimoiy mulk uyushmaning o'z mulki, ularning o'zlari ham mulk egasi, ham ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Bunday mulk shakli ish kuchi bilan ishlab chiqarish vositalarining to'g'ridan-to'g'ri bir kishini ta'minlaydi, ekspluatatsiyani inkor etadi. Demak, mulk ob'ekti bo'lib inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mehnat maxsuli va mexnat resurslari (ish kuchi) xizmat kiladi.

Mulk ob'ektlari - bu er, er osti boyliklari, ichki suvlar, xavo xavzasi, qsimlik va xayvonot dunyosi, imoratlar, inshootlar, turar joy va kvartiralar, ixtirolar, foydali moddalar, asbob-uskunalar, moddiy va ma'naviy, madaniyat buyumlari, sanoat namunalari, integral mikro chizmalar, pullar, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulklar, topologiya, selektsiya yutuqlari, mahsulot belgilari, ixtirolar, kashfiyotlar, fan, adabiyot, san'at asarlari, insonni unumli va ijodiy mehnat qilish qobiliyatlari, axborot, ilmiy g'oyalar, texnik ishlanmalar va aqliy ijodning boshqa ob'ektlarini yaratish hamda ulardan foydalanish xususidagi munosabatlardir.X)*

Mulkiy huquq sub'ektlari - O'zbekistonda davlat, jumxuriyat fuqorolari, jamolalari, ularning uyushmalari, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar, fuqorolarning oilaviy va boshqa birlashmalari, xalq deputatlarining barcha sovetlari ularning o'zi vakil qilgan organlar siymosida, ajnabiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, boshqa xorijiy yuridik shaxslar va fuqorolar. Turli yuridik shaxslar va fuqorolar bitta mulkning sub'ektlari bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish vositalari kimniki bo'lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot ham unga tegishli bo'ladi. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining birinchi chakiriq 1-sessiyada I.Karimov o'z ma'ruzasida mulkni haqiqiy egalari yo'liga berishni tezlashtirish, tadbirkorlik uchun keng yo'l ochib berish va mulkdorda yangi mulk egasi xissiyotini tarbiyalashda mulkning tub mohiyati qo'rinadi deb aytgan edi.

Prezidentimiz I.Karimov qo'rsatishicha: «Xususiylashtirish sohasida mulkdorga duch qelayotgan muammolarni echish, unga keng yo'l ochib berish, ko'plab

^{1*} (Mulkiy huquq tug'risidagi «Qzbekiston Respublikasida mulkchilik tug'risida»gi qonunga karang. 1990 yil 31oktyabr №152-XII). Birinchi modda.

* X)«Qzbekiston Respublikasida mulkchilik tqg'risida» gi Qz.R-si qonuni Toshkent 1990yil oktyabr 2 modda 31

haqiqiy mulk egalarini tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Birinchi navbatda, tadbirkorlikning qonuniy bazasini mustahkamlash va uning davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishini ta'minlash kerak».

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish 3 xil yqnalishda bo'lishi mumkin.

1. Fuqarolarni mulkga egalik qilish shakllarini ko'paytirib, davlatga bog'liq bo'lmagan kimsalarni yaratish va shunga yarasha xo'jaliklarning ijtimoiy tipini yaratish;

2. Davlat xo'jaligini o'zini markazdan bo'ladiga ma'muriy rahbarlikdan bo'shatish;

3. Xususiylashtirish orqali davlat va davlat kooperativ mulkini bir qismini jamiyatning a'zolariga va jamoalariga topshirish.

I.Karimov 14 fevral kuni 2002 yilda Vazirlar Mahkamasi majlisida so'zlagan nutqida «... Ishni xususiylashtirish dasturiga kirgan konkret yirik korxonalaridan, birinchi navbatda alohida loyixalar bo'yicha xususiylashtiriladigan, avvalo xorijiy investorlarga to'la sotilishi mqljallangan korxonalaridan boshlamog'imiz kerak»

Tadbirkorlarga va bozor munosabatlarini joriy etishga intilayotgan shaxslarga O'zbekiston davlatining faqatgina huquqiy kafolatini berish kifoya emas. SHu huquqlardan va kafolatlardan to'la foydalanish uchun shart-sharoit yaratish bugun kunning bosh masalasidir. Xususiy tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirishga bugun respublikamizning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi omil sifatida qarashimiz va qonunchilik faoliyatimizda bu sohaga xuddi shu nuotai nazardan yondoshmog'imiz darkor.

Biz uchun xususiylashtirishning o'zidan ham, uning ishlab chiqarishni rag'batlantirishi, mehnat mahsuloti sifatini yaxshilash va ko'paytirishdan manfaatdorlikni oshirishi, aholi ehtiyojini qondirishda raqobat muhitini vujudga keltirishi, yakka hokimlikni yo'q qilishi va shu orqali erkin iqtisod paydo bo'lishiga imkon muhim va qimmatliroqdir».

Iqtisodiy salohiyatimizni va daromadimizni yangi bosqichga ko'taradigan **yana bir dolzarb vazifa**, deyiladi, - birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida, - asosiy muammo va ustuvor yqnalish - **tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish**, uning sifatini hamda raqobatga chidashini jahon bozori talablari darajasiga etkazish maqsadida iqtisodiyotda tarkibiy-strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirishdir.

Jahon iqtisodiyotida o'z o'rnini topishga intilayotgan har bir mamlakat, o'zini mustaqil deb hisoblagan har bir davlat o'z iqtisodiyotining etakchi tarmoqlari va yqnalishlarini belgilab olishi, jahon bozorida raqobatga chidamli mahsulotlarni qanday mablag'lardan ishlab chiqarishi zarurligini va bu mahsulotlarning raqobatlasha olishini qanday qilib ta'minlash yo'llarini aniqlab olishdan iboratdir.

Tozirgi bozorga o'tish sharoitida sanoat tarkibidagi korxonalar hali etarli darajada o'zaro raqobatlashayotgani yo'q. Buni mahsulotni etkazib berish bo'yicha shartnomalarni tuzishdagi kamchiliklardan, raqobat darajasining xali etarli emasligidan, iste'molchilar tomonidan buyurtmalarning kechikib tushishidan qo'rish mumkin. Bozor sharoitida korxonalar mustaqil ravishda tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishi lozim. **Davlat tasarrufidan chiqarishning mohiyati shundaki**, jamiyat xayotining barcha sohalarida davlat yakka hokimligini tugatishidir. Lekin bozor hukmiga bo'ysunmagan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni: milliy mudofaa, jamiyatda tartib o'rnatish, tabiatni muxofaza qilish, fundamental fan sohalarini rivojlantirish, iqtisodiy muammolar, tabiiy resurslardan foydalanishdagi qiyinchiliklar va h.o. larni davlat boshqaradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni, ularning shakllarini va tuzilishini, turlarini ko'paytirishning har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy-ma'naviy va ma'naviy rivojlanishini, shaxsning barcha fuqarolik huquqlarini, erkinligining rivojlanishini qayta yaratish lozim.

Bozor mexanizmini shakllantirishning iqtisodiy sharoiti o'z ichiga bank, birja sistemalarini, korxonalar bozorini, iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish davlat

tashkilotlarini oladi. Bank sistemasi bozor iqtisodiyotini yaratib borilishi bilan turli xillarga ajralib ketadi. Kredit va moliya muassasalariga ajratiladi. Keyingi vao'tlarda amal qilayotgan davlat va kommertsiya banklaridan tashqari er, aksioner, kommunal xo'jaligi banklarini yaratish **lozim bo'ladi**.

Kelajakda banklar nazorat qiluvchi tashkilotlar bilan teng huquqga ega bo'lgan iqtisodiy hamkorga aylanib, ularning vazifasi faqat korxonalarining bo'sh turgan pullarini joylashtirishdan tashqari tadbirkorlik ishlarini amalga oshirish va valyutalar bilan savdo qilishdan iborat bo'ladi. Birjalar bozor infratuzilmasining zaruriy elementi sifatida korxonalarining faoliyatini samarador bo'lishini ko'p jihatdan belgilaydi. Xozirgi vao'tda amal qilayotgan tovar, fond, mehnat birjalari korxonalarini resurslar bilan ta'minlash vazifasini o'z zimmalariga to'liq olganlari yo'q. Ular korxonaning iqtisodiy xolatini barometri bo'lolgani yo'q. Bozor munosabatlariga o'tish jarayoni yangicha mulkiy munosabatlarni shakllanib rivojlanib borishiga bog'liqdir.

Bu xil muhim vazifalar xalq xo'jaligining dastlabki ishlab chiqarish bo'g'ini bo'lgan korxonalar, firmalar va turli mulk shakllariga asoslangan tovar ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar faoliyatiga marketing usuli bilan yondoshish orqali muvaffaqiyatli hal etiladi.

8.2. Kapital to'g'risida tushuncha

Kapital - xal qiluvchi iqtisodiy kategoriyalardan biridir. Kapital, biz yuqorida qo'rganimizdek bu kishilar tomonidan boshqa tovarlarni ishlab chiqarish va ishlarni bajarish uchun ilgari yara-tilgan, uzoq davr xizmat qiladigan, barcha ishlab chiqarish vositalarida o'z ifodasini topgan ishlab chiqarish omilidir. Bularga asbob-anjom-lar, dastgohlar, binolar, inshootlar va shunga o'xshashlar kiradi.

Iqtisodiyotda "kapital" tushununchasidan tashqari "investitsiya", "investitsion resurslar" tushunchasi ham ishlatiladi.

"**Kapital**" iborasi ishlab chiqarish vositalarini yaratish uchun katta hajmda sarflangan pul mablag'laridir (yoki kapital qo'yilmalardir).

"**Investitsiya**" - uzoq muddat xizmat qiladigan ishlab chiqarish vositalarini yaratish uchun ajratilgan, mqljallangan lekin hali sarf etilmagan (moddiylashmagan) kapitaldir. Hozirdagi joriy ishlab chiqarishni bir qismi asosiy fondlarni ko'paytirish uchun ishlatilgandagina investitsiya yuzaga keladi.

Boshqacha qilib aytsak, investitsiya - tadbirkorlik va boshqa faoliyat sohaslariga kiritilib, daromad keltiradigan va ijtimoiy samaraga erishishni ta'minlaydigan moddiy va intellektual (aqliy bilim) boyliklardir.*

Kapital:

- mulkdorlar bilan yollangan xodimlar orasidagi munosabatlarni;
- mulkdorlarni o'zlarini o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi.

Kapitalga uch xil ta'rif beriladi:

1. Kapital - o'zi ko'payuvchi qiymat. Bunday ta'rif kapitalning umumiy formulasidan $P-T-P^1$ kelib chiqadi, bunda P^1 - bu dastlab avanslangan kapital (P) bilan qo'shimcha qiymat yig'indisidir.

2. Kapital - bu buyum emas, ma'lum darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ular buyumlarda ifodalanadi va ularga ijtimoiy tus beradi (mashinalar, binolar, pullar va x.k.lar). Ulardan yollangan ishchi kuchi yordamida foydalanilgandagina kapital bo'la oladi. Kapital o'z egasiga foyda keltirishi zarur.

3. Kapital - bu harakat, tqxgovsiz aylanish jarayonidir. Unga jim yotgan buyum sifatida emas, faqat xarakatdagi narsa deb tushunish lozim.

Iqtisodiyot nazariyasi kapitalni quyidagi turlarini ajratadi:

1. Moliyaviy (pul) kapitali-ma'lum qiymatga ega bo'lgan pul va qimmatbaxo qog'ozlarning yig'indisidir.

2. Jismoniy (texnikaviy) kapital. Bunday kapital bo'lib ishlab chiqarishning turli xil bosqichlarida ishlatiladigan va insonning mehnat unumdorligini oshiradigan (stanoklar, binolar, kompyuterlar va shunga o'xshashlar) moddiy vositalar yig'indisi hisoblanadi.

Ular investitsiyalarning natijasi bo'lib ma'lum davr mobaynida daromad keltirib turadi.

* V.A.Kalashnikov. slovar rinochnoy ekonomiki. M.1993s21.

Jismoniy kapital - ayrim qimmatbaxo qog'ozlardan foydalanish bo'yicha huquqlar majmuasidir. Lekin bu huquqlar uning egasiga hech qanday mehnat xarajatsiz daromad keltiradi. Boshqacha qilib aytsak, jismoniy kapital tovarlar ishlab chiqarish va ishlarni bajarishda ishtirok etadigan, ilgari ishlab chiqarilgan tovar zaxiralaridir. **Kapital qo'yimalari xarajat sifatida quyidagi ishlarga mqljallangan bo'ladi:**

- ishlab chiqarish ob'ektlarini qurishga;
- noishlab chiqarish ob'ektlarini qurishga, yaratishga.

Masalan, madaniy-maishiy muassasalarni yaratish, ma'muriy binolarni qurish, loyixa-tadqiqot va geologik qidiruv ishlari uchun va x.k.

Demak, iqtisodiyot tqplagan asosiy fondlar - texnika vositalari, binolar, televizorlar, temir yo'llar, somalyotlar va x.k.larning umumiy zaxirasi **jismoniy kapital hisoblanadi. Asosiy fondlar investitsiya xarajatlari yoki kapital qo'yimalari hisobiga ko'payib boradi. Jismoniy kapitalni erdan farqi shuki er fondi ko'paymaydi.** Erning miqdori cheklangan, u tabiat bergan ne'mat, u qayta ishlab chiqarilmaydi. Lekin u xam ishlab chiqarish omilidir. **Amaliyotda ular o'rtasidagi farqni ajratish qiyin.**

3. Insoniy kapital. Bu shunday qo'yimalarki, ular kishilarning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini ko'paytirishga olib keladi. "Kapital" tushunchasi har xil olimlar tomonidan o'z davriga, ular-ning tushunchasiga, kapitaldan foydalanish maqsadiga qarab turlicha talqin etilgan. **Insoniy kapital bu kishilarda tqplangan daromad keltira olish qobiliyatidir. Insoniy kapital** - tug'ma iqtidor va qobiliyatni, shijoatni, shuningdek bilim va olingan kasb malakasini o'zida tqplagan bo'ladi. Inson kapitali ham mashina va dastgohlarga o'xshash inson o'zi uchun o'zi yoki ota-onalari yordamida qqishi uchun, malakasini oshirish uchun investitsiya xarajatlari hisobiga yaratiladi. **Insoniy kapital** uchun investitsiyalar vao't o'tishi bilan ko'proq foyda keltiradigan, qoniqish hosil qiladigan ishlarni bajarish va yuqori darajada mexnat haqi olish hisobiga qoplanib ketadi.

Ayrim olimlar (merkantelistlar) millatning boyligi savdoda, ya'ni muomala sohasida deb qarab kapital tushunchasini shundan keltirib chiqarishgan.

Qancha ko'p tovar sotilsa, qimmatga sotilsa foyda shuncha ko'p bo'ladi, demak kapital - bu pul, oltin deb qarashgan. Ular muomala jarayonida ko'payib boradi.

Fizokratlar - boyluk muomala jarayonida emas, ishlab chiqarish sohasida, faqat qishloq xo'jaligi va dehqonchilikda deb hisob-lashgan. Ular fikricha kapital - bu erga sarflangan mablag'lardir. Bu xil kishilar sanoat va savdoni unumsiz soha deb hisoblashgan.

Ingliz klassiklari kapital tushunchasini sanoatga ham qo'lla-ganlar. «Iqtisodiyot nazariyasi» asoschilaridan biri A.Smit (1723-1790y) kapitalni keyinchalik ishlab chiqarishni yurgazish uchun mqljallangan zaxiralar; mehnatni ishga soladigan kuch deb qaragan. D.Rikardo fikricha kapital - bu mehnatni xarakatga keltiruvchi barcha vositalar: oziq-ovqat, kiyim-bosh, asbob-anjomlar, mashina-lar va xokazolar bo'lib ishlab chiqarishda ishlatiladi va mamlakat boyligining bir qismini tashkil etadi.

Lekin xulosa qilib aytadigan bo'lsak, barcha iqtisodchilar-ning yagona fikri shundaki, bir tomondan kapital - bu mehnat bilan yaratilgan va tovarlarni ishlab chiqarish, xizmat ishlarini bajarish uchun ishlatiladigan barcha ne'matlardir va ikkinchi tomondan bu ne'matlar daromad keltirish qobiliyatiga ega.

SHunday qilib kapital, keltirilgan, yaratilgan vao'tdan boshlab ishlab chiqarishda uzoq yillar xizmat qiluvchi ishlab chiqarish omilidir.

Kapital va er birgalikda mamlakat moddiy boyligini tash-kil etadi. Ular uzoq davr mobaynida ishlatiladi va ma'lum qiymatga ega bo'ladi. **Lekin moliyaviy boyluk moddiy boylukdan farq qiladi.**

Masalan, birorta aniq firmaning 100-ta aksiyasiga ega bo'lgan kishi uchun bu moliyaviy kapital. Uning aksiya sertifikatlari qiymatga ega, chunki ular moddiy

boylikka egalik qilish huquqini beradi, lekin sertifikatning o'zi moddiy boylik emas. Sertifikat yordamida, masalan avtomobil ishlab chiqarib bo'lmaydi. **Moddiy boyliklarning bugungi qiymati, ularning kelajakda nima yaratishiga bog'liq.**

Shuning uchun bugungi kundagi ishlab chiqarish dastgohlari, bino, inshootlar va boshqalarga **sarf qilingan kapital mablag'lari miqdorini kelasi davrlarda olinadigan qo'shimcha foyda miqdori bilan taqqoslash zarur bo'ladi. Firmalar bir qarorga kelishdan avval ana shu masalalar ustida qylab qo'rib, kelasi davrda olinadigan foyda qanchaga tushadi degan savolga javob topishlari kerak bo'ladi.** Lekin yollangan ish kuchini jalb etishda, xom'ashyo materiallarni sotib olishda bunday muammolar paydo bo'lmaydi... Kelasi davrda olinadigan daromad xozirgi vao'tda qancha turadi, uning hozirgi qiymati qancha degan masalalar firmalarni kapital qo'yilmalar to'g'risida bir qarorga kelishi jarayonidagi ilmiy izlanishlarining asosini tashkil etadi. Bunday qarorlarning ko'plari hozirgi davrdagi harajatlar va kelasi davrdagi foydani tahlil qilishdan iboratdir. Biz qo'ramizki, firma o'z harajatlarini qoplay oladimi yoki yo'qmi, **ko'pincha kapital mablag'lari hisobiga olinadigan foydani oldindan aytish qiyin, amalda ular kutilgandan ko'p yoki kam bo'lib qolishi ham mumkin.** Bu erda vao't omili muxim axamiyatga egadir. Masalan, kqmir, temir rudasi va x.k.larni qazib chiqarish yoki o'rmon yog'ochlarini olish uchun ularni ekkani vao'tdan to tayyor yog'och, yog'och materiali bo'lguncha qancha vao't o'tib ketadi. Meneral xom ashyo resurslari zaxirasi qazib olinishi bilan kamayib boradi, ularni to'ldirib bo'lmaydi. SHunda sarflangan kapital mablag'larining qaytimi (foydasi) qanday bo'ladi degan savollarni o'rganishga to'g'ri keladi.

8.3. Korxonaning asosiy kapitali va ularning tuzilishi

Hozirgi zamon iqtisodiyoti kapitalni asosiy kapital va aylanma kapitalga ajratadi. **A.Smitning fikricha, asosiy kapital** - bu o'z egasi ixtiyorida qolib foyda keltiradigan kapitaldir. **Aylanma kapitali** - bu mulk egasi ixtiyoridan chiqib ketuvchi ne'matdir. Masalan ish beruvchi chorva bu asosiy kapital, agar u bozorda sotilsa aylanma kapitaliga aylanadi. Demak, A.Smit aylanma kapitali deganda savdo kapitalini yoki tovar qo'rinishidagi kapitalni tushungan.

D.Rikardo esa kapitalni uzoq davr xizmat qilishiga qarab asosiy va aylanma kapitaliga ajratgan. Lekin D.Rikardo A.Smitdan farq qilib aylanma kapitalidan xom'ashyo, material xarajatlarini chiqarib tashlab, uni faqat mehnat (ish kuchi) xarajatlariga teng qilib qo'yadi.

Asosiy kapital deb - bir necha ishlab chiqarish davrlarida, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib, mahsulotga o'z qiymatini asta-sekin bo'laklar o'tkazib natural qo'rinishini saqlab qoladigan barcha mehnat vositalariga aytiladi. Asosiy kapitalga xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan vositalar kiritiladi. Bir yildan kam xizmat qiluvchi vositalar aylanma kapitalga kiritiladi.

Lekin mehnat vositalarining qiymatga ega bo'lgan bo'laklarining ichida asosiy fondlarga kiritilmaydiganlari ham bor. Masalan, texnologik jarayonlarda mehnat buyumlariga ta'sir etuvchi elektr energiyasi, o'z mohiyati bilan mehnat vositasi bo'lib, asosiy fondlarga kiritilmaydi. Mineral va boshqa

6-jadval

Asosiy ishlab chiqarish fondlari tarkibi

Gruh-lar	Fondlar guruhi	Fondlar tarkibi
I.	Binolar	Ishlab chiqarish jarayoniga zarur bo'lgan sharoitini yaratib beradigan ishlab chiqarish vositalari va mashina, uskunalarni tashqi atmosfera ta'siridan saqlaydigan ishlab chiqarish binolari.
II.	Inshoatlar	Kon inshoatlari, neft va gaz quvurlari va minoralar suv, texnikaviy qurilmalar-ko'priklar, kanallar, suv tarqatuvchi va suv oluvchi inshoatlar.
III.	Uzatuvchi uskunalari	Transport qurilmalari-ko'priklar, yo'llar, elektr uzatuvchi va aloqa (telefon, radio) qurilmalari, truboprovodlar, vodoprovod va kanalizatsiya shaxobchalari.
IV.	Mashina va dastgoxlar:	
a)	kuch beruvchi mashina va uskunalari	Bug' qozonlari, dizellar, turbinalar, generatorlar, transformatorlar, elektromotorlar.
b)	ishchi mashinalari va dastgoxlar;	Metal va yog'ochni qayta ishlovchi stanoklar, agregatlar, apparatlar, pechlar, qurutuvchi agregatlar va boshqalar.
v)	qilchov sozlovchi boblar qurilmalar, laboratoriya uskunalari;	Tezlikni, issiqlik bosimini avtomatik ravishda boshqaradigan priborlar va apparatlar, boshqarish pulti, dispetcherlik vositalari.
g)	hisoblash texnikasi	Kompyuterlar, EXMlar
V.	Transport vositalari	Xomashyo, materiallarni, tayyor mahsulotlarni, ishlov-chilarni tsexda va zavoddan tashqarida tashuv vositalari (konveyrlar, transporterlar, avtomobillar, tayagachlar, parovozlar, vagonlar, poroxodlar va boshqalar).
VI.	Boshqa asosiy fondlar	Bir yildan ziyod xizmat qiladigan asbob-anjomlar, ishlab chiqarish va xo'jalik inventori - qiroatxona fondi, muzey mablag'lari, o'qov xonalari, ish stollari, laboratoriya investori.

qog'itlar o'z qiymatini mahsulotga kqchirishga qo'ra asosiy fondlarga kiritilishi kerak, lekin ular mehnat buyumlarining bo'lagi sifatida yordamchi materiallarga kiradi.

Mamlakat sanoatining asosiy fondlari ikki katta guruhga bo'linadi:

I. Asosiy ishlab chiqarish fondlari;

II. Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan asosiy fondlar. Bu turdagi asosiy fondlarga uzoq muddat xizmat qiluvchi korxonalar va sanoat tarmoqlari ixtiyorida bo'lgan uy-joy binolari, madaniyat binolari, bolalar yasli, bog'chasi, komunal-xo'jalik, maktab binolari kiradi. Ular to'g'ridan-to'g'ri mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) jarayonida qatnashmasalar ham mehnatkashlarning madaniy maishiy talablarini qondirishda qatnashadilar.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari nihoyatda xilma-xil bo'lib, turli xildagi ishlab chiqarish vazifalarini bajarganliklari tufayli ularni turlarga ajratib o'rganish zarur bo'ladi. Ularni turlash asosiy ishlab chiqarish fondlarini uchyotga olish, takror ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarishda yaxshi foydalanishni ta'minlash uchun kerak bo'ladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarini guruxlar bo'yicha qisqacha tarkibni quyida keltiramiz:

O'zbekiston sanoati asosiy fondlarining tuzilishi

Asosiy fondlar	Salmog'i, %
Barcha asosiy fondlar	100,0
Passiv qismi:	46,3
I. - Binolar	26,7
II. - Inshoatlar	19,8
Aktiv qismi:	53,5
III. - Uzatuvchi uskunalalar	10,3
VI. - Mashina va dastgohlar ja'mi, shundan:	51,1
- Kuch beruvchi mashina va dastgohlar	7,4
- Ishchi mashina va dastgohlar	29,7
- Qlchov va boshqaruv dastgohlari	1,7
- Hisoblash texnikasi	2,0
V. - Transport vositalari	2,0
VI. - Boshqa xil asosiy ishlab chiqarish fondlari (AIF)	1,0

Korxonalarining boshqa xil asosiy fondlari tarkibiga quyidagi vositalar kiradi:

- Mulkka egalik qilish huquqi asosida unga tegishli bo'lgan er maydonlari va tabiatni muhofaza qilish ob'ektlari (suv, er osti boyliklari va boshqa resurslar);
- Ishlab chiqarish, xo'jalik ichidagi yo'llar va xo'jalik investorlari;
- Asosiy fondlar tarkibiga kiruvchi erlarni va ishoraga olingan binolar, inshoatlar, dastgohlar va boshqa ob'ektlarni yaxshilash uchun ajratilgan kapital qo'yilmalar.

Asosiy kapital yoki ishlab chiqarish fondlarining «mashina va dastgohlar» guruhi ularning umumiy hajmida 40,8 % bo'lsa, shundan eng ko'pi masalan, 29,7 % ishchi (kuch beruvchi) mashinalari va dastgohlariga to'g'ri keladi. Boshqa qolgan qismi - qlchov asboblari va laboratoriya uskunalariga, hisoblash texnikasi. Avtomatik ishchi mashinalari va dastgohlariga ham mashina va dastgohlar guruhiga kiradi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilishi turli xil omillar ta'sirida o'zgarib turadi:

1. Ishlab chiqarish va texnikaning xususiyatlari;
2. Ishlab chiqarishni kontsentratsiyalashtirish, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish;
3. Ishlab chiqarishda texnika taraqqiyoti darajasi;
4. Amal qilayotgan korxonalarini rekonstruksiya qilish, kengaytirish, asosiy fondini qayta yangilash, yangi korxonalarini qurish;
5. Iqtisodiyotimizda kichik va xususiy korxonalarini ko'plab yaratilishi;
6. Qurilish ishlarini industrial asosga kqchirish;
7. Sanoatni geografik jixatdan ratsional joylashtirish.

Asosiy fondlarni eski-ma'naviy va jismoniy emirilganlari o'rniga yangilarini kiritish yo'li bilan sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatini oshirib boriladi. Asosiy fondlarni yangilash koeffitsenti shu davrda kiritilgan asosiy fondlar xajmini (Fk) ularni yil oxiridagi umumiy qiymatiga (Fy.o) nisbati bilan topiladi:

$$\Phi_{Я.К} = \frac{\Phi_{К}}{\Phi_{\dot{y}.o}};$$

Korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlari tarkibida uning eng aktiv qismi - ishchi mashina va dastgoxlari salmog'i nisbatan yuqori bo'lsa korxonada quvvati ham ko'p bo'ladi.

Asosiy kapital mamlakat iqtisodiy potentsialini, qudratini belgilaydi. SHuning uchun asosiy kapitalni yangi-yangi kapital qo'yilmalari yoki investitsiyalar hisobiga yaratib kelinadi.

8.4. Korxonani ishlab chiqarish quvvati va uni hisoblash

Korxonaning quvvati asosiy ishlab chiqarish fondlari tarkibidagi kuch beruvchi va ishchi mashinalarining miqdoriga, salmog'iga, ularning unumdorlik darajasiga bog'liq bo'ldi.

Korxonaning quvvati deb, dastgoh va ishlab chiqarish maydonlaridan, ilg'or texnologiya, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning ilg'or usullaridan to'liq foydalangan sharoitda yiliga (yoki har sutka, smenada) korxonaning eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish yoki xom ashyoni qayta ishlash imkoniyatiga aytiladi.

Korxonaning quvvati mahsulot qaysi birlikda hisoblansa shu birliklarda aniqlanadi. Korxonaning quvvati bazis yoki reja davriga nisbatan foiz hisobida ham ifodalanadi.

Masalan, shaxtalarda, tsement korxonalarida, metallurgiya, neft sanoati va boshqa korxonalarda tonna hisobida, avtomobil ishlab chiqarish, g'isht ishlab chiqarishda dona; tekstil korxonalarida m. gazmollar, charm mahsulotlari ishlab chiqarishda kv. dtsm-da va x.k.

Bir necha turda mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda shartli – natural qo'rsatkichlar ishlatiladi. Masalan, tsement, traktor, sovun va boshqa xil mahsulotlar ishlab chiqarishda. Korxonaning quvvati yil davomida ko'payib, kamayib turadi. SHuning uchun korxonaning haqiqiy mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini bilish uchun yillik o'rtacha quvvat reja davrining boshida amal qilayotgan korxonalarda quyidagi tartibda hisoblab topiladi.

O'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvatini ($Q_{o'y}$) hisoblashda yil boshida bor bo'lgan quvvatga (Q_b) o'rtacha kiritiladigan yillik quvvat (Q_{kq}) qo'shib o'rtacha chiqariladigan yillik quvvat (Q_{chq}) miqdori ayiriladi. Kiritiladigan va chiqariladigan quvvatlar yil o'rtasida bo'lsa ularni ishlagan va ishlamagan oylari hisobga olinadi (T_{ish}):

$$Q_{o'y} = Q_b + \frac{K_{ky} \cdot T_{ish}}{12} - \frac{K_{cy} (12 - T_{ish})}{12}$$

Buning uchun ma'lumotlar korxonaning quvvat balansida berilgan bo'ladi. Agar kiritiladigan va chiqariladigan quvvatlarning vaq'ti noma'lum bo'lsa, ularning o'rtacha yillik miqdori 0,35 darajasida olinadi. Bu qabul qilingan yagona normativdir.

Buning uchun quvvat balansini axborotlaridan foydalanish zarur.

Ishlab chiqarish quvvati va uning o'zgarishi

Qo'rsatkichlar	Qatorlar tartibi	Bazis yili	Reja davri (yilga ming tonna)
			3
I. Yil boshidagi quvvat	1	1000	1380
II. Quvvatning qisishi:			
a) texnikaviy qayta qurish, yangi mahsulot turlarini o'zgartirish va tashkiliy-texnik choralar hisbiga;	2	100	110
b) rekonstruktsiya hisobiga.		50	60
III. Quvvatning kamayishi	3	20	50
IV. O'rtacha yillik quvvat (1 qator+2+3-4 qatorlar). 0,35	4	1045,5	1422
V. O'rtacha yillik quvvatdan foydala-nish koefitsienti.	5	0,98	0,96
VI. Ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi (5 qator x 6 qator)	6	1024,5	1365,1
VII. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	7	950	1150
VIII. Xaqiqatda quvvatdan foydala-nish darajasi (7 qat; 4 qat-ga)	8	0,91	0,81
XI. Rezerv quvvati (yo'qotilgan quvvat (4 qat. - 7 qat.))	9	95	272

Bu jadvalda reja davrining boshiga normativ quvvati o'zlashtirib bo'lingan quvvatlar hisobidan olinadigan mahsulot hajmini hisoblash misoli keltirilgan.

Ishlab chiqarish quvvati balansi quyidagilarni ifoda etadi:

$$Q = Q_b + O't_{ex} + O'r + Q_{yao'r} + Q_{nq} - Q_{chk}$$

Q_b - yil boshidagi quvvat;

$O't_{ex}$ - ishlab chiqarishni texnikaviy qayta qurish hisobiga quvvatni ko'payishi;

$O'r$ - ishlab turgan korxonani rekonstruktsiya qilish hisobiga kiritiladigan quvvat;

$Q_{yao'r}$ - yangi korxonalarni qurish va eskilarini rekonstruktsiya qilish hisobiga

kiritiladigan quvvat ($\frac{+}{-}$);

Q_{nq} - mahsulot turi va navini o'zgarishi natijasida quvvatning ko'payishi yoki pasayishi;

Q_{chk} - chiqariladigan quvvat hisobiga quvvatni kamayishi.

Ishlab turgan quvvat hisobidan olish mumkin bo'lmagan mahsulot miqdorini ishlab chiqarish uchun yangi, qo'shimcha kiritiladigan quvvatlarni aniqlash zarur.

$$Q_{o'r,y,q} = \frac{Q_{k.k.} - \sum Q_{y.k.k.}}{K_{l.y.u3}} \times 100$$

Bunda:

$Q_{o'z,y,q}$ - har bir yil bo'yicha zarur bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun kiritiladigan o'rtacha yillik quvvat;

$Q_{q,q}$ - qo'shimcha quvvat zarur bo'lgan mahsulot hajmi;

$\sum Q_{q,q}$ - o'rtacha (avvalgi) kiritilgan quvvat hisobiga (quvvatni o'zlashtirish darajasini hisobga olgan holda) shu yili olinadigan mahsulot miqdori;

$Q_{q.o'z}$ - Har bir mahsulot turi bo'yicha, loyihadagi quvvatni o'zlash-tirish darajasini hisobga olgan holda, yangi kiritilgan quvvatni o'zlashtirish darajasi, (koeffitsienti, %).

O'rtacha ishlab chiqarish quvvati darajasini hisoblashda, shunga asosan 1 yanvardan keyin yangi quvvat hisobidan olinadigan mahsulot hajmi kiritiladigan quvvatni o'zlashtirish muddati koeffitsienti 0,35 ga teng deb qabul qilingan (Q_{yak}); y quyidagicha topiladi:

$$Q_{ya.q.} = \frac{K_{yp.k.} \cdot K_{k.y.z.}}{100}$$

Bunda:

$Q_{o'r.q.}$ - shu yili kiritiladigan o'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati.

Quvvat balansi yordamida o'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati, reja darajasidagi quvvat va undan foydalanish koeffitsienti hisoblanadi. Natijada yillik zarur bo'lgan mahsulot hajmi (Q_r) - rejadagi ishlab chiqarish quvvatini (M_s) undan foydalanish koeffitsientiga (K_f) ko'paytirish bilan topiladi:

$$Q_r = M_s \times K_f$$

Dastgohlar, stanoklar, agregatlar quvvatidan foydalanish darajasi rejadagi (yoki haqiqiy) ishlab chiqarish hajmini o'rtacha yillik quvvat miqdoriga nisbati bilan topiladi.

$$K_f = \frac{Q}{M_c}$$

Bu koeffitsient 1 (bir)ga yaqinlashgan sari ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi yuqori bo'lib boradi.

Ishlab chiqarish quvvatining miqdori korxonada, tsex va ishlab chiqarish uchastkalarida mahsulot ishlab chiqarish topshiriqlarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Har qanday turdagi korxonada quvvati quyidagi ma'lumotlar asosida topiladi:

1. Dastgohlar soni, unumdorligi va tarkibi. Tarkibi bo'yicha korxonalaridagi barcha dastgohlar: **mavjud bo'lgan, o'rnatilgan, ishlab turgan va rezervdagi dastgohlarga ajratiladi.**

Rezervdagi dastgohlarga – ta'mirlashga muxtoj bo'lganlarini almashtirish uchun mqljallangan dastgohlar kiritiladi. Ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda barcha o'rnatilgan dastgohlar (shu jumladan ta'mirlash uchun ajratilganlari ham) va shuningdek reja davrida ishlab chiqarishga kiritiladiganlari ham qo'shiladi.

Rezervdagi dastgohlar quvvatni aniqlashda hisobga olinmaydi.

2. **Dastgohlardan foydalanishning ilg'or texnik-iqtisodiy norma va normativlari.**

3. **Ishlab chiqariladigan mahsulot turlari, navi va ularning mehnat salmog'i.**

4. **Dastgohlarni ish vao'ti fondi.** Dastgohlarni ish vao'tining uzunligi (smenalar soni, smenadagi ish vao'tining uzunligi, bir yildagi ish kunlari va boshqalar) ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy elementlaridan biridir. Har bir aniq holatda dastgohlarni optimal rejimda ishlashini aniqlash lozim, chunki **dastgohlarni ish vao'ti fondi: kalendar kunlardagi, rejimdagi va foydali (rejadagi) ish vao'ti fondiga ajratiladi.**

- **Kalendar ish vao'ti fondi:**

$$F_k = K_k \cdot S_s$$

Bunda, K_k – kalendar kunlar;

S_s – sutkadagi smena soatlari;

F_k – kalendar kunlaridagi ish vao'ti fondi.

- **Rejimdagi ish vao'ti fondi:**

$$F_r = [(F_{sm} \cdot (365 - K_d - K_b) - t_u \cdot K_b \cdot g) \cdot S_{sm}]$$

Bunda, F_{sm} – smena vao'tining uzunligi;

K_d K_b – reja davridagi dam olish va bayram kunlari (bir yildagi);

t_u – bayram oldi kunlarida ishlanmaydigan soatlar;

S_{sm} – smenalar soni.

- **Foydali (haqiqiy) ish vao'ti fondi (F_f):**

a) uzluksiz ishlab chiqarishlar uchun,

$$F_f = F_k - (T_{d.k} - T_{r.o})$$

b) uzlukli ishlab chiqarishlar uchun:

$$F_f = F_r - (T_{d.k} + T_{r.o.}) \text{ yoki } F_f = F_r \cdot \left(1 - \frac{\alpha}{100}\right)$$

Bunda, $T_{d.k}$ – dastgohlarni kapital ta'mirlash uchun ajratilgan vao't;

$T_{r.o}$ – dastgohlarni rejaga qo'ra ogohlantiruvchi ta'mirlash ishlari uchun ajratilgan vao't;

α - ta'mirlash uchun tqxtatish vao'ti, %.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati uning etakchi – tayyor mahsulotni ishlab chiqaruvchi tsexlari, etakchi (xal qiluvchi) ishlab chiqarish uchastkalari, agregatlari va dastgohlari quvvati bo'yicha aniqlanadi.

8.5. Korxonaning asosiy kapitali va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish samaradorligi

Asosiy kapitaldan foydalanishni yaxshilash-intensivlashti-rishning va ijtimoiy mehnatning iqtisodiy samaradorligini oshi-rishning asosiy omillaridan biridir. Bu mehnat unumdorligini, ishlab chiqarishning rentabellik darajasini, oshirishga milliy daromadning qisishiga, asosiy fondlarning aylanishini tezlashishiga, jismoniy va ma'naviy eskirish davrining yaqinlashishiga, ularni tezroq yangilashga va takomillashtirishga sharoit yaratadi. SHuning uchun asosiy fondlardan va ishlab chiqarish quvvatlaridan yaxshi foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning umumlashgan qo'rsatkichlari - fond qaytimi, fond rentabelligi, fond zichligi kabilardir. Bir so'mlik asosiy fondlar hisobidan olinadigan mahsulot miqdori quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$F_q = \frac{Q}{\Phi_{ac}}$$

bu erda: F_q - asosiy fondlarning har bir so'miga ishlab chiqarilgan mahsulot, so'm;

Q - yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot (sotiladi-gan normativ sof mahsulot) so'm;

F_{as} - asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymati, so'm.

Fond zichligi - fond qiymatining aksidir:

$$F_z = \frac{\Phi_{ac}}{Q}$$

Fond rentabelligi (F_r) qo'rsatkichi korxonaning umumiy yillik foydasini – ($MR(Q)$) – asosiy fondlar qiymatiga nisbati bilan quyidagi usulda topiladi:

$$F_r = \frac{MR(Q)}{\Phi_{ac}} \cdot 100$$

bunda: F_r – fond rentabelligi qo'rsatkichi;

$MR(Q)$ – korxonaning umumiy foydasi, so'm;

Asosiy fondlarning passiv qismi, binolarning ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish darajasi ishlab chiqarish maydonining har bir kvadrat metriga to'g'ri keladigan mahsulot miqd orini ifodalovchi qo'rsatkich qo'llaniladi va u quyidagi formulada bilan topiladi:

$$M_q = \frac{Q_R}{I_M}$$

bu erda: M_q - 1 kv.m maydonda ishlab chiqariladigan mahsulot, so'm;

Q_{Ya} - yalpi mahsulot miqdori, so'm;

I_m - ishlab chiqarish maydoni (kv.m).

Bu qo'rsatkich faqat asosiy fondlarning passiv qismidan foydalanishni ifodalamasdan, balki asbob-uskunalardan foydalanish darajasini ham qo'rsatadi. Har kv.m maydondan olinayotgan mahsulot miqdori qancha ko'p bo'lsa, maydonlardan va o'rnatilgan uskunalardan yaxshi foydalanilayotganlikdan dalolat beradi.

Amaliyotda umumiy bo'lgan qiymat qo'rsatkichlardan tashqari har bir tarmoq va korxonada xususiyatini hisobga olgan holda bir qancha **natural ko'rsatkichlar ham ishlatiladi**. Masalan, domna pechlardan foydalanish darajasini aniqlashda bir tonna chqyan ishlab chiqarish uchun domna pechning kub.m.dagi foydali xajmidan foydalanish koef-fitsienti ishlatiladi; kqmir sanoatida bitta kombaynning bir oylik kqmir qazish miqdori, yoki metr hisobida kqmir qazib borish tezligi; elektrstantsiyalarda turbinalarni bir yildagi ishlash vaq'ti; mashina-sozlikda bitta mashinaning natura birligidagi

unumdorligi; yoki $1m^2$ ishlab chiqarish maydonidan olinadigan mahsulot hajmi (soat, smena, sutka yoki bir yilga); tsement sanoatida - vao't birligi ichidagi tsement pechlari va tegirmonlarining tonna hisobidagi unumdorligi va x.k.

Natural qo'rsatkichlarga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- dastgoxlar unumdorligini qshishi;
- mashinalarni bekorchi turib qolish vao'tini kamayishi;
- mashinalarni ishlatish darajasi, texnikaviy takomillash-tirish va boshqalar.

Albatta iqtisodiy tahlil qilishda va yuqoridagi qo'rsatkichlarni boholashda ularga ta'sir etuvchi omillar darajasi hisobga olinadi.

Asosiy fondlarni yaratish, kengaytirib, yangilab borish, doimo moliyaviy harajatlar shaklida ularni investitsiyalashni talab qiladi. SHuning uchun har qanday korxonalar yoki firma shu investitsion harajatlarni oqlashi va iqtisodiy foyda olishi uchun o'zining shunday uzoq muddatli xarajatlarini strategiyasini aniq belgilab olishi lozim. Asosiy fondlarni yangilash, ko'paytirish ishlari yoki investitsion loyihalarni iqtisodiy asoslash qiyin va murakkab bo'lgan iqtisodiy jarayondir.

Shuning uchun avvalo investitsion loyihalarni tanlashda **quyidagi savollarga javob topish zarur:**

1. Tanlangan alternativani amalga oshirish uchun qanday qo'shimcha fondlar talab etiladi;
2. Bor bo'lgan, mavjud daromaddan tashqari yana qancha qo'shimcha daromad olinadi?
3. Qabul qilingan qaror natijasida qanday xarajatlar ko'payadi yoki kamayadi.

Investitsion loyihalarni aniqlashni iqtisodiy baxolash bir qator qo'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan investitsiyani yoki kapital qo'yilmalarni qoplash muddatini aniqlash zarur bo'ladi. Buning uchun kapital qo'yilmalar miqdorini (K) yillik maksimal foyda miqdoriga (MR (Q) - ga) nisbati olinadi:

$$Tx = \frac{K}{MR(Q)}; \quad \text{yoki} \quad Tx \cdot \phi = \frac{K}{P - Xm} ; \quad Tx = \frac{K}{Xm_1 - Xm_2} ;$$

Bunda: X_1, X_2 chora-tadbirlar amalga oshirilmasdan avvalgi va oshirilgandan keyingi mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari. Natijada dastlabki xarajatlarni qoplash muddati (oy, yil) topiladi. Lekin bu qo'rsatkich tanlangan investitsiya loyahasini foydaliligini aniq qo'rsatmaydi. **Kapital qo'yilmalarini rentabelligi darajasi:**

$$\Phi_p = \frac{MR(Q)}{K} \times 100\% , \quad \text{ham samaradorlikni juda aniq ifoda etmaydi, chunki bunda}$$

investitsion loyihaning hayotiy davri hisobga olinmaydi.

Loyiha variantlarining foydaliligi bir xil bo'lishi mumkin, vaxolangki loyihani hayot davri bir necha yillarda farq qiladi.

Amaliyotda ko'pincha loyiha variantlari samaradorligini quyidagi keltirilgan xarajatlar mezoni (kriteriysi) bilan aniqlanadi.

$$X + En \cdot K \rightarrow \min .$$

Bunda: X - yillik mahsulot tannarxi;

En - sanoat tarmoqlari uchun qabul qilingan samaradorlikni normadagi koeffitsienti; 0,15 ga teng deb olingan.

Maxsus fanlar xalqaro amaliyotda investitsion loyihalarni asoslashning boshqa masalalarini batafsil o'rgatadilar. SHuning uchun biz bu to'g'ridagi fikrimizni shu erda tqxtatamiz.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish shu korxonalar uchun ham mamlakat iqtisodiyoti uchun ham **xal qiluvchi iqtisodiy ahamiyatga egadir.**

Ishlab chiqarish quvvatidan to'liq va samarali foydalanish bu resurslardan foydalanish demakdir. Masalan, O'zbekistonda 6-ta tsement korxonasi bo'lib, ularning

yillik umumiy quvvati **6830 ming tonna** (shundan «Qizilqumtsement» korxonasi quvvati 3300 ming tonnadir). 1990 yili undan foydalanish 96,2 % bo'lgan edi. Lekin keyingi yillarda boshqa sanoat tarmoqlaridek tsement korxonalari quvvatidan foydalanish ham O'zbekiston bo'yicha pasayib ketdi.

1998-2002 yillardagi statistik axborotlar asosida quvvatdan foydalanish qo'rsatkichlarini O'zbekiston tsement sanoati misolida qo'rish mumkin:

9-jadval

O'zbekiston tsement sanoatining ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi*

Yillar	Tsement ming tonna	Quvvatdan foydalanish darajasi, (%)
1998	3357	48,7
1999	3331	48,3
2000	3285	47,7
2001	3722	54,0
2002	3750	55,0
2003	3760	56,0

Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish programmasi shu davrdagi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini qo'rsatadi.

Bu qo'rsatkich reja bo'yicha va haqiqiy bo'lishi mumkin. **Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini quvvat miqdoriga nisbati quvvatdan foydalanishning haqiqiy darajasini ifodalaydi. Quvvat miqdori bilan haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot orasidagi farq ishlab chiqarishni oshirishning qo'shimcha imkoniyatlari ya'ni rezervlari hisoblanadi.**

Dastgohlardan foydalanish qo'rsatkichlari. Ular ikki guruhga bo'linadi: Ekstensiv va intensiv qo'rsatkichlar.

I. Ekstensiv, ya'ni dastgohlarni ish vao'ti fondidan foydalanish koeffitsienti.

$$K_{\text{ekst}} = \frac{T_x}{T_p}$$

T - haqiqiy va rejadagi ish vao'ti fondi;

II. Intensiv foydalanish koeffitsienti, ya'ni dastgohlar quvvatidan foydalanish darajasi.

$$K_{\text{int}} = \frac{U_x}{U_p \cdot (II_n)}$$

U_x - vao't birligi ichidagi haqiqiy unumdorlik;

U_p - shu dastgohning pasportidagi unumdorlik;

U_n - ilg'or texnikaviy norma darajasidagi unumdorlik.

- Dastgohlardan integral foydalanish koeffitsienti.

$$K_{\text{integr.}} = K_{\text{eks}} \cdot K_{\text{int}}$$

- Foydalanilmay qolgan dastgohlar darajasi, rezerv koeffitsienti:

$$R = I - \text{Integr.}$$

III. Uzlukli ishlab chiqarish jarayonlarida dastgohlardan foydalanish darajasi, ularning smena koeffitsienti bilan topiladi:

$$K_{\text{sm}} = \frac{T_M}{K_{\text{yp}} \cdot \Phi_{\phi}}$$

* Gaz. «Delovoy partner» «Tsementnaya promishlennost i rinok» 14 noyabrya 2002 g. №46. st 4

Bunda, T_m – korxonaning o'rnatilgan ishlab chiqarish quvvatiga to'g'ri keladigan mahsulotning mehnat salmog'i (stanok - soat);
 $Q_o'r$ - o'rnatilgan asosiy texnologik dastgohlarning o'rtacha miqdori;
 F_f – bitta dastgohning bir smenada ishlagandagi yillik haqiqiy ish vao'ti fondi (smena - soat).

Smena koeffitsientini hisoblashning eng qulay usuli bir kunda ishlagan stanok – smenalarning umumiy miqdorini smena davomida eng ko'p ishlagan stanoklar soniga nisbati bilan aniqlashdir. Masalan, 270 stanok o'rnatilgan, ulardan I-smenada 200 ta, II-smenada 190 tasi ishlagan. SHunda smena koeffitsienti 1,44 bo'ladi.

$$\frac{200 + 190}{220} = 1,44$$

Korxonalar dastgohlarni smena koeffitsientini oshirishga xarakat qilishlari kerak. SHunda asosiy fondlar miqdori o'zgarmasa ham mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortadi.

Uzluksiz ishlaydigan jarayonlarda esa dastgohlardan, agregatlardan foydalanishning yuklanish koeffitsienti ishlatiladi:

$$K_{yuk} = \frac{B}{\sum K \cdot \Phi_{\phi}}$$

Bunda, V – natura birligida ishlab chiqarilgan yillik mahsulot miqdori.

Q - bitta dastgohning bir soat yoki sutkadagi o'rnatilgan unumdorligi, natura birligida.

Korxonada quvvati - uning etakchi, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi tsexlari quvvati bilan topiladi.

Ishlab chiqarish quvvatidan unumli, to'liq foydalanishni ta'minlash yo'llari quyidagilar:

- asosiy fondlarni o'z vao'tida yangilab turish;
- ishlab chiqarish jarayonidagi uzilishlar, turg'unlik xolatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni yo'qotish yoki kamaytirish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning foydali, ilg'or shakllari, usullarini qo'llash va shular hisobiga mehnat buyumlariga ishlov berish tartibini (xilini) uzluksiz va bir vao'tda hamma ish joylarida olib borish;
- mehnatni ish joylari bo'yicha aniq taqsimlash;
- tsexlar, ishlab chiqarish uchastkalarida, ularning quvvatini mutanosibligini ta'minlash, «tor joylarni» yo'qotish;
- dastgohlarni ta'mirlash ishlarini reja bo'yicha o'z vao'tida olib borish, ularni texnik holatini yaxshilashning profilaktik choralarini o'tkazish, ta'mirlash ishlarini zamonaviy usullar, texnikaviy vositalari yordamida, malakali kadrlar ishtirokida olib borish;
- mahsulot ishlab chiqarishda qo'llaniladigan asbob-anjomlar sifatini yaxshilash, ularni ta'mirlashni tashkil etish;
- texnologik jarayonlarni bir me'yorda muq'tadil borishini ta'minlash;
- ishchi va xizmatchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va ishlab chiqarishning pirovard natijalaridan, o'z mehnatidan moddiy manfaatdorligini oshirish;
- dastgohlarning ish vao'ti fondidan to'liq foydalanishni ta'minlash;
- resurslarni turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha oqilona taqsimlash va ulardan unumli foydalanishni tashkil etish va boshqalar.

Masalan, og'ir sanoat korxonalarida etakchi tsexlar bo'lib mexanika tsexi, quyuv tsexi, yig'uv tsexlari hisoblanadi. Yig'uv tsexining quvvati barcha boshqa tsexlar quvvatini belgilaydi. Demak butun korxonada quvvatini belgilaydi. Atomobilsozlikda ham

mexanika tsexi, yig'uv, quyuv, tamirchi tsexlari; Tikuv sanoati korxonalarida – tikuv tsexi etakchi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish quvvatini hisoblash uchun agregatlar, dastgohlarning foydali ish vao'ti fondini bilish zarur:

$$T_f = T - T_{br}$$

bunda: T_f – kalendar bo'yicha ish vao'ti, soati;

T_{br} - bitta agregatni ishidagi reglamentlangan (qabul qilingan) tanaffuslar.

Foydali ish vao'ti fondini bilgan xolda turli xil dastgohlarning vao't birligi ichidagi (soat, sutka, oy, yildagi) unumdorligini aniqlash mumkin bo'ladi. Tanaffuslar (uzilishlar) bilan rejim asosida ishlaydigan agregatlar – donna pechlar, modtek pechlari, kimyoviy korxonalar va x.k.lar uchun ishlab chiqarish quvvati quyidagicha topiladi:

$$O't = T_{ts} \cdot Q_{ag} \cdot X_{is} \cdot Q_{ya} \cdot \frac{T}{T_{\phi}}$$

bunda: Q_{ag} - o'xshash agregatlar soni, dona;

X_{is} – bir ishlab chiqarish davrida iste'mol qilinadigan xomashyo miqdori;

Q_{ya} - xomashyo birligidan olinadigan yaroqli mahsulot miqdori;

T_q - xomashyoni bir ishlab chiqarish davrida qayta ishlash vao'ti, soat.

Uzluksiz ishlaydigan agregatlar quvvati (Q_{uz}) quyidagicha topiladi:

$$Q_{uz} = Q_{ag} \cdot T_{ar} \cdot U_p$$

bunda: U_p – agregatlarning pasportidagi har soatdagi unumdorlik normasi.

Ishlab chiqarish uchastkalari, tsexlarning tayyor mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish quvvatini aniqlash uchun quyidagi usul ishlatiladi:

$$Q_{ts} = \sum_1^p Q_{ag} \cdot T_f \cdot IK_x$$

Metalni qayta ishlovchi pratat va preslash tsexlari korxonalarining quvvati, elektroliz va boshqa tsexlar quvvati ham shunday topiladi.

Mexanika tsexlarida ishlab chiqarish quvvati buyumlarning mehnat salmog'ini hisobga olgan holda aniqlanadi.

$$Q_{m. ts.} = \frac{Y_{ar} \cdot T_{op}}{M_{\phi H}}$$

bunda: M_{bn} – mahsulot birligi uchun sariflanadigan vao't normasi, stanok – soatlarda.

Yig'uv tsexiga o'xshash ishlab chiqarish maydonlariga ega bo'lgan tsexlar quvvati quyidagi tartibda topiladi:

- a) ish vao'tining rejimdagi fondi (tsex yoki uchastkaning foydalanish mumkin bo'lgan maydonini hisobga olgan xolda) quyidagicha topiladi:

$$F_{may} = T_{rej} \cdot S_{ts}, m^2 \cdot soat$$

bunda: S_{ts} – tsex, uchastkaning m^2 hisobidagi foydali yuzasi;

T_{rej} – rejimdagi ish vao'ti fondi, soat.

- b) bitta buyumni bir soatda yig'ish uchun zarur bo'lgan m^2 – maydonini (S_o) aniqlash quyidagicha:

$$S_o = S_b \cdot T_{ts.y.};$$

bunda: S_b – bitta buyumni yig'ish uchun zarur bo'lgan maydon (normasi)

$T_{ts.y.}$ - buyumni yig'ish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish davrining uzunligi.

- v) yig'uv tsexining ishlab chiqarish quvvatini aniqlash quyidagicha:

$$O'r. = \frac{\Phi_{\text{майдон}}}{S_o};$$

Zavodning asosiy tsexlari quvvati topilgandan sqng, shu tarzda butun zavodning quvvatini uning etakchi tsexlari quvvati bilan aniqlash mumkin.

III. Korxonada o'rnatilgan dastgohlar ish vao'ti fondi smena koeffitsenti bilan (K_{sm}) xarakterlanadi:

$$K_{sm} = \frac{T_{dx}}{(\bar{D}_{yp} - (\bar{D}_{yp3} + \bar{D}_m)) - IK_x}$$

Bunda: T_{dx} - shu dastgohda haqiqatda ishlangan vao't (stanko/smen);

D_{or} - o'rnatilgan dastgohlardan rezervda turganlari;

D_r - ta'mirlashda (norma bo'yicha) turgan dastgohlar soni;

D_m - o'rnatilgan dastgohlar soni;

IK_x - hisobot davridagi ishchi kunlari miqdori.

Asosiy iboralar va tushunchalar

1. **Mulkiy munosabatlar** - bu ishlab chiqarish vositalari (texnika, texnologiya, xom-ashyo materiallari va h.k.) va ularning yordamida yaratilgan mehnat mahsulini o'zlashtirish borasida kishilarning o'zaro munosabatlaridir.

2. **Kapital** - tovar ishlab chiqarish va ishlarni boshqarish uchun xizmat qiladigan barcha ishlab chiqarish vositalaridir. Iqtisodiyotda «Kapital» iborasi ishlab chiqarish vositalarini yaratish uchun sarflanganligini qo'ratish uchun ishlatiladi. Kapital bu harajatdagi narsadir.

3. **Investitsiya** - tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat uchun sarflanib daromad keltiradigan va ijtimoiy samaraga erishishni ta'minlay oladigan moddiy yoki intellektual qiymatdagi buyumlardir.

- **Investitsiya** - sarmoya kirituvchi investitsiyani amalga oshiruvchi shaxs tashkilot, davlat.

- **Investitsiya** - uzoq muddat xizmat qiladiganlarni yaratish uchun ajratilgan, mqljallangan «lekin xali sarf etilmagan (moddiylashmagan) kapitaldir».

- **Investitsiya jarayoni** - qimmatli qog'ozlar uni amalga oshirish hajmi va muddati to'g'risida investorning bir qarorga kelishini ifoda etadi.

4. **Investor** - sarmoya kirituvchi investitsiyani amalga oshiruvchi shaxs tashkilot, davlat.

5. **Inflyantsiya** - qog'oz pullarni tovar oboroti talabidan ancha-muncha oshib ketgan miqdorda chiqarishning natijasiga qarzlanishdir.

6. **Diskont** - vekselni hisobga olish; hisob fondi; tovar bahosidang chegirma.

7. Stavka foizi deb olingan qarz bilan qaytarilgan pulning farqiga aytiladi. Stavka foizi - yillik to'lov.

8. **Real stavka foizi** - investitsiyalarning hisobiga xarid qilinadigan tovarlar (yoki xizmat ishlaridan foydalanishi) miqdorinig qaytilishini qo'rsatadi.

9. **Nominal stavka foizi** bugun dollar investitsiya qilsak biz kelishishda ko'p dollar olishimizni qo'rsatadi. Bizni ko'proq nominal stavka foizi emas real stavka foizi qiziqtiradi; bizni ko'proq xozirgi va kelasi davrdagi bir xil miqdordagi dollarga qancha narsa xarid qilish mumkinligi qiziqtiradi.

10. **Subsidiya** - qaytarilmaydigan davlat yordami.

11. **Ipateka** – ssuda olish uchun kqchmas mulk garovi.

12. **Annuitet (ronta)** – ma'lum muddatda daromad keltirib turuvchi investitsiyalar.

13. **Spred** - qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab bahosi bilan sotish bahosi orasidagi farq.

14. **Ish haqining minimal (eng kam) miqdori** – davlat tomonidan qonunchilik asosida o'rnatilgan ish haqining eng kam kafolatlangan miqdori.

15. **Moddiy rag'batlantirish** – kishilarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish va ishtiyiq uyg'otishning shakli, usuli va vositalaridir.
16. **Mehnat miqdori** – xodimning mehnat faoliyati jarayonidagi jismoniy va aqliy energiyasining (muskulnoy i nervnoy energiya) yig'indisidir.
17. **Mehnat madaniyati** – xalqlarning umumiy madaniyatining tarkibiy qismi; **mehnat madaniyati** xodimning o'z kasbini bilishi, ma'lumoti, o'z sohasini bilimdonligi, mehnat intizomi, norma va qoidalarga rioya qilish, boshqa kishilar bilan muomalada bo'lish shakllari, umuman xodimning madaniyat darajasi bilan aniqlanadi.
18. **Mehnat me'yori (normasi)** – ma'lum miqdordagi ishni bajarish uchun ketadigan (yoki ketgan) vao't miqdori bilan yoki ma'lum vao't (soat, kun) oralig'ida bajarilgan ish miqdoridir.
19. **Vao't normasi** – bitta xodim yoki bir guruh xodimlarni bir birlik ish bajarishlari uchun o'rnatilgan ish vao'tining xarajat miqdoridir.
20. **Mehnat normativlari** – bu ishlarning ayrim bo'laklarini (komplekslarini) bajarish ishlab chiqarish bo'g'inariga va x.k.larga xizmat qilish bo'yicha ish vao'ti (mehnat xarajatlari)ning belgilangan miqdoridir va shuningdek ishlab chiqarishning aniq shart-sharoitlariga bog'liq ravishda ishlab chiqarish, boshqaruv vazifalarini yoki boshqa ishlarni bajarish uchun qlchov birligi sifatida qabul qilingan xodimlar sonidir. Mehnat normativlari mehnat sarfining me'yorini (normasini) aniqlash uchun zarur bo'ladi.
21. **Mukofat tizimi** - o'zaro bog'liq bo'lgan va mukofat berishning butun tartibotini tashkil etgan mehnatga rag'batlantirish elementlarining yig'indisidir.
22. **Mukofatlash** – xodimlarni turli xildagi xo'jalik vazifalarini xal etishdagi rag'batlantirishning iqtisodiy usulidir.
23. **Mehnat unumdorligi** – berilgan vao't mobaynidagi aniq maqsadga qaratilgan ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi darajasini aniqlovchi konkret mehnatning foydalilik natijasini ifodalaydi.
24. **Kasb (xodimning kasbi)** – kishining ijtimoiy – foydali mehnat faoliyatining bir shaklidir. Masalan, apparaturada ishlaydigan xodimlar, operatorlar, mashinistlar, xodimlarning kasbi bo'yicha tarkibini o'rganish, xalq xo'jaligini turli xil yqnalishdagi kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.
25. Oddatda bitta kasb bir qancha ixtisosliklardan va mutaxassisliklardan iborat bo'ladi. Mehnat shartnomasi xodimning kasbi bo'yicha tuziladi.
26. **Ixtisos** – shu kasb miq'yosida ma'lum xildagi mehnat faoliyatini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus tayyorgarlik va ish tajribasini tqplash yo'li bilan olingan bilimlar yig'indisidir. Masalan, quruvchilik kasbi – g'ish teruvchi, duradgor, bo'yoqchi va x.k. ixtisosliklardan iborat. Sog'liqni saqlash shifokor (vrach) kasbi – terapevt, xirurg, stomatolog, nevpotolog kabi ixtisosliklarga ajratiladi; o'qituvchi kasbi esa – matematika, tarix, kimyo kabi o'qituvchilik kasblariga bo'linadi.
27. **Tarif setkasi** – ishchilarning mehnat murakkabligiga qarab tarif stavkalarining diferentsiatsiya qilishni boshqarishning tarif tizimini bir bo'lagidir. Tarif setkasi – ishchilarning ish razryadlari va tarif koeffiuentlarini ifoda etadi.
28. **Tarif stavkasi** – shu razryaddagi ishchining vao't birligi (soat, kun, oy) ichidagi mehnat haqi to'lovlarning miqdorini qo'rsatuvchi tarif tizimining muxim bo'lagidir. Birinchi razryadga kirgan ishlarning tarif stavkasi vao't birligi ichida eng oddiy ishni bajarish uchun to'lanadigan eng kam (minimal) mehnat haqini qo'rsatadi.
29. **Tarif razryadi** – ishchining o'z malakasi darajasida bajaradigan ishining murakkabligini ifoda etuvchi qo'rsatkichdir.
30. **Tarif koeffitsienti** – tarif setkasining bir bo'lagi bo'lib, II va undan keyingi razryaddagi tarif stavkalarini bir deb qabul qilingan. I-razryadning tarif stavkasiga bo'lgan nisbatini ifodalaydi.
31. **Mehnat qobiliyati** – kishining ijtimoiy-foydali mehnat qilishi uchun zarur bo'lgan jismoniy va aqliy qobiliyati (xususiyatlari) majmua'sidir.

32. «**Mehnat**» - kishilarning tovar ishlab chiqarish va xizmat qo'rsatish borasidagi jismoniy va aqliy mehnati qobiliyatlaridir.
33. **Mehnat resurslari** – bu kishilarning mehnat va tadbirkorlik qobiliyatidir.
34. «**Resurs**» so'zi frantsuzcha bo'lib «**Yashash vositasi**» degan ma'noni beradi.

Nazorat savollari

1. Korxonaning mulki va uning yaratish manba'lari.
2. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati va uning aniqlash usullari.
3. Asosiy va asylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi va uni yaxshilash yo'llari.

IX-BOB. KORXONALARNING AYLANMA KAPITALI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

9.1. Aylanma kapitalning tarkibi va tuzilishi

1. Aylanma kapital bu tayyor mahsulot ishlab chiqarish maqsadida texnika va texnologiya yordamida inson mehnati yqaltirilgan barcha mehnat buyumlaridir. Aylanma kapital – bu bir ishlab chiqarish davrida o'z qiymatini tayyor mahsulotga to'raligicha kqchirib o'zining natural qo'rinishini butunlay yo'qotib moddiy shaklda takror va takror ishlab chiqarishni talab etadigan barcha turdagi mehnat buyumlaridir. Masalan, xayvonlar terisini sanoatda qayta ishlab charm xolidagi tayyor mahsulotni olish, metalurgiyada temir rudasini chqyanga, uni pqlatga va prokat mahsulotlarga aylantirish, non ishlab chiqarishda unni nonga aylantirish, chorvadan go'sht olish, pilladan ipak olish va boshqalar.

Aylanma kapital tarkibi quydagicha:

- xom-ashyo, asosiy materiallar va sotib olingan yarim fabrikatlar;
- yordamchi materiallar;
- yoqilg'i;
- idishlar;
- remont uchun ehtiyot qisimlar;
- asbob anjomlar va boshqa kam-qimmatli tez emiriladigan mehnat buyumlari.

Ular korhonada ishlab chiqarish zahirasi xolida bo'ladilar. **Bu xildagi resurslarga ishlab chiqarish jarayonida har xil miqdorda mehnat sarf qilinadi va shunga yarasha ular quydagicha nomlanadilar:**

- **tugallanmagan ishlab chiqarish**, ya'ni korxonaning shu tsexida tayyor mahsulotga aylanishi kerak bo'lgan chala tayyor mahsulotlar;
- **korhona uzi ishlab chiqargan yarim fabrikatlar**. Ular shu korxonani boshqa tsexida yoki boshqa korxonalarda tayyor mahsulotga aylantiriladi;
- **kelasi davr xarajatlari yoki davriy xarajatlar**. Bunday xarajatlarga mahsulotni iste'molchiga etkazish, ma'muriy, rvhbarlik harajatlari, ishlab chiqarishni tayyorlash, o'zlashtirish va rivojlatirish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar;
- fondlar sifatida kapitalga qo'shilmagan harajatlar va shuningdek xodimlarni yollash, tayyorlash va qayta tayyorlash kabi harajatlar kiradi. Ular shu hqjalik yilida sarf qilinadi va kelasi davrlarda korhona foydasi hisobiga qoplanadi.

Aylanma kapitali tarkibida xom-ashyo va asosiy materiallar muxim o'rin tutadi. Xom-ashyo va materiallar ishlab chiqarishning asosini tashkil etadi. Ular mahsulot tannarxida 70-90% tashkil etadi. SHuning uchun ham harajatlarni kamaytirish imkoniyatini ana shu manba'lardan qidirish lozim.

Xom-ashyo – inson mehnati ta'siirda o'zgargan yoki qazib chiqarilgan har qanday mehnat buyumlaridir. Xom-ashyo asosiy xom-ashyo va yordamchi materiallarga bo'linadi. **Asosiy xom-ashyo tayyor mahsulotning asosini tashkil etadi.**


G'rdamchi materiallar – asosiy materiallarni ularning hususiyatlarini yaxshilash uchun qo'shiladigan (bo'yoqlar, ishqorlar va shunga o'xshashlar) moddalar yoki mehnat jarayonlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan mehnat buyumlari (yoritish uchun elektroenergiya); texnika vositalarini ishlab turishini ta'minlovchi yoqilg'i, moylar va h.klardir.

Ishlab chiqarish omillari bo'lgan mehnat va kapitalning, xom-ashyo va materiallarning o'zaro bir-biriga ta'siri natijasida tayyor mahsulot yaratiladi. Sanoat

korxonalarining aylanma kapitali (yoki aylanma fondlari) tarkibi quydagi chizmadan qo'rinadi.

11-chizma

Aylanma kapitalning sanoat korxonalaridagi tarkibi



Aylanma kapitalning tuzilishi deb ularning ayrim elementlari o'rtasidagi nisbatiga aytiladi (% hisobida). Masalan, O'zbekiston respublikasi sanoati aylanma kapitalining umumiy qiymatida ishlab chiqarish zahiralari 60% -dan ko'pdir. (SHundan 40% xomashyo va yarim fabrikatlarga to'g'ri keladi), tugallanmagan ishlab chiqarish yarim fabrikatlar kelasi davr xarajatlari bilan birga 30%-ga yaqin miqdorni tashkil etadi.

Aylanma kapital tarkibi va tuzilishi ko'pgina omillarga - ishlab chiqarish hususiyatlariga, shart-sharoitlariga, ishlab chiqarish texnologiyasiga, ishlab chiqarish davrining uzunligiga, iste'mol qiladigan mehnat buyumlari miqdoriga, ularning sifatiga, xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun turli hil sanoat tarmoqlari va korxonalarida aylanma kapitalning qismlari o'rtasidagi nisbati bir hil bo'lmaydi. **Masalan, elektro stantsiyalarda barcha aylanma kapital miqdori (98%-dan ko'pi)**

ishlab chiqarish zaxiralaridan iborat. Buning sababi elektro – energiya ishlab chiqarishda tugallanmagan ishlab chiqarishlar yo'q, kelasi davr xarajatlari esa boshqa tarmoqlarga qaraganda ancha kam.

Elektrostantsiyalarda ishlab chiqarish zaxiralarning 80%-dan ko'pi yordamchi materiallar, yoqilg'i va tamirlash uchun extiyot qisimlardan iborat bo'lib xom-ashyo esa mutlaqo yo'q.

Engil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari 80% - dan ko'pdir. Bular asosan xom-ashyo va asosiy materiallardir. Bu erda charm sanoati bundan mustasno, chunki uning ishlab chiqarish zaxiralarning 20%-dan ko'prog'i yordamchi materiallar (yog'lar, bo'yoqlar, oxak, oltingugurtli natriy va boshqalar)dan iborat. Buning sababi charm-sanoatining ishlab chiqarish zaxiralari charmni dastlab qayta ishlovchi boshqa joydagi korxonada tashkil etiladi. Ular bir-birlariga yaqin joylashganlar. Charm zavodlarida charm zaxiralari odatda kundalik talabga mos keladi.

Mashinasozlik korxonalarida aylanma kapital tarkibida tugallanmagan ishlab chiqarishlar va korxonaning uzining yarim fabrikatlari ko'proq o'rin oladi-40% yaqin.

Kelasi davr xarajatlari ayniqsa kqmir ishlab chiqarishda yuqori bo'lib, u aylanma kapitalning 50%-ni tashkil etadi.

Aylanma kapital tarkibini va tuzilishini bilish ulardan oqilona va samarali foydalanish yo'llarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Aylanma kapital tarkibida qo'rsatilgan resurslar natural birliklarda (dona,tonna, kv.dm. va x.k) va qiymat birligida xisobga olinadi; shu bilan birga kunlik zapas xolida xam xisoblanadi. Ishlab chiqarishda ularning ma'lum kunlik zapaslari (zaxiralari) bo'lishi zarur. Aylanma mablag'lar - bu xom-ashyo, materiallar va boshqa resurslarni yaratish, ishlab chiqarish va iste'molni uzluksiz, bir me'yorda taminlash uchun korxonaga etarli miqdorda ajratilgan pul mablag'laridir. Uning tarkibiga yuqorida qo'rsatilgan aylanma fondlar va muomala fondlari kiradi. **Muomala fondlari tarkibida:** ombordagi tayyor maxsulot, korxonadan iste'molchiga jnatilgan va yo'lda ketayotgan maxsulotlar; korxonaning xisob raqamidagi, xisob-kitob ishlaridagi pul mablag'lari kiradi. Qo'rinib turibdiki ishlab chiqarish jarayoni faqat maxsulot ishlab chiqarish bilan cheklanmaydi, uni iste'molchiga etkazib berish jarayoni bilan to'ldiriladi. Demak, pirovard maqsad - iste'molni qondirish va maksimal foyda olishdir. Aylanma mablag'lar korxonada ketma-ket ravishda **pul – ishlab chiqarish – tovar** shaklidagi bosqichlarni o'tadi.

Ularning iqtisodiy mohiyati va oqibatlarini bilish muhim ahamiyatga egadir.

9.2. Aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi va uni baholash usullari

Aylanma kapitaldan yoki moddiy resurslardan foydalanish holatini iqtisodiy tahlil qilish va darajasini baholash uchun bir qancha qo'rsatkichlar ishlatiladi:

1. **Biznes rejada mqljallangan yoki normativ qo'rsatkichlar va haqiqiy hisobot davridagi qo'rsatkichlar.**

2. **Xom-ashyodan tayyor mahsulotni ajratib olish kqsatkichi.** Maslan, mis rudasidan misni, temir rudasidan temirni, pilladan ipakni, qand lavlagidan shakar va h.k. Bu xil qo'rsatkichlar xom ashyo birinchi marta qayta ishlanadigan tarmoqlarda qo'llaniladi.

3. **Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan moddiy resurslar xarajati miqdori yoki materiallar sig'imi.** Bu kqsatkich mahsulot konstruksiyasini ilg'orligi, zamonaviylik darajasini ifodalaydi. **Materiallar sig'imi umumiy va absolyut xillarda bo'ladi.**

a) **Umumiy materiallar sig'imi** - bu bir so'mlik tovar mahsulotiga yoki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan barcha materiallar sarfi qiymatini qo'rsatadi. Xom ashyo materiallarga bahoning qshisi yoki pasayishi mahsulotning texnik-iqtisodiy darajasini to'g'ri qo'rsatmaydi.

b) **Materiallar sig'imining absolyut miqdori** - ayrim xil buyumlarni sof og'irligi yoki yuzasini ishlab chiqariladigan mahsulotning fizik birligiga nisbati bilan topiladi.

v) **Asosiy xom ashyo materiallardan foydalanish yoki texnikaviy parametrlari birligiga to'g'ri keladigan miqdorini ifodalovchi qo'rstakichlar.** Masalan, quvvat birligiga, unumdorlik, yuk ko'tarish va boshqa parametrlari birligiga to'g'ri keladigan asosiy xom ashyo xarajatlari miqdori.

4) **Yuzaga ega bo'lgan mahsulotlardan foydalanish koeffitsienti.** Bu koeffitsient tayyor mahsulot yuzasini dastlabki materiallar yuzasiga bo'lib topiladi. Buni materiallarni bichish koeffitsienti deyiladi. Bu koeffitsient birga yaqin bo'lib borsa materiallardan foydalanish samarador hisoblanadi. Demak, ishlab chiqarish jarayonida isloklar kamaygan bo'lib, moddiy resurslardan foydalanish yaxshi bo'lib chiqadi.

5) **Tayyor mahsulot birligiga to'g'ri keladigan hom-ashyo materiallar miqdori.** Bu qo'rsatkich maxsus tarmoq va ishlab chiqarishlarda qo'llaniladi. Masalan, qora metallurgiyada – bir tonna chqyan olish uchun ruda va kqks harajatlar; bir tonna pqlat ishlab chiqarish uchun metall shixtalari sarfi; konditer mahsulotlari ishlab chiqarishda – bir tonna pechene uchun un harajati miqdori; mashinasozlikda – bir traktor uchun metall harajati; poyafzal ishlab chiqarishda 100 juft ma'lum turdagi va sifatdagi poyafzal uchun charm va boshqa materiallar harajati va h. k. Elektr-energetikada yoqilg'idan foydalanish darajasini bilish uchun bir kilovatt soat elektrenergiyasi olishga ketadigan yoqilg'i miqdori (grammda) ishlatiladi. Bu qo'rsatkich bir yilda shartli yoqilg'i miqdorini (tonnada) shu yili ishlab chiqarilgan elektrenergiyaning (kvt. soatlarda) umumiy miqdoriga nisbati bilan topiladi.

6) **Materiallardan foydalanish koeffitsienti detallar, uzellar va buyumlarni sof og'irligini (Vd) bir dona detal yoki buyumga ketadigan materiallarning harajat normasiga (Nd) (reja bo'yicha foydalanish koeffitsienti) yoki haqiqiy miqdoriga nisbati bilan topiladi.** Buyumlarning tasdiqlangan chizmalar va texnik shartlar talabiga mos kelgandagi og'irligi ularning sof og'irligi deb hisob qilinadi. Materiallardan foydalanishning bu qo'rsatkichi quyidagicha topiladi:

$$\Phi K_M = \frac{\sum B_D}{\sum H_D} = \frac{B_{yuy}}{H_{byum}}$$

Agar tayyor mahsulotning sof og'irligi, 60 kg, harajat normasi 75 kg, haqiqiy harajat 80 kg bo'lsa, reja bo'yicha materiallardan foydalanish koeffitsienti $60:75=0,8$ yoki 80%, haqiqiy koeffitsient esa $60:80=0,75$ yoki 75% bo'ladi.

Ayrim hil sanoat tamroqlaridan – metallurgiya, mashinasozlik, tekstil sanoati va boshqalarda materiallarda ketma-ket ishlov beriladi. **Bunday sharoitda materiallardan foydalanish darajasi har bir ishlab chiqarish bosqichi bo'yicha alohida hisoblab chiqariladi.** Korxonada bo'yicha moddiy resurslardan foydalanishning umumiy qo'rsatkichi xususiy qo'rsatkichlarni o'zaro ko'paytirish yo'li bilan topiladi. Moddiy resurslardan foydalanish qo'rsatkichlarini va ulardan foydalanishni tahlil etishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- buyumlarni sof og'irligi har doim bir xil turmaydi.
- sanoatda mashina va uskunalarni og'irligini kamaytirib borish imkoniyatlari ko'pdir;
- buyumlarni, detallarni shakli, konfiguratsiyasi materiallarni isrofiga ta'sir qiladi;
- materiallardan foydalanish koeffitsienti ko'p jihatdan ishlab chiqarish texnologiyasiga, ishchilarning kasbi, mahorati va boshqalarga bog'liq bo'ladi;
- korxonaga kelib tushadigan xom ashyo materiallarning sifati.

Xom ashyo materiallarning mahsulot birligiga harajat normasi quyidagilardan tashkil topadi:

- foydali harajat miqdori buyumlarni sof og'irligi;
- zaruriy texnologik chiqindilar va isroflar (qiyqimlar, havo bilan birga foydali moddalarning qo'shib chiqishi va h.k.).

Materillarning haqiqiy harajat miqdori normal ishlab chiqarish harajatlardan chetga chiqilgandagi isroflar va chiqindilar hisobiga o'zgarishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish texnologiyasiga rioya qilmaslik, hom-ashyoni saqlashdagi sharoitlarni yo'qligi, hom-ashyo sifatini pastligi va h.k.lar.

Yillik mahsulot harajatlariga ketadigan harajatlar miqdori ko'p jihatdan aylanma mablag'larning harakat tezligiga bog'liq bo'ladi. Bu koeffitsient (K_{obxt}) jami realizatsiya mahsuloti (Q_p) hajmini aylanma mablag'larining o'rtacha yillik qoldig'iga (K_{obk}) nisbati bilan topiladi.

$$K_{obxt} = \frac{Q_p}{K_{obk}};$$

Masalan, $Q_p=100$ mln. so'm $K_{obk}=25$ mln. so'm bo'lsa, aylanma mablag'larning harakat tezligi - $K_{obxm} = \frac{100}{25} = 4$ ga teng bo'ladi. Bu erda har bir so'm aylanma mablag'lardan 4 so'mlik mahsulot olingan. Agar biz mablag'larni harakat tezligini 4 dan 5 ga oshirsak, u holda, shu hajmdagi mahsulotni olish uchun 5 mln.

so'mlik mablag'ni tejab qolgan bo'lar edik: $\frac{100}{20} = 5$; yoki shu berilgan resurlar hisobiga 100 mln. so'mlik mahsulot o'rniga 125 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarishga erishgan bo'lar edik: $\frac{125}{25} = 5$; **Yildagi kunlar sonini mablag'larning**

tezligiga nisbati ularni bir marta aylangandagi muddatini qo'rsatadi: $360:4=90$ kun.

Aylanma mablag'larning harakat tezligi qancha ko'p bo'lsa, ularning aylanish muddati ham shunga yarasha kam bo'ladi. Demak, qisqa vaot oralig'ida **mahsulot ishlab chiqarish ko'payadi, samaradorlik ortadi. Aylanma kapitalining harakat tezligini oshirish yo'llari quyidagilar:**

- korxonada zarur bo'lmagan, keradigan ortiqcha materiallarni saqlab trumaslik;

- ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish;
- tayyor mahsulotlarni shartnoma majburiyatlariga qo'ra iste'molchiga tez va o'z vao'tida etkazish;
- ishlab chiqarish davrini qisqartirish,
- mehnat taqsimotini aniq olib borish.

Moddiy resurslarning tejashning manbalari va yo'llarini bilish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Moddiy resurlarni tejash manbalari quyidagilar:

1. Mashinalar va buyumlarning sifati va unumdorligini oshirish bilan bir vao'tda ularning og'irligini kamaytirish.

2. Isroflar va chiqindilarni kamaytirish

3. Isroflar va ishlab chiqarish chiqindilaridan maksimal darajada foydalanish

4. Qimmatbaho va kamyob hildagi xom-ashyo, materiallar o'rniga kimyoviy materiallardan foydalanish

5. Materiallardan ikkilamchi foydalanish.

Moddiy resurslardan foydalanish manbalari ularni nimalar hisobiga tejash mumkinligini qo'rsatadi. **Tejash yo'llari esa qanday qilib tejash mumkinligini qo'rsatadi. Ular quyidagilar:**

- mashina va buyumlarni ishlab chiqarish konstruksiyasini, texnologiyasini ishlatiladigan xom-ashyo sifatini yaxshilash, xom-ashyo materiallardan kompleks (to'liq) foydalanish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishni yaxshilash;
- xom-ashyo, materiallar harajatini to'g'ri uchytga olish, normalashtirish, ulardan unumli foydalanishni rag'batlantirish, bahosini to'g'ri belgilash;
- resurslardan foydalanishga bo'lgan ishchi xizmatchilar munosabatini yaxshilash.

9.3. Moddiy resurslar va aylanma mablag'larni normalashtirish

Moddiy resurslarni normalashtirish, ularni mahsulot yoki ish birligiga sarf bo'ladigan me'yorini to'g'ri ilmiy asoslangan tartibda aniqlash va ularni tejab-tergab ishlatishni muhim shartidir; unumsiz, keragidan ortiqcha sarf qilishni nazorat qilib borish usulidir.


Moddiy resurslar sarfi turli xil belgilar bo'yicha bir necha guruhlariga ajratiladi:

- normalashtirish hajmi bo'yicha tayyor mahsulot birligi uchun. Masalan: traktor, avtomobil, 100 juft (1 juft) poyafzal uchun;
- yarim fabrikatlar birligi uchun (uzel, detal, 1 tonna kraxmal va boshqalar);
- buyumlarning texnik parametrining birligi uchun (bir ot kuchiga, 1 tonna yuk ko'tarish quvvatiga va h.k.)

Norma va normativlar - istiqbolli, yillik va joriy turlarda bo'ladi. Ayniqsa bunday guruhlariga bo'linish tez buziladigan qishloq xo'jaligi xom-ashyolarini qayta ishlaydigan tarmoq korxonalariga tegishlidir. Materiallar harajatining me'yorini hisoblash uchun ularning tarkibini bilish zarur (12-chizma).

12-chizma

Harajatlar normasining rejadagi va haqiqiy tarkibi



Harajat normasi mahsulot ishlab chiqarishdagi materiallarning foydali harajati miqdorini (sof og'irligi, maydoni); zaruriy texnologik chiqindilar va isroflar (qiyqimlar va h.k.) dir.

Chiqindi va isroflar ishlab chiqarish texnologiyasidan chetga chiqishda buyumlarni noto'g'ri saqlashda, sifati past bo'lgan hom-ashyolardan foydalanishda sodir bo'ladi.

Isroflar - Moddiy resurslarni qayta ishlab tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'lib qaytib kelmaydigan moddiy resurslarning bir qismidir. Boshqa mqljallanmagan chiqindi va isroflar haqiqiy harajatlar miqdorida bo'ladi.

Moddiy resurslarning harajat normasi ishlab chiqarishdagi ilg'or texnologiyalarni, mehnat sharoitlarni hisobga olgan holda hisoblash, tahlil qilish usullari yordamida aniqlanishi lozim. Ularning harajat miqdori fan-texnika ta'sirida kamayish tomoniga o'zgarib boradi.

Korxonalar mablag'lari ishlab chiqarish jarayoniga tushgandan so'ng tayyor mahsulot shaklida muomala sohasiga o'tadi. Lekin tayyor mahsulotni sotish, iste'xmolchiga etkazish, undan pul undirish vao't talab etadi. SHuning uchun aylanma mablag'larning shu vao't oralig'idagi harakati 3 qismga bo'linadi:

I. Mablag'larni ishlab chiqarish zahirasi sifatida turish vao'ti

II. Ishlab chiqarish davridagi turish vao'ti

III. Tayyor mahsulot tarkibida va hisoblash ishlaridagi vao'ti

SHuning uchun aylanma mablag'larga bo'lgan talabni aniqlashda ularni haqiqatda aylanish vao'tini hisobga olish zarur. SHunga asosan va ularning harakat tezligiga asosan mablag'larning kun hisobidagi aylanish muddatini reja bo'yicha aniqlash mumkin bo'ladi. Reja davrida zarur bo'lgan aylanma mablag'lar miqdoriga bo'lgan umumiy talab quyidagi normativ miqdorlardan tashkil topadi:

I. ishlab chiqarish zahirasi sifatidagi normativlar (Nq)

II. tugallanmagan ishlab chiqarishlar (N_{nzp}) va tayyor mahsulot normativi (faqat materiallar sarfi bo'yicha) shuningdek, mehnat haqi to'lovlari miqdori, amortizatsiya ajratmalari va byudjetga beriladigan to'lovlar, bank uchun foydadan ajratmalar.

Ishlab chiqarishni uzluksiz olib borish maqsadida moddiy resurs turlari bo'yicha ularning minimal miqdordagi zahirasi normalashtiriladi. **Ular kun hisobida, natura va qiymat birliklarid rejalashtiriladi.**

Kunlik zahiralar (Hq) quyidagilardan iborat bo'ladi: Materiallarni yo'lda bo'lish vao'ti (transport zahirasi); kelib tushadigan materiallarni qabul qilish (tayyorgarlik zahirasi), tushurish, omborga joylashtirish va sifatini tahlil qilish; hom-ashyo materiallarni ishlab chiqarishga tayyorlash (texnologik zahira); xom-ashyo, materiallarni iste'molchi omborida turish vao'ti (joriy zahira); ta'minotdagi uzilishlarni oldini olish maqsadida buyurmalarni ko'payib ketishi xolatlari uchun yaratiladigan rezervlar miqdori (sug'urta yoki kafolat zaxirasi).

Transport zaxirasi (Ntr.) (kun xisobida)-to'lov xarajatlari bo'yicha yuk uchun pul to'langan vao't bilan yukni xaridorga kelib tushgan vao't oralig'idagi kunlarning farqi bilan topiladi. Masalan, xaridor to'lov-xisob xujjati bo'yicha beshinchi mart kuni pul to'lagan bo'lsa yuk (maxsulot) 16 mart kuni kelib tushgan bo'lsa, u xolda transport zaxirasining me'yori 11 kun.

Ishlab chiqarishga tayyorlash zaxirasi (Np)- xom-ashyo, materiallarni ishlab chiqarishga tayyorlash kunlarini bir sutkada iste'mol qiladigan xom-ashyo, materiallar miqdoriga ko'paytirish bilan topiladi.

Texnologik zaxira (Nt)- ayrim xil xom-ashyo, materiallarni ishlab chiqarishga tayyorlash zarur bo'lgan sharoitda topiladi. Masalan; yog'och materiallarni undan maxsulot olishdan aval quritish va x.k. ishlar bajariladi.

Joriy zaxira (Nj)- bu zaxiraning eng asosiy turi bo'lib aniq turdagi xom ashyo, materiallarning keyingi partiyalari kelib tushguncha ishlab chiqarishni uzluksiz olib borish zarur bo'ladi. Uning miqdori quydagicha topiladi:

$$N_j = K \times I$$

Bunda, K - o'rtacha kunlik talab

I - xom-ashyoni kelish oralig'i.

Xomashyoni kelib tushish oralig'i quydagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- iste'mol xajmi va uni tranzit normasiga nisbati;
- materiallarni ishlab chiqarishga kiritish miqdori ;
- iste'mol qilish tezligi.

Masalan, mashinasozlik koxonasi bir kvartlda 180 tonna parkat iste'mol qilsa, tranzit normasi 60 tonna bo'lsa, albatta materiallarni etkazib berish oralig'i 30 kun bo'ladi.

Tranzit norma bu transport vositasini bir manzil tomon olib borishi mumkun bo'lgan yuklarning minimal miqdoridir. Ishlab chiqarish zahiralarini umumiy normasi moddiy resurs turlari bo'yicha kun hisobida yuqoridagi barcha zahiralar miqdorining yig'indisi bilan topiladi:

$$H_q = H_{tp} + H_n + H_t + H_{tck} + H_r$$

Agar aylana zahirasi uchun bo'lgan talabini $-O_z$ deb, moddiy resurlar sarfini $-R$, kunlik zahira miqdorini $-N_z$ va reja davridagi kalendar kunlarni $-D$ orqali belgilasak, u holda, $O_z = \frac{P}{D} \cdot H_{33}$ bo'ladi. Masalan, korxonada bir kvartaldagi hom-ashyo va asosiy material harajatlari 132mln. so'm zahira normasi 30 kun va yordamchi material 18 mln. so'm bo'lib zahira normasi 60 kun. **U holda aylanma mablag'larga bo'lgan talab** hom-ashyo va asosiy materiallar bo'yicha quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{132}{90} \cdot 30 = 44 \text{ млн. сум}$$

yordamchi materiallar bo'yicha: $\frac{18}{90} \cdot 60 = 12 \text{ млн. сум}$ ni tashkil etadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishning normativi ishlab chiqarish davrining uzunligi (T_{ts}) uzunligi, harajatlarni ko'payib borish koeffitsienti (K_g)^{x)}, va korxonani bir kunlik mahsulot ishlab chiqarish hajmiga^{xx)} asosan topiladi:

$$N_{zp} = B_d \times T_{ts} \times K_r$$

Harajatlarni ko'payib borish koeffitsienti tugallanmagan ishlab chiqarishlar tannarxini tayyor mahsulot tannarxiga nisbati bilan topiladi. Bu qo'rsatkichni ahamiyatini quyidagi misol orqali yoritamiz: Faraz qilamizki, ikki xil mahsulot ishlab chiqariladi: «A» va «B». Ularning tannarxi (2 mln. so'm) va ishlab chiqarish davri bir xil (5 kun). Bu omillarni harajatlarni ko'payib borish darajasiga ta'siri quyidagi hisoblashlardan qo'rinadi:

10-jadval

Ikki xil mahsulot ishlab chiqarish tannarxi va ishlab chiqarish davrining xarajatlar o'zgarishiga ta'siri

Ishlab chiqarish davrining uzunligi, kunlar	«A» buyum		«B» buyum	
	Kunlik harajatlar	Harajatlar miqdori	Kunlik harajatlar	Harajatlar miqdori
Birinchi	1500	1500	200	200
Ikkinchi	125	1625	200	400
Uchinchi	125	1750	200	600
To'rtinchi	125	1875	400	1000
Beshinchi	125	2000	1000	2000
Ja'mi	2000	8750	2000	4200

Qo'rinib turibdiki mahsulot tannarxi va ishlab chiqarish davri bir xil bo'lgan sharoitda **tugallanmagan ishlab chiqarishning o'rtacha tannarxi** har xil bo'lib chiqmoqda: «A» buyum bo'yicha – 1750 m. so'm (8750:5); «B» buyum bo'yicha - 840 m. so'm (4200:5). **Tugallanmagan ishlab chiqarishning o'rtacha tannarxini umumiy harajatlarga nisbati harajatlarni ko'payib borish koeffitsientini tashkil etadi.** Bu

koeffitsient birinchi holatda – $0,87 \left(\frac{1750}{2000} \right)$, ikkinchi holatda – $0,42 \left(\frac{840}{2000} \right)$ bo'lib chiqadi.

SHunday qilib «A» buyum bo'yicha kuniga o'rtacha 120 m. so'mlik mahsulot ishlab chiqarganda, tugallanmagan mahsulot ishlab chiqarish zadeli 522 m. so'm ($120000 \cdot 5 \cdot 0,87$), «B» buyum bo'yicha esa 252 m.s.ni ($120000 \cdot 5 \cdot 0,42$) tashkil etadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish normativini aniqlash ayrim xil tarmoqlarda o'zining xususiyatlariga egadir.

Asosiy iboralar va tushunchalar

1. Mehnat buyumlari – bu tayyor mahsulot olish uchun kishi mehnati sarflangan barcha xomashyo materiallardir.

2. Aylanma kapital – bu bir ishlab chiqarish davrida o'z qiymatini tayyor mahsulotga to'laligicha qqchirib o'zining natural qo'rinishini butunlay yo'qotib moddiy shaklda takror va takror ishlab chiqarishni talab etadigan barcha turdagi mehnat buyumlaridir.

3. Xomashyo - inson mehnati ta'sirida o'zgargan yoki qazib chiqarilgan har qanday mehnat buyumlaridir.

4. Yordamchi materiallar – asosiy materiallarga ularning xususiyatlarini yaxshilash uchun qo'shiladigan lekin, tayyor mahsulot tarkibiga kirmaydigan moddalar (bo'yoqlar, ishqorlar va x.k.); mehnat jarayonlarini amalga oshirishda xizmat qiladigan mehnat buyumlari (yoritish uchun elektr energiya); texnika vositalarining ishlab turishini ta'minlovchi yoqilg'i, moylar va x.k.lardir.

5. Aylanma mablag'lar – bu aylanma fondlarni va muomala fondlarini yaratish uchun mqljallangan pul mablag'laridir.

6. Muomala fondlari – muomala sohasida xizmat uchun ajratilgan pul mablag'laridir.

7. Moddiy resurslarning xarajat normasi – mahsulot ishlab chiqarishdagi materiallarning foydali xarajati miqdorini (sof og'irligi, maydoni); zaruriy texnologik chiqindilar va isroflar (qiyqimlar va x.k.)ni qo'rsatadi.

8. Isroflar – moddiy resurslarni qayta ishlab tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'lib qaytib kelmaydigan moddiy resurslarning bir qismidir.

Nazorat savollari

1. Resurslar va ishlab chiqarish omillai tushunchalarining mohiyati.
2. Aylanma kapital va mehnat buyumlari tushunchalarining mohiyati, iqtisodiy tabbiyat.
3. Aylanma kapital va aylanma mablag'lar tushunchalari, ularning farqi va tarkibi.
4. Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi:
 - moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi qo'rsatkichlari;
 - aylanma mablag'larning xarakat tezligi va uni oshirishning iqtisodiy samaradorligi.
5. Moddiy resurslarni tejash manba'lari va yo'llari

X-BOB. KORXONALARDA MEHNAT UNUMDORLIGI VA ISH HAQI

10.1 Mehnat resurslari va kadrlar tarkibi

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohiy o'zgarishlar davrida hamma narsalar inson ehtiyojlari va taqdiriga qaratilgan.

Mehnat resurslari, ish kuchi, mehnat unumdorligi, mehnatning mahsuldorligi kuchi^x, mehnat samaradorligi, mehnat xarajatlari tushunchalar iqtisodiyotimizda ko'p ishlatiladi. Ularning mohiyatini o'zaro bog'liqligini bilish xal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

Mehnat resurslari - aqliy va jismoniy mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilardir, ularning mehnat qobiliyatlaridir. Mehnat resurslari potentsial mehnat xodimlaridir. Inson o'zining mehnat qobiliyatlarini yanada oshirib, rivojlantirib borishi zarur. Buning uchun ular mehnat maxoratlarini, tajribalarini oshirib, takomillashtirib, kasbiy bilimlar tqplab borishlari tashabbuskor va faol bo'lishlari kerak bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat qobiliyati, ish kuchini tovar deb qabul qiladi. Lekin bu oddiy tovar emas. Uning boshqa tovarlardan farqi shundaki:

1) U o'z qiymatidan ortiq qiymat yaratadi;

2) Ularni jalb etmay ishlab chiqarishni tashkil etib bo'lmaydi va aylanma kapitallardan foydalanish ko'proq mehnat resurslariga bog'liq bo'ladi.

SHuning uchun korxonani qanday ish kuchi bilan ta'minlanishi, ulardan ishlab chiqarish jarayonida qanday foydalanish kerakligini ahamiyati bor. (Yaponiyadagidek umrbod yollanib ishlaydimi yoki zaruriyat bo'yichami va x.k.). Korxonani ish kuchi bilan ta'minlanishini mehnat munosabatlari iqtisodiyoti nazaridan turib qarash lozim, chunki bunda juda ko'p muammolar xal etiladi:

- mehnat resurslari va aholi bandligi;
- mehnat resurslari va mehnat potentsiali;
- mahsus sherikchilik;
- mehnatni tashkil etish va normallashtirish;
- aholining turlari darajasi, daromadni shakllantirish va taqsimlanishi;
- ish haqini tashkil etish;

- mehnat samaradorligi qo'rsatkichlari va ularning qlchanishi;
- mehnat samaradorligi omillari va qsish rezervlari;
- korxonada mehnatni rejalashtirish.

Qo'rsatilgan bu sohalarning har biri o'zining xususiyatlariga ega bo'lib mehnat munosabatlariga o'zicha ta'sir etadi.

Masalan, aholi bandligi bilan ishsizlik o'rtasidagi nisbatlik kuchi taklifni o'zgartiradi.

Har bir korxonada o'ziga xos kadrlar siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Uning asosiy yqnalishlari quyidagilar bo'ladi: Ish kuchiga ega bo'lgan talabni uning miqdori va sifati bo'yicha aniqlash; mehnatga jalb etish shakllari; ulardan unumli foydalanish choralarini ishlab chiqish. Masalan, xodimlar malakasini oshirish, xar bir xodimning unumdorligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, rag'batlantirish va h.k. Kadrlar siyosati xozirdagi amal qilayotgan mehnat bozorini shakllanishi va shu korxonani xususiyatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. **Kadrlar siyosati bilan maxsus bo'lim - kadrlar bo'limi shug'ullanadi. Uning siyosatlaridan:**

1. Ishlab turgan kadrlar rqyxatini tuzish (uchetga olish). Ular rqyxatdagi xodimlari va noishlab chiqarish xo'jaligi xodimlariga ajratiladi. Korxonada xodimlari

rqyxatining tarkibi - bu doimiy va vao'tincha bir va undan ortiq kunga ishga olingan asosiy va noasosiy faoliyat bilan shug'ullanadigan xodimlardir.

Xodimlarni rqyxat bo'yicha tarkibi qo'rsatkichi har kunlik tabel bo'yicha ma'lumotlarda aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarish xodimlari (S.I.X.). Bular: - asosiy va yordamchi tsexlar, korxonaning boshqaruv apparati, laboratoriya, ilmiy tadqiqot va tajriba ishlaridagi xodimlar:

- konstruktorlik bo'limlari, hisoblash markazlari xodimlaridir.

Ular to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish faoliyati va unga hizmat qilish ishlari bilan band bo'ladilar. **Ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan bo'limlardagi xodimlar.** Ular korxonaning uy-joy, komunal xo'jaligi, qo'shimcha xo'jaliklar, soqliqni tiklash punktlari, profilaktoriylar o'qo'v dargohi xodimlaridir.

Sanoat ishlab chiqarish xodimlari o'z vazifalariga qo'ra:

- **Ishchilar** (kichik hizmat xodimlari va qorovul xodimlar);
- **Xizmatchilar** - raxbarlar, mutaxassislar va boshqalar (idora xodimlari, xisob, nazorat ishlaridagi, xo'jalik xizmatidagi (agentlar, kassirlar, devonxona xodimlari, ish yurituvchilar), sekretarlar, statistiklar va x.k.lar).
- **Mutaxassislar** - Bu muxandislar, texnologlar, buxgalterlar, iqtisodchilar va boshqalar.

Xodimlar tarkibida eng asosiysi, hal qiluvchi kuchga ega bo'lgani - bu ishchilardir. Ular ko'pchilikni tashkil etadi. Ular mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarida, shuningdek dastgoxlarni ta'mirlash va karash, mehnat vositalarini, tayyor maxsulotni bir joydan ikkinchi joyga kqchirish va shunga o'xshash ishlarda to'g'ridan-to'g'ri qatnashadilar.

Xilma-xil iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi turli xil sanoat tarmoqlarining xususiyatlari.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va har xil texnologiyalarni qo'llash zarurligini taqozo etadi. Bunday holat esa, o'z navbatida kadrlarning **kasb-malaka tarkibiga** maxsus talablar qo'yadi.

«**Mutaxassis tushunchasi**» - kadrlar kasbi doirasidagi mexnat taqsimoti ta'sirida yuzaga keladi. «**Mutaxassis**» - degani kishining tor doiradagi ishni bajarish uchun bilimlari va maxoratlari yig'indisini ifoda etadi.

«**Malaka**» - qandaydir kasb, mutaxassislik bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlar va mehnat maxoratlari darajasidir.

Kadrlar bilan ta'minlash, ayniqsa qayta ishlash sanoati korxonalarida ancha murakkab va ko'p qirrali.

Bu masalani xal qilish birinchi galda **xodimlar miqdori va sifati** bo'yicha tarkibini aniqlashni talab etadi. Buning uchun maxsulot ishlab chiqarish yoki qandaydir ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ish vaktini aniqlash kerak bo'ladi. «**Zarur bo'lgan ish vao'tini**» aniqlash texnik-tashkiliy va ijtimoiy omillar guruhiga bog'liqdir. Bu guruhlar tarkibida ish vao'ti miqdorini belgilovchi, unga ta'sir qiluvchi juda ko'p va xilma-xil shart-sharoitlar mavjud. Ularni ta'sirini hisobga olgan holda «zarur bo'lgan ish vao'tini» aniqlash har bir ish joyida, barcha mehnat jarayonlari ishlab chiqarish iqtisodiy va texnik jihatdan tashkil etilishining imkoniyatlarini xar tomonlama taxlil qilish zarurdir. Kerak bo'lgan ish vao'ti miqdori shuningdek mehnat intensivligi darajasi bilan ham bog'liq, bu esa ish vao'tining mehnat sarfi me'yorini (normasini) to'g'ri belgilashni taqozo etadi.

Xarajat normalarining to'g'riligi darajasi (tarangligi) odatda ularni bajarish koeffitsienti yordamida topiladi. Agar ish vao'tining normasi yuqori bo'lsa normalar bo'sh qo'yilgan bo'ladi, past bo'lsa normalar tortilgan, to'g'ri qo'yilgan hisoblanadi.

Umuman bu muammo shunday hal qilinishi kerakki, bunda har bir ishchi uchun normal darajadagi mehnat yuki ta'minlanishi lozim. Bunda albatta bir qancha omillar ta'siri hisobga olinadi.

Ushbu masala yuzasidagi muammolar maxsus ilm sohasi bo'lgan «Mehnat iqtisodiyoti va normalashtirish» fanida o'rgatiladi va xalq etish yo'llari qo'rsatiladi. Bugungi kunda iqtisodiy bilimlarning ana shu eng muhim sohasi oliy o'qov yurtlari tomonidan unutilgan.

Korxonalarni ish kuchi bilan ta'minlashdagi muammolarning ikkinchi - **ishlab chiqarishga jalb etika etganlarning malakasi** tarkibini aniqlashdir.

Buni aniqlash «**mehnat sifatini**» baholashga asoslanadi. «Mehnat sifati» tushunchasi mehnat murakkabligi va uni bajarish masuliyatini ifodalaydi. Umuman olganda, bu aniq turdagi bir-biridan farq qiladigan mehnat faoliyati sifatidir.

Mehnat iqtisodiyotida «murakkab mehnat» tushunchasi ham alohida o'rin tutadi. «Murakkab mehnat» («mehnat murakkabligi») oddiy mehnatni ko'paytmasi, malakali mehnat xarajatlari, ya'ni bir xil vaqt mobaynida (soat, ish smenasi) ko'proq qiymatga ega bo'lgan maxsulot yaratish; unumli mehnat sifatida qaraladi.

«Mehnat murakkabligi» ga quyidagi talablar quyiladi:

■ mehnat buyumlari xususiyatidan kelib chiqadigan talablar: xom'ashyo, materiallarning moddiy va konstruktiv xususiyatini bilish, ularni xarajat miqdorini (me'yorini) bilish;

■ ish bajarish usullaridan kelib chiqadigan talablar: mustaqil bo'lish, masuliyatli, tajribali bo'lish va boshqalar.

10.2. Mehnat xodimlari miqdorini aniqlash

Mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish rejasini bajarilishini ta'minlash asosiy ishchilarga bo'lgan talabni hisoblashdan boshlanadi. Ularning va boshqa kategoriya xodimlarining soni bir yilda bajariladigan ishlar hajmiga mutanosibdir va aksincha. Bir kishiga to'g'ri keladigan unumdorlikka teskari nisbatda (proportsionaldir). Agar mahsulot hajmi va unumdorlik mehnat xarajati bilan norma-soatlarda qilchansa, asosiy ishchilar sonini formula yordamida quyidagicha topish mumkin:

$$S_{ax.} = T_{ms} / S_{iy} \cdot S_{ax.} \cdot K_{un.};$$

T_{ms} - mehnat salmog'i, norma-soatda

S_{iy} - bitta xodimning o'rtacha yillik ish soati

$K_{un.}$ - ishchining unumdorlik normasi koeffitsienti

$S_{ax.}$ - asosiy xodimlar soni

Ishlab chiqarish programmasining mehnat salmog'ini hisoblash asosi bo'lib har bir buyumning mehnat salmog'i xaritasi hisoblanadi. Unda shu xildagi mahsulot birligini ishlab chiqarilishi uchun. Barcha jarayonlarda ish turlari va razryadlari bo'yicha norma-soatlarda qancha mehnat sarf etilishi qo'rsatiladi.

Ishlab chiqarishning umumiy mehnat salmog'i har bir mahsulotning rejadagi soniga ko'paytmasining yig'indisiga tengdir. Bundan tashqari normalashtirilmaydigan mahsulot mehnat salmog'i va tugallanmagan ishlab chiqarishlarning qisishi ham hisobga olinadi.

Bir xodimni bir yilda o'rtacha ishlash vao'ti (ish vao'ti balansi) tartib bilan ketma-ket jadvalda qo'rsatilgandek topiladi:

Ish vao'ti balansi

t.r.	Ish vao'ti qo'rsatkichlari	Kunlar
1.	Kalendar vao't fondi	365
2.	Ishlamaydigan kunlar, ja'mi	59
	SHu jumladan:	
	- dam olish kunlari	54
	- bayram kunlari	5
3.	Kalendar bo'yicha ish kunlari (ish vao'tining nominal fondi)	306
4.	Ishga kelmagan kunlar-ja'mi	
	SHu jumladan:	
	- ta'til kunlari	
	- qo'shimcha tatil	
	- kasal bo'lgan kunlar	
	- ma'muriyat ruxsati bilan kelmagan kunlar	
	- qonun yo'l qo'ygan boshqa kelmagan kunlar	
	- sababsiz kelmagan kunlar (o'tgan yil xisoboti bo'yicha)	
	- ishsiz turib qolgan kunlar	
	Yildagi ish kunlari	
	Ish kunini qisqarishi hisobiga yo'qotilgan vao't	
	SHu jumladan:	
5.	- og'ir va zararli ishlardagilar uchun	
6.	- qsmirlar uchun	
	- emizikli onalar uchun	23
	- hisobot bo'yicha smenalar ichida turib qolishlar	
	Foydali ish vao'ti fondi	17
	Ish kunining o'rtacha uzunligi, soat	1
	Ish vao'tining foydali fondi, soatda	2
		3
7.		
8.		8
9.		1600

Ishchilar sonini unumdorlik normasini quyidagicha topish mumkin:

$$S_i = Q / N_u \cdot S_{iy} \cdot K_{un}$$

bunda, Q - reja davri uchun maxsulot xajmi (dona, qiymat birligida);

N_u - vao't birligi ichidagi unumdorlik normasi.

Ayrim xollarda potok yo'llarida va ko'p stanokda ish bajarish joylarida ularni boshqarish va xizmat qilish zonasining normasi asosida vao'tbay ishlaydigan xodimlar sonini aniqlash zarur:

$$S_i = I_{jg} / N_{jb} \cdot K_{sm} \cdot (1 + Y_{ik}/100)$$

bunda, I_{jg} - ishchilar guruhi xizmat qiladigan ish joylari soni.

N_{jb} - bitta ishchi xizmat qiladigan ish joylari sonining me'yor.

K_{sm} - korxonaning ish smenasi soni.

Y_{ik} - nominal ish vao'tiga nisbatan % - hisobidagi yo'qotilgan ish kunlari va ishga kelmagan kunlar.

Vao'tbay ishlaydigan ishchilarning turli guruhlarini sonini aniqlashning o'zini xususiyatlari bor:

a) dastgoxlar yoki ish joylariga biriktirib quyilgan ishchilar (xaydovchi, kran ishchisi, takelajchi) xizmat normasi asosida topiladi;

b) dastgoxlarga xizmat qo'rsatish va ularni ta'mirlashda band bo'lgan ishchilar soni rejali ogoxlantirish ta'mirlash tizimi (ROTT) asosida rejadagi mehnat salmog'i bo'yicha topiladi.

v) transportdagi ishchilarga bo'lgan talab yuk tushirish va yuklash, transport vositalari soni ularga xizmat qo'rsatish normasi, smena koeffitsienti bo'yicha aniqlanadi.

Raxbar xodimlar, mutaxassislar xizmatchilarga bo'lgan talab berilgan shtatdagi rqyxatga asosan hisoblanadi.

10.3. Mehnat unumdorligi va uni hisoblash usulari

Mehnat unumdorligi (bitta xodimning va xizmatchining) vao't birligi ichida ishlab chiqargan mahsuloti hajmi bilan yoki bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan vao't miqdori bilan aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi - bu aniq mehnatning masuldorligidir. Mehnat unumdorligi mehnat jarayolarning samaradorlik darajasini qo'rsatadi. Uning qsishi mahsulot birligi uchun sarflanadigan ish vao'tining tejimini yoki vao't birligi ishlab chiqariladigan mahsulotni ko'paytirishda qo'rinadi. Mehnat unumdorligi iqtisodiyotni va jamiyatni rivojlanishini eng muhim iqtisodi qo'rsatkichlaridandir.

Amerika iqtisodchilarini tasdiqlab yozishicha: Amerika iqtisodiyotini «Kelajakda rivojlantirishning eng muhim yagona qo'rsatkichi bu mehnat unumdorligidir. Tuddi shu qo'rsatgich boshqa omillarga qaraganda barcha mamlakatning hayot darajasini ko'proq belgilaydi va uzoq kelajakda hqjalik kompleksining iqtisodiy samaradorligini eng yahshi qo'rsatgichi hisoblanadi. Tarih qo'rsatadigan, dunyoda mehnat unumdorligi sohasidagi lider (etakchi) pirovard, natijada iqtisodiy, harbiy va siyosiy lider bo'lib qoladi».

Mehnat unumdorligi mahsulot qaysi birlikda hisoblansa qsha birliklarda qlchanadi:

1. Mehnat unumdorligini qiymat qo'rsatgichlarida aniqlash usuli. Bunda yalpi mahsulot, yoki tavar mahsuloti, realizatsiya mahsuloti qo'rsatkichlari ishlatilishi mumkin. Qaysi qo'rsatgichni qo'llash bu iqtisodchining maqsadiga bog'liq bo'ladi. Mehnat unumdorligining qiymat usulida mahsulotning barcha turlari va hajmlari, ishlar va xizmatlar yagona pul qo'rsatgichlari bilan ifodalanadi. Masalan, agar besh kishidan iborat ishchilar brigadasi bir smenada 100 ming so'mlik ish hajmini bajargan bo'lsa, u holda har bir ishchining smenadagi mehnat unumdorligi (ishlab chiqargan mahsuloti) quydagicha bo'ladi: $120:5=20$ (ming so'm), tegishli ravishda bir soatlik ish mobaynida $20:8=2,5$ (ming so'm) bo'ladi. Mehnat unumdorligini qlchashning qiymat usuli turli kasb va malakaga ega bo'lgan xodimlarning mehnat unumdorligi, masalan, qandolatchi va novvoyning, chilangar va haydovchining mehnat unumdorligi bilan taqqoslash imkonini beradi. Biroq bu usul qo'rinishdan universal bo'lishiga qaramay, bir qancha kamchiliklarga ham ega. Xususan unga narh omili, ya'ni bozor kon'nyukturasi va inflyatsiya ko'proq ta'sir qo'rsatadi.

2. Natura usulida - tonna, dona, metr va h.k.larda.

3. SHartli - natura usulida. Bu usul bir turdagi mahsulotning hillari ko'p bo'lgan sharoitlarda ishlatiladi. Masalan, tsement shifer ishlab chiqarish, sovunlar, turli hil konserva bankalari, poyafzallar, un, non, makaron mahsulotlarining sotish harajatlarini shartli miqdorda aniqlashda ishlatiladi. Bunda asosiy mahsulot turining koefitsenti birga teng qilib olinadi, qolgan tur mahsulotlarni unga nisbatan koefitsenti topiladi. Masalan 1,25; 1,45; va x.k.

Har bir tur mahsulot bo'yicha bu koefitsentlarni mos holda mahsulot hajmiga ko'paytirib umumiy mahsulot hajmi topiladi.

4. Hodimlar (ishchilar)ning mehnat sarfi usuli. Bu-bir hodimga to'g'ri keladigan norma-soatlardagi vao't miqdoridir.

5. Mahsulotning mehnat salmog'i (og'irligi) usuli, ya'ni ishlab chiqariladigan mahsulotga ketadigan mehnat sarfi miqdori. Ular- normativ darajasidagi, rejadagi va haqiqiy mehnat salmog'i qo'rsatgichlarga ajratiladi. Mehnat unumdorligi va mehnat salmog'i (og'irligi) qo'rsatgichlari o'rtasida teskari bog'liqlik. Mehnat salmog'i past bo'lsa, mehnat unumdorligi va shunga qo'ra bajarilgan ishlar hajmi ham ko'proq bo'ladi. Reja davridagi mehnat unumdorligini reja davridagi unumdorlikni qsish darajasiga ko'paytirish bilan topiladiyu Mehnat unumdorligini reja davridagi qsish darajasi rejadagi va haqiqiy unumdorlikni farqini xaqiqiy unumdorlikni miqdoriga nisbati bilan foiz (%) hisobida topiladi.

$$M_{ru} = \frac{100 (M_{py} - M_{xy})}{M_{xy}}$$

bunda, M_{ru} - bitta hodimning rejadagi unumdorligi.

M_{xu} - haqiqiy unumdorlik.

Mehnat unumdorigi yakka hodimning mehnat unumdorligi va ijtimoiy mehnat unumdorligiga ajratiladi. Yakka hodimning (jonli) mehnat unumdorligi vao't birligi ichida bitta hodimning ishlab chiqargan moddiy ne'matlari (unumdorligi) miqdori yoki mahsulot birligiga sarflangan vao't miqdori (mehnat salmog'i) bilan qlchanadi.

Ijtimoiy mehnat unumdorligi moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning yalpi ichki mahsulot miqdorini hodimlar soniga nisbati bilan topiladi.

Yuqorida keltirilgan mehnat unumdorligini qlchash usullarini har biri ham o'z afzalliklari bilan bir qatorda turli xil kamchiliklariga ham egadir.

Mehnatga va boshqa hil resurslarga bo'lgan talab uning unumdorligiga bog'liq bo'ladi. Umuman mehnat unumdorligi qancha yuqori bo'lsa unga (mehnat resurslariga) bo'lgan talab shuncha yuqori bo'ladi, real ish haqi ham ko'payadi.

Mehnat unumdorligini yuqori bo'lishi quydagi omillarga bog'liq:

1. Kapital;

2. Tabiiy resurslar va ularning sifati;

3. Tehnologiya va uning sifati;

4. Mehnat resurslarining (hodimlarning) sifati.. Ishchilarni salomatligi, bilimi va tayyorgarligi, shuningdek mehnatga munosabatini yuqori darajada bo'lishi. Ishchilarning ish vao'tidan, dastgohlar quvvatidan to'liq foydalanish. Ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etishning hilma-hil samarador usullaridan foydalanish;

5. Boshqa omillar:

a) boshqaruv tizimini samaradorligi va moslashuvchangligi (gibkost);

b) ish olib borish, ijtimoiy va siyosiy muhit;

v) firmalar ishlab chiqargan mahsulotlarni sotishini ta'minlaydigan ichki bozorni kattaligi;

g) hodimlarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligi;

d) ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar;

Har bir omilni mehnat unumdorligiga ta'sir etish darajasini aniqlash usullari mavjud. Masalan, fan texnika taraqqiyoti ta'siri natijasida mehnat unumdorligi ko'payadi va mahsulotning mehnat salmog'i darajasi (t) pasayadi va shuni hisobiga mehnat unumdorligining qsishi quydagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$M_y = \frac{M_{cd} \times 100}{100 - M_{cd}} \quad \text{yoki} \quad M_y = \frac{M_c \times 100}{C_{cd} - M_c}$$

bu erda: M_u - mehnat unumdorligini qsishi, %;

M_{ed} - mahsulot birligining, mehnat salmog'i darajasining pasayishi, %;

M_s - mahsulot birligining, mehnat salmog'i darajasining pasayishi, kishi-soat;

S_{sd} - mahsulot birligini uchun zarur bo'ladigan avvalgi mehnat salmog'ining boshlang'ich darajasi.

Misol: Agar yangi asbob- uskunalarni joriy etish natijasida mahsulot birligining sermehnatlik darajasi 12% kamaygan bo'lsa, mehnat unumdorligi 13,6% ortadi:

$$\frac{12 \times 100}{100 - 12}$$

$$100 - 12$$

Detal tayyorlashning boshlang'ich sermehnatlik darajasi 42 kishi-soat, yangi texnologiya kiritilganligi sababli u 5 kishi soatga kamaydi, bunda mehnat unumdorligi 13,5% ortadi:

$$\frac{5 \times 100}{42 - 5}$$

$$42 - 5$$

Mehnat unumdorligining pasayishiga ta'sir qiluvchi sabablar ham nihoyatda ko'p. Masalan, ular quydagilar:

- investitsiyani sekinlik bilan qisishi;
- homashyo resurslarini qiyinchilik bilan olinadigan joylarga surilishi, va kambag'al bo'lgan ya'ni tarkibida foydali moddalari kam bo'lgan va mayda konlarni hqjalik oborotiga jalb etilishini;
- agro-sanoat kompleksi samaradorligini pasayishi;
- mudofaa harajatlari va mamlakatda tartib o'rnatish bilan bog'liq harajatlar miqdori;
- tashqi savdoni tashkil etishdagi tqsiqlar bahosining pasayishi, eksport xomashyo salmog'ini pastligi, malaka, tajribani etishmasligi;
- asosiy fondlarni eskiligi;
- infratuzilma sohalarini (transport, aloqa, sug'urta va x.k.larni) sekin rivojlanishi;
- davlat intizomi, nazoratni va ijrochilik ishalrini bo'shligi;
- rivojlangan bozor munosabatlariga sekinlik bilan o'tish.

10.4. Korxonalarda ish haqi to'lovlarini tashkil etish

Ish haqi bu bir birlik mehnatdan foydalanish uchun to'lanadigan haqdir, mehnat birligining bahosidir. Ish haqi, yoki mehnat haqi to'lovlari aholi daromadining asosiy manbayidir.

Ish haqi nominal ish haqi va real ish haqiga ajratiladi.

Naminal ish haqi - ishchi va hizmatchilarning vao't birligi ichida (soat, kun, oy, yil) oladigan ne'matlar va hizmatlar miqdoridir,

Real ish haqi - ma'lum baho darajasida naminal ish haqiga tovarlar va xizmatlar harid qilishi mumkun bo'lgan miqdoridir.

Ular o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud:

Ish haqi darajasi bir qancha omillar bo'yicha farq qoladi:

- hodimlar kasbi, malakasi, qobilyati;
- mehnat sharoitlarining og'irligi;
- faoliyatning tarmoq hususiyatlari;
- tabiiy-iqlim sharoitlar va hududiy joylashishi.

Ish haqini tashkil etishning asoslari, quydagilar:

1. Mehnatni tehnikoviy normallashtirish. Ish birligi uchun mehnat haqi to'lovlari miqdorini (bahosini) aniqlashda shunday mehnat narmallari ishlatiladi.

2. Ish haqining tarif sistemasi.

3. Hodimlarni mehnatlari hususiyatini hisobga olgan ish haqisini hisoblash uchun zarur bo'lgan mehnat haqi to'lovlarining shakllari va tizimi.

Tarif sistemasi (tizimi) mehnatning sifati, hususiyati va sharoitlariga bog'liq holda ish haqini difirentsiya qilish va boshqarishning narmativlari majmuasini tashkil etadi. **Tarif tizimi uch qisimdan iborat:**

1. Tarif-malaka qo'llanmasi
2. Tarif setkasi
3. Tarif stavkasi

Tarif-malaka qo'llanmasi - bu ishlarni tariflarga ajratish va xodimlarga razryadlar berish uchun qo'llaniladigan me'yoriy hujjatdir. Bu hujjat ishlab chiqarishlar va ish turlari bo'yicha guruhlariga ajratilgan xodimlarning barcha kasblari, ishlab chiqarishlar va ish turlari uchun tuzilgan. Tarif - malakalarining tqplamidir. Bu tqplam yordamida turli xil murakkablikdagi ishlar, xodimlar malakasining darajasi taqqoslanadi, baholanadi. TMQ - si barcha turdagi ishlarni razryadlarga ajratish uchun hizmat qiladi.

Tarif setkasi - bu tarif razryadlari va unga mos keladigan tarif koeffitsentlarini qo'rsatadi va ma'lum xildagi ishlarni ma'lum malaka guruhlariga kiritish imkoniyatini beradi.

Tarif stavkasi - vao't birligi ichida turli guruh va kategoriyadagi ishlarga to'lanadigan mehnat xaqining absolyut miqdorini aniqlaydi.

Rahbarlik lavozimidagilar, mutaxassislar va hizmatchilar kategoriyasiga kirga xodimlar mehnatini baholash uchun tarif-malaka qo'llanmasi ishlab chiqilgan. Ushbu qo'llanma xodimlar malakasining xarakteri va mehnatning mohiyatiga muvofiq tashkil etilgan.

Malakalar tavsiloti bo'yicha qo'llanma 3 qisimdan iborat bo'lgan talablarni o'z ichiga oladi: Lavozim bo'yicha majburiyatlar; nimalarni bilishi zarur; malakasiga talablar.

Tarif stavkalari va lavozimlarga maoshlar qo'llaniladigan turli xil qo'shimchalar:

- og'ir va zararli ishlar, juda og'ir va juda ham zararli mehnat sharoitlari uchun;
- yuqori darajadagi mehnat intensivligi uchun;

- ish vao'tidan tashqari ishlarga;
- kasblarni almashtirib ishlash va hizmat ko'lamini kengayishi uchun;
- brigadaga rahbarligi uchun;
- yuqori darajadagi kasb malaka mahorati uchun;
- o'ta muhim va o'ta zarur ishlarni bajarish uchun.

Ish xaqini tashkil etishda vao'tbay va donobay ish xaqi shakllari qo'llaniladi.

Donobay yoki ishbay ish haqi bajarilgan ishlar miqdori va mehnat birligi bahosiga bog'liq bo'ladi. Bajarilgan ishlarni hisobga olish va normalishtirish mumkin bo'lgan sharoitda qo'llaniladi o'z navbatida u quyidagi turlarda bo'ladi:

- to'g'ridan-to'g'ri bajarilgan ish miqdoriga xaq to'lash;
- ilg'or- ishbay xaq to'lash;
- egri, ishbay va okkord yo'li bilan xaq to'lash.

Vao'tbay xaq to'lash haqiqatda ishlangan vao'tga va uning uchun belgilangan tarif stavkasiga asosan xaq to'lashga bog'liq bo'ladi.

Amaliyotda mehnatga haq to'lashda O'zbekistonda soliq yukini nihoyatda yuqoriligi, noqonuniy asosda xodimlarga haq to'lashni korxonalar uchun foydali qilib qo'yimoqda. Buni quyidagi shartli misoldan qo'rish mumkin.

Korxonaning mehnat haqi to'lovlari (so'm hisobida)*

№	Qatorlar	Qo'rsatkichlar	Stavka	Summasi
1	2+6	Ajratilgan ish haqi		145500
2	3+5	Jismoniy shaxslarning ish haqidan soliq va vzoslarning olingan miqdori		45343
3		Jismoniy shaxslardan daro-mad solig'i – 13-32%	27,7%	40250
4		Jismoniy shaxslardan kasaba uyushmasi vzoslari – 1%	1%	1455
5		Jismoniy shaxslarning ish haqidan majburiy sug'urta vzoslari (nafaqa fondi uchun) – 2,5%	2,5%	3638
6	1-2	Soliq va vzoslarni to'lagan-dan keyingi haqiqiy oladigan ish haqi		100157
7	8+10	Mehnat haqining qo'shimcha to'lovlari		54127
8		Nafaqa fondiga ajratmalar	35%	50925
9		Bandlik fondiga ajratmalar	1,5%	2183
10		Korxonalarni kasaba uyushmasi vzoslari	0,7%	1019
11	1+7	Korxonada hisobidan mehnat haqi to'lovlari uchun ajratilgan pul miqdori		199627

Asosiy iboralar va tushunchalar

1. **Mehnat unumdorligi** – bu vao't birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi yoki bir-birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan vao't miqdoridir.

2. **Mehnat resurslari** – aqliy va jismoniy mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilardir, ularning mehnat qobiliyatlaridir.

3. **«Mutaxassis» tushunchasi** - kadrlar kasbi doirasidagi mehnat taqsimoti ta'sirida yuzaga keladi. Mutaxassis deganda kishining tor doirada ish bajarish usuli, bilimlari va mahoratlari yig'indisini tushunish lozim.

4. **«Malaka»** - qandaydir kasb, mutaxassislik ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlar va mehnat mahoratlari darajasidir.

5. **Ish haqi** – bu bir-birlik mehnatdan foydalanish uchun to'lanadigan haqdir, mehnat birligining bahosidir.

Nazorat savollari

1. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligi to'g'risida tushuncha.
2. Ish vao'ti balansi, uning mohiyati va zaruriyati.
3. Mehnat unumdorligi va uni hisoblash usullari.
4. Ish haqi to'lovlarini tashkil etish tartibi.

* Jurnal «Ekonomicheskoe obozrenie» №2; 2004 y. 18 bet.

XI-BOB. ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA KORXONA FOYDASI

11.1. Ishlab chiqarish harajatlari va ularning tarkibi

Rivojlangan bozor munosabatlarini shakllanib borishi, kamyoblikni, ayrim ishlab chiqaruvchilar yakka hokimligini tugatilishi bilan **korxonada foydasini oshirishning faqat bitta yo'li qoladi - mahsulot hajmini oshirish va uni ishlab chiqarish harajatlari kamaytirish.**

Bozor munosabatlari sharoitida turli xildagi korxonalar, xo'jaliklar samaradorlikni ifodalovchi juda ko'p xildagi «Qo'rsatkichlar tizimi»ga mos holda, ularni ta'minlashga intilib ishlay olmaydi. Korxonada faoliyatini baholashning optimal mezonlari xalq xo'jaligini shunday baholash mezonlariga mos kelishini talab qilish ma'qul emas^{x)}. **Hozirgi davrda korxonalar yuqori foyda va rentabellikka erishishi uchun tavakkal qilib, tashabbus qo'rsatib, mustaqil ravishda ishlashiga to'g'ri kelmoqda. SHuning uchun foyda qo'rsatkichini mahsulot tannarxini kamayishi natijasida olingan foyda salmog'i bilan to'ldirish lozim.** Bu qo'rsatkich korxonani ishlab chiqarish harajatlari kamaytirishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. **Korxonada foydasi mahsulot bahosiga va uni ishlab chiqarish harajatlari bog'liq. Erkin raqobat sharoitida mahsulot bahosi ishlab chiqaruvchining yoki iste'molchining hohishiga qarab yuqori yoki past darajada bo'la olmaydi. Mahsulot bahosi bozorda talab va taklifning nisbatiga qarab tashkil topadi. Baho mahsulot qiymatiga kamdan-kam mos keladi. Bugungi kunda baho nazariyasining asoschisi hisoblangan ingliz iqtisodchisi Alfred Marshall (1842-1924) ta'limotiga binoan baho bir tomondan foydalilik, ikkinchi tomondan ishlab chiqarish harajatlari asosida shakllanadi.** Ishlab chiqarish harajatlari iste'mol qilinadigan mehnat va moddiy resurslar texnika, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish, tabiiy boyliklar ularni qazib chiqarish shart-sharoitlari, usullari kabi omillar darajasiga bog'liqdir. **Harajatlarsiz foydaga erishib bo'lmaydi. Korxonaning qiymat birligidagi mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha barcha harajatlari mahsulot tannarxi deb ataladi.** Mahsulot tannarxi harajatlari elementlari va moddalari bo'yicha guruhlariga bo'linadi. Harajatlarning iqtisodiy elementlari harajatlarni iqtisodiy jihatdan o'xshashligini, yqnalishini ifodalaydi. Ular quyidagilar:

- hom-ashyo va asosiy materiallar
- yordamchi materiallar
- chetdan olingan yoqilg'i
- chetdan keltirilgan energiya (ular hammasi moddiy harajatlardir)
- ish haqi to'lovlari
- ijtimoiy sug'urta ajratmalari
- asosiy fondlar amortizatsiyasi
- boshqa moliyaviy harajatlari

Harajatlarning elementlari ishlab chiqarish harajatlari bo'lib, harajatlari smetasini tuzishda zarur bo'ladi. boshqa moliyaviy harajatlarga quyidagilar kiradi:

- soliqlar, yig'imlar, nobyudjet fondlar va byudjetga ajratmalar. Ular mahsulot tannarxiga qo'shiladi.
- korxonada mulkini majburiy sug'urta to'lovlari, bankning qisqa muddatli ssudalari uchun foiz to'lovlari;

^{x)} Ekonomika predpriyatiya. Uchebnik pod red. prof. V.Ya. Gorfinkelya, prof. V.A. SHvandara YuNITI. Moskva-2001 s 135-136

- mahsulot tannarxiga kiruvchi aloqa xizmatlari uchun to'lovlar, yong'inni oldini olish va qorovullik uchun to'lovlar xodimlarni tayyorlash, ixtiro va kashfiyotlar uchun mukofotlar, reklama harajatlari va h.k.

Mashinasozlik sanoati korxonalarida mahsulot tannarxining moddalari quyidagi qismlardan iborat:

1. Xoma ashyo va materiallar;
2. Sotib olinadigan buyumlar va yarim fabrikatlar va boshqa xizmatlar qiymati;
3. Qaytariladigan chiqindilar;
4. Texnologik maqsadlar uchun yoqilg'i va energiyalar;
5. Ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy ish haqi;
6. Ishlab chiqarishdagi ishchilarning qo'shimcha ish haqi;
7. Mehnat haqi mablag'laridan byudjetga va nobyudjet fondlarga ajratmalar;
8. Ishlab chiqarishni tayyorlash va o'zlashtirish harajatlari;
9. Ma'lum maqsadlardagi asbob-anjomlar emirilishi va boshqa maxsus fondlar.
10. Dastgohlarni saqlash va undan foydalanish harajatlari

Ja'mi: Tsex harajatlari


11. Umumzavod harajatlari;
12. Brak mahsulotdan kelgan yo'qotish;
13. Kommertsiya harajatlari

Ja'mi: Mahsulotni ishlab chiqarish harajatlari

14. Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan harajatlar

Hammasi: Mahsulotning to'la tannarxi

13-chizma



Moddalar bo'yicha harajatlar ularni nimalarga, qanday maqsadlarda ishlatilishini qo'rsatadi. Ular ayrim hil mahsulotlar va butun tovar mahsuloti bo'yicha harajatlarni kalkulyatsiya qilish ya'ni, rejalashtirish uchun ishlatiladi.

Demak, ishlab chiqarish harajatlari bilan ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan harajatlar tovar mahsulotining to'la tannarxini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi bo'yicha harajatlar: shartli-doimiy harajatlarga va shartli-o'zgaruvchan harajatlarga bo'linadi. **SHartli-doimiy harajatlarga** ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi natijasida deyarli miqdori o'zgaraydigan, shu jumladan, xonalarni isitish va yoritish, tsex va ma'muriy boshqaruv xodimlarining mehnat haqi to'lovlari, amortizatsiya, umumxo'jalik harajatlari (soliqlar, to'lovlar va ajratmalaridan tashqari), kommertsiya harajatlari (idishlar, buyumlarni upakovka qilish, tashish harajatlaridan tashqari) kiradi.

11.2. Xarajatlarni foyda miqdoriga ta'siri

Ma'lumki foyda miqdori bir qancha omillar ta'sirida bo'ladi, ular har xil darajada ta'sir etadi. Ayniqsa sof foyda miqdori bozor sharoitida kreditlarni moliyalashtirish, stavka foizlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy boshqarish nuqtai nazaridan sof-foyda birinchi navbatda, korxonaga berilgan moliyaviy resurslarni qanchalik to'g'ri ishlatganligiga, ya'ni ular nimalarga sarf etilganligiga bog'liq. Ikkinchidan, mablag'lar tarkibining manbalariga bog'liq. Birinchi holat asosiy va aylanma mablag'larning hajmi, tuzilishi va samarali ishlatilishida qo'rinadi. **Mahsulot tannarxining asosiy elementlari bu o'zgaruvchan va doimiy harajatlardir. Lekin ular o'rtasidagi nisbat har xil bo'ladi va korxonani texnika, texnologiya sohasida tanlagan siyosati bilan aniqlanadi. Mahsulot tannarxini tuzilishini o'zgarishi albatta foyda miqdoriga ta'sir etadi.** Asosiy kapitalni investitsiyalash doimiy harajatlarni ko'payishi (nazariy jihatdan bo'lsa ham) va o'zgaruvchan harajatlarni kamayishi bilan birga kechadi. Lekin ularning bog'liqligi bir xil emas. **SHuning uchun doimiy va o'zgaruvchan harajatlarning o'rtasidagi optimal darajadagi bog'liqlikni aniqlash oson emas. Xuddi shu bog'liqlik ishlab chiqarish (yoki operatsion) leviridji kategoriyasi bilan tavsiflanadi.** Uning darajasi korxonaning ishlab chiqarish tavakkalchiligini qo'rsatadi.

Ishlab chiqarish leviridji – bu doimiy va o'zgaruvchan harajatlarning miqdorining nisbatini umumiy harajatlardagi salmog'i bilan ifodalanganadi.

$$L_{\text{ИШ}} = \frac{\text{TFC}}{\text{TVC}},$$

«Leviridj» - «Leverage» amerikacha ibora bo'lib, maxsus adabiyotlarda keng qo'llanilmoqda.^{x)}

«Leviridj» qandaydir kuch ta'sirida og'ir buyumlarni ko'tarish ma'nosini beradi. Boshqacha aytsak, ma'lum miqdordagi foydani olishga bo'lgan harajatlarning ta'sir kuchini qo'rsatadi. Misol. Bitta tumanda kelib joylashgan ikki korxonaga – biri «Nurli tong», ikkinchisi «Ester» turistik firmasi haqida quyidagi axborotlar ma'lum. «Nurli tong korxonasi» chuchvara mahsulotlarini tayyorlaydi, tortib joylashtiradi va ulgurji savdo qiladi. Bu erda o'zgaruvchan harajatlarning bo'lib chuchvara uchun hom ashyo, upakovka materiallari va mehnat harajatlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish avtomatlashtirilgani tufayli boshqa harajatlarning mahsulot hajmiga bog'liq emas, shuning uchun doimiy harajatlarning hisoblanadi. **Ikkinchi korxonaga – «Ester» turistik agentligi Evropa davlatlardagi shaharlar bo'yicha avtobusda turistik xizmatlarni amalga oshiradi.** O'zgaruvchan harajatlarning bo'lib unda har bir yo'llanmaning narxi (komission mukofotlardan tashqari) bo'lib, bu harajatlarning turizm operatori hisobiga o'tkaziladi. Komission yig'im miqdori odatda har bir tur sayohat xizmatidan 20% ni tashkil etadi. «Nurli tong» va «Ester korxonalarining» 2005 yil 3 kvartali bo'yicha moliyaviy natijalarining shakllanishini quyidagi jadvaldan qo'ramiz.

«Nurli tong» va «Ester» korxonalarining 3 kvartal 2005 yil bo'yicha moliyaviy natijalari

Qo'rsatkichlar	«Nurli tong» korxonasi		«Ester» firmasi	
	Ming so'm	Pul tushimla-riga % hisobida	Ming so'm	Pul tushimla-riga % hisobida
1. Pul tushumlari	45000	100	45000	100
2. O'zgaruvchan harajatlar	26000	58	36000	80
3. Qo'shimcha	19000	42	9000	20
4. Doimiy harajatlar	16000	35	6000	13
5. Foyda	30000	7	3000	7

Qo'rinib turibdiki olingan pul mablag'lari hajmi bo'yicha korxonalar bir xil. (45000; 3000; 7). **Ammo harajatlar tarkibi esa keskin farq qiladi.** «Ester» turistik agentligida o'zgaruvchan harajatlar salmog'i 80% bo'lsa, «Nurli tong» korxonasida 58%. Hisoblashlar quyidagi natijalarni qo'rsatadi.

Qo'rsatkichlar	«Nurli tong»	«Ester»
- Zararsizlik nuo'tasi	27586	7500
- Ishlab chiqarish leviridji ^x) (TFC/ TVC)	0,62	0,17
- Ishlab chiqarish leviridjining samardorligi	6,33	3,00

Jadvalda TFC – doimiy harajatlar, TVC - to'liq o'zgaruvchan harajatlar.

Zararsizlik nuo'tasi – korxonada foyda ham, zarar ham qo'rmaydigan mahsulot hajmini ifoda etish darajasidir. Qo'ramizki doimiy va o'zgaruvchan harajatlarni qoplab zararsizlik nuo'tasiga chiqish uchun «Nurli tong» korxonasi sotish hajmini anchagina oshirishi zarur. (27586 so'm). U holda «Ester» firmasi 7500 so'mlik yo'llanma sotsa kifoya qiladi. SHunda ham foyda olishni boshlaydi.

Bu hildagi misollar ko'plab resurlar talab qiladigan metallurgiya, temir yo'l, suv transporti, neft qazib chiqazish sohalariga tegishli. Bunday korxonalarda doimiy harajatlar salmog'i ancha yuqori bo'ladi. (Ishlab chiqarish leviridji yuqori). Ularda bozor munosabatlari holati yaxshi bo'lmasa zarar qo'rish ehtimoli tavakkalchiligi yuqori bo'ladi. **Ishlab chiqarish levirid-jini yuqori bo'lib chiqishi korxonani tavakkalchilik bilan ish qo'rishini qo'rsatadi. Lekin harajatlar tarkibida doimiy harajatlar salmog'ini yuqori bo'lishini salbiy holat deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi.** Sababi bunday sharoitda korxonada yangi ishlab chiqarish quvvatlari kiritilgan, texnikaviy qayta qurish ishlari, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari amalga oshirilgan bo'lishi mumkin. So'zsiz bu xildagi barcha omillar ijobiy bo'lib doimiy harajatlar salmog'ini oshiradi va ishlab chiqarish leviridji samaradorligini, mehnat unumdorligini qsishini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish leviridjini samaradorligini korxonada pul tushumlarini o'zgarishi bilan, uning foydasi bilan o'zgarishini ifodalaydi. «Nurli tong» korxonasida ishlab chiqarish leviridji 6,33% ga teng. Bu shuni qo'rsatadiki, mahsulot sotishdan kelgan pul tushumlarini 1% kamayishi uning foydasini 6,33% ga kamayishiga olib keladi. Pul tushumlarini 10% ko'payishi foyda miqdorini 63,3 % ga o'zgartiradi. (10% \times 6,33%).

SHunday qilib, korxonada yoki firmalardagi ishlab chiqarish leviridjining darajasi – bu mahsulot tannarxi tuzilishi va ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish yo'li bilan foydadan foizlar va soliqlarni ajratguncha bo'lgan foyda miqdoriga ta'sir etishning potentsial imkoniyatlarining tavsifidir.

Demak, mahsulot sotishdan kelgan pul tushumlarini o'zgarishi foyda miqdorini keskin o'zgartiradi. Bunday holat esa ishlab chiqarish dastaklarining samaradorligi deb ataladi. **O'zgaruvchan harajatlarni qoplagandan keyingi realizatsiya hisobidan kelgan tushumlarni foydaga nisbati ishlab chiqarish dastaklarining ta'sir kuchini qo'rsatadi.** Umumiy harajatlar miqdori bir xil bo'lganda o'zgaruvchan harajatlar qancha kam bo'lsa, ishlab chiqarish dastaklarining ta'sir kuchi ham shuncha ko'p bo'ladi.

11.3. Korxonalar foydasi va uning taqsimlanishi


Foyda, daromad to'g'risida tushuncha va uni hisoblash tartibi. Ishlab chiqarish samaradorligini har tomonlama oshirish iqtisodiyotni hozirgi bosqichida rivojlantirishning eng muhim xo'jalik vazifasidir.

Bu vazifani hal etish maksimal foyda bergan mahsulot hajmining optimal yo'llarini tanlash bo'yicha qilinadigan ishlarni davom ettirish bilan bog'liqdir. Foydani maksimallashtirish to'g'risidagi taxminlar makroiqtisodiyotda ko'p ishlatiladi. Chunki uning yordamida korxonalar va firmalarning xatti-harakatlarini (faoliyatini) aniq bashorat qilish va keraksiz murakkab analitik hisoblashlardan voz kechish mumkin.

Foyda - ishlab chiqarish samaradorligining eng muhim qo'rsatkichidir. Korxonalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuniy hujjatlarida qo'rsatilishicha: Hamma turdagi korxonalarni xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini umumlashtiruvchi asosiy qo'rsatkich foyda (daromad)dir. Foyda (daromad) amartizatsiya ajratmalari, qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushgan pul, mehnat jamoasi a'zolarining, korxonalar va tashkilotlar, fuqarolarning pay va o'zga badallari, shuningdek boshqa tushimlar korxonalar moliyaviy resurslarini tashkil etuvchi manba'lardir. Foyda va daromad tushunchalari bir xil emas. Daromad miqdori foydadan kattadir. Korxonaning xo'jalik faoliyatidan olingan daromad uning hisobiga quyidagi qismlar bo'yicha qo'shiladi:

- I. Mahsulotni sotishdan kelgan sof tushum.
- II. Asosiy faoliyat natijalaridan kelgan daromad.
- III. Moliyaviy faoliyatdan kelgan daromad.
- IV. Favquloddagi xolatlardan kelgan foyda.

Daromadni taqsimlash tartibi*



* V.V.Kavalev, O.N.Volkova. Analiz xozyaestvennoy deyatelnosti predpriyatiya. Uchebnik. «Prospekt», M. 2002g. st. 277.

Ularning tarkibi to'g'risida ma'lumotlarni «mahsulotni (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish, hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida»gi Qo'llanmadan topish mumkin. **Sotilgan mahsulotdan kelgan sof tushum – bu daromaddir.** Mahsulot sotishdan kelgan sof tushumni aniqlash uchun (ishlar, xizmatlar) sotishdan kelgan tushumdan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiyalar qiymati, chetga chiqarilgan mahsulot solig'i kabilar ayrib tashlanadi. **Xuddi shu sotilgan mahsulotdan olingan sof tushum qo'rsatgichi korxonani o'z ixtiyorida qolgan daromadini qo'rsatadi va bu daromad undan keyingi barcha turdagi foyda qo'rsatgichlarini hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.** Daromadni taqsimlash tartibi quyidagi chizmada keltirilgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt (yuridik shaxs) faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi qo'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda. Bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tavofut, farqdir.

$YaF = SST - IT$, bunda

YaF – yalpi foyda;

SSI – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

1. Asosiy faoliyatdan qo'rilgan foyda - mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davriy xarajatlar o'rtasidagi tafovut va asosiy faoliyatdan qo'rilgan boshqa daromadlar va zararlar farqining yig'indisi sifatida aniqlanadi:

$AFF = YaD - DX + BD - BZ$, bunda

AFF – asosiy faoliyatdan olingan daromad;

DX – davr xarajatlari;

BD – boshqa asosiy faoliyatdan olingan daromad

BZ – asosiy faoliyatdan qo'rilgan boshqa zararlar.

2. Xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar) - asosiy faoliyatdan olingan foyda va moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zarar farqining yig'indisi sifatida hisoblanadi:

$UF = AFF + MD - MX$, bunda

UF – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromad;

MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari.

3. Soliq to'laguncha olingan foyda (STF) - umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydaga favqulodda qo'rilgan foydani qo'shib qo'rilgan zarar miqdorini ayirish bilan topiladi:

$STF = UF + FF - FZ$

STF – soliq to'laguncha olingan foyda;

FF – favqulodda foyda;

FZ – favqulodda zarar.

4. Yilning sof foydasi - soliq to'lagandan keyin xo'jalik yurituvchi sub'ekt ixtiyorida qoladi va o'zida daromad (foyda)dan to'lanadigan soliqni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlangan holda ifodalanadi.

$SF = STF - DS - BS$, bunda

SF – sof foyda;

DS – daromad (foyda) solig'i;

BS – boshqa soliqlar va to'lovlar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning daromad (foyda) solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza quyidagicha hisoblab chiqiladi.

Soliq to'laguncha bo'lgan daromad (foyda)ga «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish

tartibi to'g'risida»gi Nizomning 1-ilovasida keltirilgan buxgalteriyadagi foyda bilan soliq solinadigan foyda o'rtasidagi doimiy tafovutlar qo'shilib, mazkur Nizomning 2-ilovasida keltirilgan xarajatlarni soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlash vao'tidagi tafovutlar qo'shiladi yoki chegirmalar va qonunchilikka muvofiq soliq imtiyozlari chegiriladi.

Yuqorida keltirilgan qo'rsatkichlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning 2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobotida o'z aksini topadi.

Olmota shahridagi «Alkor» mashinasozlik korxonasi moliyaviy natijalarini quyidagi ma'lumotlardan qo'rish mumkin:

14-jadval

Olmota shahridagi «Alkor» mashinasozlik korxonasi moliyaviy natijalari (gipotetik ma'lumotlar)

№	Qo'rsatkichlar	O'tgan yili		Hisobot yili	
		Daromad	Harajat	Daromad	Harajat
1	Mahsulotni sotishdan kelgan tushum. QQS	245129 ---	29146	322946 ---	44308
2	Mahsulot sotishdan kelgan sof tushum	215983		278638	
3	Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi		169778		253782
4	Yalpi sotishdan qo'rilgan foyda	46205		24856	
5	Asosiy ishlab chiqarish faoliya-tining moliyaviy natijasi	47361	17104	24856	20697
6	Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari	30859		7117	
7	Soliq to'lagunga qadar moliya-viy natija			7117	
8	Foyda (daromad)dan ajratma-lar		18056		5081
9	Boshqa soliq va ajratmalar		256		201
10	Hisobot davridagi sof foyda (zarar)	12547		1835	

Bu korxonada sport bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan 20 xilga yaqin trenajor uskunalar ishlab chiqaradi.

Korxonada qolgan sof foyda quyidagi ishlarga taqsimlanadi:

- ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- rezerv fondini yaratish;
- dividendlarni to'lash;
- yil yakunlari bo'yicha moddiy mukofatlar berish.

Taqsimlanmay qolgan foyda balans passivining birinchi qismi bo'lgan «Xususiy mablag'larni yaratish manbalari» qismining tarkibida turadi.

Jadval ma'lumotlaridan qo'rinadiki, korxonada qolgan sof foyda hisobot yilida ancha kam bo'lgan. Sotilgan tovar mahsulotlari rentabelligi o'tgan yili 18,8 % $(46205:245129) \cdot 100$; hisobot yilida $(24856:322946) \cdot 100 = 7,6\%$ bo'lgan, ya'ni salkam 2,5 marta past bo'lgan. Bunga sabab mahsulot tannarxi keskin oshib ketgan, foyda tarkibidagi o'zgarishlar esa qoniqarli bo'lmagan.

Asosiy iboralar va tushunchalar

1. **Samaradorlik** - resurslardan foydalanish mahsuldor-ligini ifodalaydi.
2. Mutloq (absolyut) samaradorlik - har doim olingan natijani uni olish uchun zarur bo'lgan harajatlarga nisbatini ifodalaydi.
3. Pirovard daromad (MR) deb mahsulot hajmini bir birlikka qshishi (ΔQ) natijasida daromadning qshishiga ($\Delta R(Q)$) aytiladi.
4. Yalpi sotishdan qo'rilgan foyda.
5. Asosiy faoliyatdan qo'rilgan foyda.
6. Umumiy faoliyatdan qo'rilgan foyda.
7. Soliq to'lashga qadar bo'lgan foyda.
8. **Iqtisodiy (sof) foyda** - bu umumiy pul tushumlaridan barcha harajatlarning farqidir (Moliyaviy natijalar bo'yicha hisobotga qarang FN№2. Harajatlar tarkibi to'g'risidagi qo'llanmaga, amaliy ma'lumotlarga murojat qiling).
9. **Yalpi foyda** – kompaniyaning mahsulot sotishdan kelgan pul tushumlari va mahsulot tannarxining farqi.
10. **Yalpi marka** – firmaning sotilgan mahsulotdan kelgan pul tushumlaridan foiz hisobidagi yalpi foydasi.
11. **Kliring** - o'zaro talablar va majburiyatlarni hisobga olish yo'li bilan naqd pulsiz hisob-kitob ishlarini amalga oshirish tizimi.
12. **Zararsizlik nuo'tasi** – chizmada ma'lum miqdorda ishlab chiqarilgan mahsulotdan keyingi har bir mahsulotning foyda keltirishini qo'rsatuvchi nuo'ta.
13. **Zararsizlik nuo'tasi** – korxonada foyda ham zarar ham qo'rmaydigan mahsulot hajmini ifoda etish darajasidir.
14. **Zararsizlik normasi** – sotilgan mahsulotdan kelgan daromadni ishlab chiqarish xarajatlari bilan teng kelishidir. Bunda «nol darajadagi foydaga» erishiladi.
$$\text{Zararsizlik normasi} = \frac{\text{Доимий харажатлар}}{\text{Махсулот бирлигининг бахоси} - \text{Махсулот бирлиги учун узгарувчан харажатлар}}$$
15. «**Leviridj**» – «Leverage» amerikacha ibora bo'lib, maxsus adabiyotlarda keng qo'llanilmoqda.
 - A. «Leviridj» - qandaydir kuch ta'sirida og'ir buyumlarni ko'tarish ma'nosini beradi. Boshqacha aytganda, ma'lum miqdordagi foydani olishga bo'lgan xarajatlarning ta'sir kuchini qo'rsatadi.
 - B. «Leviridj» - sotuvchi va xaridorning bozorda o'z o'rnini saqlash pozitsiyasi.
 - V. «Leviridj» - Operatsiya «dastagi», kompaniyaning asosiy faoliyat va foydalanilayotgan ishlab chiqarish quvvatidan olgan daromadi hisobiga foydasini qshish darajasi.
14. **Ishlab chiqarish leviridjining samaradorligi** – korxonada pul tushumlarini o'zgarishi bilan uning foydasi ham o'zgarishini ifodalaydi.
15. **Mahsulot tannarxi** - bu korxonaning qiymat birligidagi mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha barcha xarajatlaridir.
16. **Transaksiya** – kompaniyalarning hisob raqamida aks etdirilgan har qanday operatsiyalar.
17. **Transaksiyon xarajatlar** – kompaniyaning savdo-sotiq faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (aksiya, kqchmas mulk, har qanday aktivlar).
18. **Faktoring** – kompaniyaning qarzlarini (uning to'lanmagan schetlarini sotib olish va mijozidagi pullarini yig'ish) sotib olish yo'li bilan moliyalashtirish usuli.
19. **Dividentlar** – kompaniya aksionerlari uchun o'z foydasi (daromadi) hisobidan soliq to'lagandan keyingi to'lovlari. Kompaniya foyda olmaganda ham dividendlar rezerv fondi hisobidan to'lanishi mumkin.

20. Baho raqobati – tovar bahosini o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladigan raqobat kurashining bir turidir.


Nazorat savollari

1. Iqtisodiy samaradorlik nima?
2. Foyda, iqtisodiy foyda, pirovard daromad qanday hisoblanadi?
3. Ishlab chiqarish xarajatlari bilan foyda o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
4. Xarajat turlari va ularning mohiyati.

ILOVALAR

1-ilova

Iqtisodiy tahlil usullari




Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili

№	Qo'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Bazis davrida, % hisobida
1	Mahsulotni sotishdan kelgan pul tushumlari (QQS va aktsiz soliqlaridan tashqari)	158017	248835	154,3
2	Realizatsiya mahsuloti (ishlar, xizmatlar uchun xarajatlar)	125312	171434	136,8
3	Sotilgan Mahsulotdan olingan foyda	32705	72419	221,4
4	Boshqa realizatsiyalar natijasi	-410	432	105,4
5	Realizatsiya qilinmagan operatsiyalardan kelgan daromad va xarajatlar	+148	-324	-
6	Balansdagi foyda	33263	72527	218,0
7	Korxonalar ihtiyorida qolgan sof foyda	22813	49001	214,8


O'zbekiston sanoat tarmoqlarining tuzilishi

Tarmoqlar	Solmog'i, %	
	2000	2002
Sanoat-jami SHu jumladan:	100,0	100,0
I. Elektro enerergetika	9,5	7,6
II. g'qilg'i	16,7	12,2
III. Qora metallurgiya	1,4	1,3
IV. Rangli metallurgi	11,3	10,8
V. Kimyo va neftkimyo	5,9	6
VI. Mashinasizlik va metalni qayta ishlash	9,0	10,0
VII. O'rmon xo'jaligi va yog'ochni qayta ishlash	0,9	1,4
VIII. Qurilish materiallari	4,6	5,2
IX. Engil sanoat	20,1	20,4
X. Oziq-ovqat sanoati	11,8	15,0
XI. Boshqa tarmoqlar	9,6	10,1


Yangi korxonani yaratish tartibi




Firmalar mahsuloti bahosining shakllanish bosqichlari



Bahoni shakllanishini belgilovchi asosiy omillar guruhi



7-ilova
Sertifikatlash



Korxonada mulkdan soliq miqdorini hisoblash


(kvartal, yarim yil _____ yil)

200__y.

T/r	Qo'rsatkichlar	Soliq to'lovchining ma'lumotlari	Soliq tashkilotining ma'lumotlari
1.	Hisob davridagi soliq to'lanadigan mulkning o'rtacha yillik qiymati		
2.	Belgilangan mulk solig'i stavkasi		
3.	Hisob davri uchun mulk solig'i miqdori (1 qat. 2 qat): 100-jami		
4.	Hisobot davrida byudjet ajratilgan mulk solig'i muddati bo'yicha byudjetga to'lanishi zarur bo'lgan mulk solig'i (3 qat-4 qat)		

(kun)

(imzo)

Biznes rejani tuzish

Adabiyotlar

1. I.Karimov “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda”. - T.: O’zbekiston, 1999.
2. I.Karimov. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: Mafkura xavf- sizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. “O’zbekiston”, 1997.
3. I.Karimov Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejam-korlik bilan foydalanish – bosh yo’limiz. - T.: O’zbekiston, 2002.
4. I.Karimov “Vatan ravnaqi uchun hammamiz ma’sulmiz” - T.: O’zbekiston, 2001.
5. I.Karimov “O’zbekiston buyuk kelajak sari” - T.: O’zbekiston, 1998.
6. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. qn ikkinchi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II sesiyasida 1992 y. 8 dekabrda qabul qilingan. - T.: O’zbekiston, 1992.
7. Fermer xo’jaligi to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Qonuni. 1998 y. 30 aprel.
8. O’zbekiston Respublikasining “Xo’jalik yurituvchi sub’ektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida”gi Qonuni. 1998 y. 29 avgust.
9. “O’zbekiston Respublikasining er to’g’risida”gi Qonuni, 1998 y.
10. “O’zbekiston Respublikasi er kadastrini” Qonuni 1998 y.
11. “Bozorni iste’mol tovarlari bilan to’ldirishni rag’batlantirish va ishlab chiqaruvchilar bilan savdo tashkilotlarining o’zaro munosabatlarini takomillashtirish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 2002 y. 13 noyabr
12. O’zbekiston Respublikasining xo’jalik-protsessual Kodeksi.
13. O’zbekiston Respublikasining fuqarolik Kodeksi. - T.: Adolat 1996.
14. Qishloq xo’jaligi mahsulotlari kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish tartibi to’g’risida Nizom (O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 y. 29 avgust 438 t.r. Qaroriga ilova).
15. “Ekonomika predpriyatiya” Uchebnik. 2-oe izd. Pod red. akad. MAN VSH, prof. Semenova V.M.
16. Xripach V.Ya i dr. “Ekonomika predpriyatiya” Prokt. posobie. “Ekonom Press” Minsk-2000. 460 st.
17. “Ekonomika predpriyatiya” G.Z. Suma. Moskva-2000.
18. Keyler V.A. “Ekonomika predpriyatiya” Kurs lektsii Moskva-2000.
19. Semenov V.M., Baev I.A., Terexova S.A. i dr. “Ekonomika predpriyatiya” Pod red. prof. Gorfinkelya, prof. E.M.Kupryakova - Moskva. Izd. ob’ed. YuNITI, 1996.
20. “Ekonomika predpriyatiya”. Pod red. prof. O.I.Volkova, uchebnik. - Moskva INFRA-M. 1997.
21. V.P.Gruzinov, V.D.Gribov “Ekonomika predpriyatiya”. Uch. posobie. - Moskva Fin i stat, 1997.
22. G.I.SHepelenko. Ekonomika, organizatsiya i planirovanie proizvodstva na predpriyatii. Izd. 2-oe, dop i pererab. Uch. posobie. Izdat. Tsentr “Mart” Rostov na Donu. 2000.
23. “Ekonomika predpriyatiya”. Testi, zadachi, situatsii. - Moskva 2001.
24. “Ekonomika predpriyatiya” Uchebnik dlya VUZov Pod redaktsiey F.K.Bea, E.Dixtla, M.SHvayttern. Perpvod s nemetskogo Moskva - M.: Infra, 1999.
25. “Ekonomika predpriyatiya”. Uchebnik prof. I.A.Safronova - Moskva: Yurist,1998.
26. K.Abduraxmonov (rahbar), N.Bozorov, N.Volgin va boshqalar, “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”. Darslik, - T.: O’qituvchi, 2001.
27. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. Akademiklar S.g’ulomov va M.SHarifxo’jaevlarning umumiy taxriri ostida. - T., O’qituvchi, 2000.
28. M.SHarifxo’jaev “O’zbekiston: yangi g’oyalar, yangi yutuqlar” - T.: “Mehnat”, 2001.
29. V.S.Efremov Strategicheskoe planirovanie v biznes – sistemax. Moskva.: «Fin press», 2002.
30. V.V.Kovalev, O.N.Volkova Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya. Uchebnik – M.: «Prospekt», 2002.

31. Zarabotnaya plan na predpriyatii. Z vip. Bibl. Gaz. «Nalogovie i tamojennie vesti». Izd. Dom «Mir ekonomiki i prava», Tashkent, 2003.
32. V.A.Goremikin, A.Yu.Bogomolov. Planirovanie predprinimatelskoy deyatelnosti predpriyatiya. Metod. Posobie. Moskva.: «Infra-M», 1997
33. E.K.Smirnitsskiy. Ekonomicheskie pokazateli promishlennosti. M.: «Ekonomika», 1990.
34. Mehnat iqtisodi va sotsologiyasi. I.f.n., prof. Q.Abduraxmonovning taxriri ostida. T.: «O'qituvchi», 2001.